

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ **dots.S.U. Xodjaniyazov**

“ ___ ” avgust 2017-yil

«O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI»
fani bo‘yicha bakalavr yo‘nalishlari uchun

ISHCHI O‘QUV DASTURI

(I kurs, 2-semestr)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili)

Kurs: 1

Semestr: 2

Ishchi o‘quv rejasida ajratilgan soat:

Umumiy soat: 114

Auditoriya soati: 72

Ma’ruza: 36

Amaliy mashg‘ulot: 18

Seminar mashg‘uloti: 18

Mustaqil ta’lim: 42

Urganch – 2017

Ushbu Ishchi o‘quv dasturiga 5120100 ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha O‘zMUda 2017-yilda tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturi asos qilib olindi va UrDUning **o‘zbek tilshunosligi** kafedrasida muhokama qilindi. (Bayonnoma № __ 28-avgust 2017-yil)

Tuzuvchi:

k. o‘q. Quvondiq Olloyorov

ANNOTATSIYA

Ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2017-yil 2-iyunda tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, «O‘zbek tilshunosligi» kafedrasining 28-avgust 2017-yildagi yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Ushbu ishchi dastur filologiya fakultetining o‘zbek tili yo‘nalishlari 2-kurs talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda ma’ruzalar materiallari, amaliy va seminar hamda mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar o‘z aksini topgan. Bulardan tashqari, mazkur dasturda baholash mezonlari va taqvim rejalar ham o‘rin olgan.

**O‘zbek tilshunosligi
kafedraasi mudiri:**

f.f.n.dots.S.S.Ro‘zimboyev

Mazkur “Ishchi dastur” Filologiya fakultetining 2017-yil, 28-avgustdagi kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan. № 1 - sonli majlis bayoni.

Kengash raisi:

f.f.n. dots. Z.O.Jumaniyozov

SO‘ZBOSHI

1.1. Kirish. O‘zbek dialektologiyasi fanining maqsad va vazifalari. Dialektologiya «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» asosiy kursining uzviy qismi bo‘lib, tilshunoslik sohasidagi yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi. “O‘zbek dialektologiyasi” ga kirish kursi umumkasbiy fanlar qatoridan o‘rin olgan.

Asosiy xalq tilidan yozib olingan so‘zlarning qiyosiy, tarixiy va tasviriy metodlar asosidaxlil qilib tariximizning ochilmagan qirralarini ochish, ularga aniqlik kiritish, xalq shevalaridagi ma’naviy merosni yig‘ib olish xamda ilmiy xulosalar bilan isbotlab berish, chet ellardagi o‘zbeklar tilini o‘rganish fanning asosi xisoblanadi.

O‘zbek dialektologiyasi fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

- mahalliy sheva va dialektlarni o‘rganish va ularni lisoniy tadqiq qilish
- sheva va dialektlarning leksik , fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish
- mmmilliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni va milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash
- shevalarning o‘zaro munosabatini yani adabiy til kordosh va kordosh bo‘lmagan tillarga munosabatini aniqlash
- o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevelarning tarqalish chegarasini aniqlash

1.2. Talabalar bilimiga qo‘yiladigan talablar

- Shevashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyoti.
- O‘zbekistonda shevashunoslik bo‘yicha qilingan ishlar.
- Chet mamlakatlarda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi.
- Shevalarni o‘rganishda xorijlik olimlarning ishlari.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.

- adabiyot fanlari bilan bog‘liqligi;
- tarix va etnografiya bilan bog‘liqligi;
- geografiya bilan bog‘liqligi;
- uslubiyat bilan bog‘liqligi;
- til tarixi bilan bog‘liqligi;
- xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligi...

1.4. Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni.

- fan bo‘yicha bilimlarni shakllantirish;
- adabiy til va sheva unsurlarini farqlash;
- olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;

1.5. Shevashunoslik fanini o‘qitishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi:

- prezetatsiya
- muammoli o‘qitish texnologiyasi
- innovatsion texnologiyalar
- an’anaviy metodlar

**O'zbek dialektologiyasi fanidan
BAHOLASH MEZONLARI**

t/r	Nazorat turlari	Soni	Ball				Jami ball
1	O.B.						
	1.1. Yozma ish (3 savol)	1	1 savol - 10 ball 2 savol - 10 ball 3 savol - 10 ball				30
2	J.B.		Haftalar				
			JB₁	JB₂	JB₃	JB₄	
			VI	XI	XIII	XVI	
	2.1. (seminar/amaliy) mashg'ulotlarni bajarish	1	2x5=10	2x5=10		2x5=10	30
	2.2. MTI- yozma referat tayyorlash	1			1x10=10		10
	Jami:		10	10	10	10	40
3	Ya.B.						
	3.1. Yozma ish (3 savol)	1	1 savol - 10 ball 2 savol - 10 ball 3 savol - 10 ball				30
	Jami:						100

Nazorat turlari, ularni o'tkazish haftasi, maksimal ball va saralash ballari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Nazorat	JN-1	JN-2	JN-3	ON	JN-4	YaN	Jami
Maksimal ball	10	10	10	30	10	30	100

ON, YAN: jami 3 ta savol beriladi. Har bir savol 0-10 balldan baholanadi.

JN: 4 marta JN chiqariladi, har birida talaba 1 marta baholanadi, har bir baholash 0-10 balldan baholanadi.

MT: 3 JN da e'tiborga olinadi (Mustaqil ta'lim turlari qanday tarzda amalga oshirilishi fan xususiyatlaridan kelib chiqiladi (referat, prezentatsiya, kollektivum...))

Nazoratlar	JN-1	ON	JN-2	JN-3	JN-4	YAN	Jami
Maksimal ball	10	30	10	10	10	30	100
Saralash ball	5,5	16,5	5,5	5,5	5,5	16,5	55

JN natijalari guruh jurnali va qaydnomaga butun sonlarda (0-10 ballgacha) qayd qilinadi.

JORIY BAHOLASH BO'YICHA:

A'lo «9-10» ball bilan baholanadi:

- Amaliy/seminar mashg'ulotlari mavzusining maqsadi va mazmunini atroflicha yoritib olish;
- bayonda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- mavzu materialining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;

- mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- qo'shimcha adabiyotlardan samarali foydalangan bo'lsa;

Yaxshi «7-8» ball bilan baholanadi:

- Amaliy mashg'ulotlarining maqsadi va mazmunini tushungan, bayonda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- mavzu materialining amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- berilgan vazifani o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;

Qoniqarli «5-6» ball bilan baholanadi:

- mavzu haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- mavzu tor doirada yoritilib, bayonda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- bayon mazmunan ravon bo'lmasa;
- savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- nazorat ishlariga qisman javob olinsa.

Qoniqarsiz «3-4» ball bilan baholanadi:

- Amaliy mashg'ulotiga jiddiy tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- mashg'ulot mavzusiga doir aniq tasavvurga ega bo'lmasa;
- Amaliy mashg'ulotlari mavzusiga doir berilgan savollarga, nazorat ishlariga noto'g'ri javob olinsa.

«1-2» ball bilan baholanadi:

- Amaliy mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- mashg'ulot mavzusiga doir deyarli hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- Amaliy mashg'ulotlari mavzusiga doir berilgan savollarga, nazorat ishlariga javob olinmasa.

ORALIQ NAZORAT UCHUN BAHOLASH MEZONLARI:

- 1- savol: $B_1=10$ ball
- 2- savol: $B_2=10$ ball
- 3- savol: $B_3=10$ ball

ON da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'tib bo'lingandan so'ng talabning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabning muayyan savol yoki muammoni echish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. ON semestrda bir marta, fanning taxminan 50% i o'tilgandan keyin 3 ta nazariy savoldan iborat og'zaki yoki yozma nazorat ishi shaklida o'tkaziladi. Har bir javob 0 dan -5 gacha bo'lgan ballarda faqat butun sonlarda baholanadi.

Har bir savolga yozilgan javoblar quyidagi mezon asosida baholanadi:

A'lo «9-10» ball bilan baholanadi:

- savolga atroflicha, aniq, puxta va to'g'ri javoblar berilsa;
- o'quv rejadan tashqari (zamonaviy) materiallardan xabardorligi bilinib tursa;
- qonun-qoidalar, nazariyalar, tushunchalar va tasavvurlar bayoni to'g'ri va aniq bo'lsa;
- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyligi saqlangan holda puxta bo'lsa;
- bayon yozma bo'lganda orfografik, grammatik va uslubiy xatolar uchramasa.

Yaxshi «7-8» ball bilan baholanadi:

- savolga berilgan javoblar o'quv dasturi talablari doirasi bilan cheklangan, ammo to'g'ri bo'lsa;
- javobda ilmiylik buzilmagan, bayon mazmunida mantiq saqlangan bo'lsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
- yozma bayonda orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchramasa.

Qoniqarli «5-6» ball bilan baholanadi:

- savolga javob o'quv dasturi talablariga mos kelmasa, ya'ni tor doirada ifodalansa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida ba'zi xatoliklar uchrasa;
- bayonda ba'zi orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa.

Qoniqarsiz «3-4» ball bilan baholanadi:

- savolga javob juda tor doirada yoritilgan bo'lsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;
- yozma bayonda qo'pol orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa.

«1-2» ball bilan baholanadi:

- berilgan savolga javob berolmasa, javoblarda mantiqiylik bo'lmasa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;
- bayonda qo'pol orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa;
- savol bo'yicha umuman tasavvuri bo'lmasa.

YAKUNIY NAZORAT UCHUN BAHOLASH MEZONLARI:

- 1- savol: $B_1=10$ ball
- 2- savol: $B_2=10$ ball
- 3- savol: $B_3=10$ ball

YAN semestr yakunida bir marta o'tkaziladi va unda talabning bilim, ko'nikma va malakalari fanning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YAN 3 ta nazariy savoldan iborat og'zaki yoki yozma nazorat ishi shaklida o'tkaziladi. Har bir javob 0 dan -5 gacha bo'lgan ballarda faqat butun sonlarda baholanadi.

Har bir savolga berilgan javoblar quyidagi mezon asosida baholanadi:

A'lo «9-10» ball bilan baholanadi:

- savolga atroflicha, aniq, puxta va to'g'ri javoblar bersa;
- o'quv rejadan tashqari (zamonaviy) materiallardan xabardorligi bilinib tursa;
- qonun-qoidalar, nazariyalar, tushunchalar bo'yicha tasavvurlari to'g'ri va aniq bo'lsa;
- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiyligi va mantiqiyligi saqlangan holda puxta fikrlar bo'lsa;
- yozma bo'lganda bayonda orfografik, uslubiy va grammatik kamchiliklar uchramasa.

Yaxshi «7-8» ball bilan baholanadi:

- savolga berilgan javoblar o'quv dasturi talablari doirasi bilan cheklangan, ammo to'g'ri bo'lsa;
- javobda ilmiylik buzilmagan, bayon mazmunida mantiq saqlangan bo'lsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
- yozma bayonda orfografik va grammatik xatolar uchramasa.

Qoniqarli «5-6» ball bilan baholanadi:

- savolga javob o'quv dasturi talablariga mos kelmasa, ya'ni tor doirada yoritsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida ba'zi xatoliklar uchrasa;

-yozma bayonda ba'zi orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa.

Qoniqarsiz «3-4» ball bilan baholanadi:

- savolga javob juda tor doirada yoritilsa, izchillik va mantiqiylik bo'lmasa;
- berilgan savolni umuman tushunmasa, tasavvuri tor bo'lsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;
- yozma bayonda qo'pol orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa.

«1-2» ball bilan baholanadi:

- berilgan savolga javob berilmasdan, boshqa narsalar haqida gapirilsa;
- berilgan savolni umuman tushunmasa, tasavvuri bo'lmasa;
- qonun-qoida, nazariya, tushuncha va tasavvurlar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;
- bayonda qo'pol orfografik, uslubiy va grammatik xatolar uchrasa.

MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA:

REFERAT VA YOZMA ISH TOPSHIRIQLARINI BAHOLASH MEZONI:

A'lo «9-10» ball bilan baholanadi:

- mavzu to'liq ochilgan, atroflicha, aniq va tizimli ifodalay olsa;
- mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyatini yaqqol namoyon eta olsa;
- to'g'ri xulosa chiqara bilsa va ijodiy fikrlari bo'lsa;
- mavzuga oid savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- o'quv dasturida keltirilgan adabiyotlardan tashqari materiallardan keng foydalansa;
- qonun-qoidalar, nazariyalar, tushunchalar va tasavvurlar bayoni to'g'ri va aniq bo'lsa;
- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyliigi saqlangan holda puxta bo'lsa;
- bayon yozma bo'lganda orfografik, grammatik va uslubiy xatolar uchramasa.

Yaxshi «7-8» ball bilan baholanadi:

- mavzu mohiyati ochilgan, to'g'ri ifodalangan bo'lsa;
- mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyatida biroz kamchiliklar bo'lsa;
- mavzuga oid savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- faqat o'quv dasturida keltirilgan adabiyotlar bilan cheklangan, ammo to'g'ri bo'lsa;
- javoblarda ilmiylik buzilmagan, bayon mazmunida mantiq saqlangan bo'lsa;
- qonun-qoida, nazariya, tushunchalar bayonida xatoliklar uchramasa;
- yozma bayonda orfografik va grammatik xatolar uchramasa;

Qoniqarli «5-6» ball bilan baholanadi:

- mavzu mohiyati to'liq ochilmagan, ya'ni tor doirada yoritilsa;
- mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyati past bo'lsa;
- mavzuga oid savollarga mujmal va chalkash javoblar bersa;
- qonun-qoida, nazariya, tushunchalar bayonida ba'zi xatoliklar uchrasa;
- bayonda ba'zi orfografik va grammatik xatolar uchrasa;
- talabaga berilgan savollarga to'liq javoblar bersa ham, xulosalar mavzu mohiyatini to'liq ifodalay olmasa.

Qoniqarsiz «3-4» ball bilan baholanadi:

- mavzu mohiyati deyarli ochilmagan, ya'ni juda tor doirada yoritilsa;
- mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyati bo'lmasa;
- mavzuga oid savollarga yetarli javoblar olinmasa;
- qonun-qoida, nazariya, tushunchalar bayonida qo'pol xatoliklar uchrasa;

-talabaga berilgan savollarga to‘liq javob berolmasa, xulosalar keltirilmagan bo‘lsa.

«1-2» ball bilan baholanadi:

- mavzu mohiyati umuman ochilmagan, boshqa materiallar yozilgan bo‘lsa;
- mavzuga oid savollarga savollarga javoblar olinmasa;
- qonun-qoida, nazariya, tushunchalar bayonida qo‘pol xatoliklar uchrasa.

FANNING TARKIBI

Mashg‘ulot turlari bo‘yicha ajratilgan soatlar hajmi quyidagicha:

Ma‘ruza: 36 soat.

Amaliy: 18 soat.

Seminar: 18 soat.

Mustaqil ta‘lim: 42 soat

I. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR (36 soat)

№	Ma‘ruza mashg‘ulotlari nomi va mazmuni	Foydalaniladigan axborot va pedagogik texnologiyalar	soat	Foydalaniladigan adabiyotlar
1	<p>Kirish. O‘zbek dialektologiyasi fanining maqsad va vazifalari</p> <p>1. Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi</p> <p>2. Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni</p> <p>3. Fanning predmeti</p> <p>4. Fanning tarkibiy qismlari</p>	<p>“Skarboy” texnologiyasi</p> <p>Slaydlar.</p> <p>“Debat”</p>	2	1,4,5,8 17, 18 21
2	<p>Transkripsiya</p> <p>1. Transkripsiya haqida tushuncha</p> <p>2. Transkripsiya turlari</p> <p>3. O‘zbek shevalarini o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsiyalar</p>	<p>“Klaster” texnologiyasi</p> <p>“Aqliy hujum”</p>	2	1,6,7 12,15, 18, 19
3, 4	<p>O‘zbek shevalari tasnifi</p> <p>1. O‘zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar</p> <p>2. O‘zbek shevalari tasnifi</p> <p>3. O‘zbek shevalarini tasniflashda yetakchi olimlar</p> <p>4. Shevalar tasnifida olimlarning yutuq va kamchiliklari</p>	<p>FSMU texnologiyasi</p> <p>Slaydlar.</p> <p>“Debat”</p>	4	1,6,8 14,15, 18, 19 20
5	<p>O‘zbek shevalarining o‘rganilishi</p> <p>1. O‘zbek shevalarining tarqalish hududlari</p> <p>2. Turkiy tillar va shevalarni o‘rganishda M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarining ahamiyati</p> <p>3. O‘zbek shevalarini o‘rganishda rus</p>	<p>“Klaster” texnologiyasi</p> <p>“Aqliy hujum”</p>	2	1,3,7 12,13, 20, 21

	turkologlarining ishtiroki			
6	<p align="center">O‘zbek shevalari fonetikasi va fonetik qonuniyatlar</p> <p>1. O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari 2. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi 3. Singarmonizm qonuni va uning turlari 4. O‘zbek shevalarida nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o‘zgarishlari va turlari</p>	Muloqot “Bumerang” B-B-B	2	1,2,4, 8,9,10, 17, 20
7, 8	<p align="center">O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi</p> <p>1. O‘zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo‘lgan qarashlar 2. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari 3. Sheva so‘zlari va jargonlar 4. Dialektal frazeologizmlar va shevalarda onomastik birliklar. 5. O‘zbek shevalari leksikografiyasi masalalari</p>	“Skarboy” texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	4	1,6,7 12,15, 18, 19
9, 10	<p align="center">O‘zbek shevalari morfologiyasi</p> <p>1. Shevalarda ot va unga xos xususiyatlar. 2. Shevalarda sifat hamda uning xususiyatlari. 3. O‘zbek shevalarida son va uning turlari. Numerativlar. 4. Shevalarda fe‘l hamda uning xususiyatlari. Ravish va uning turlari. 5. Shevalarda ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar. 6. Modal so‘zlar, undov so‘zlar hamda shevalardagi ko‘rinishlari.</p>	“Klaster” texnologiyasi “Aqliy hujum”	4	4,5,7, 11,17, 19
11	<p align="center">O‘zbek shevalarida so‘z yasalishi.</p> <p>1. Affiksatsiya usulida so‘z yasalishi. 2. Kompozitsiya usulida so‘z yasalishi. 3. Y-lovchi(qorluq), J-lovchi(qipchoq), o‘g‘uz guruhi shevalarida so‘z yasalishi hamda ularga xos xususiyatlar</p>	Muloqot “Bumerang” B-B-B	2	3,6,8, 9,13, 16,19, 20
12	<p align="center">O‘zbek shevalari sintaksisi</p> <p>1. Sintaksis va shevalar sintaksisi. 2. Dialektal so‘z birikmasi. 3. Dialektal sodda gaplar. 4. Gap bo‘laklari va ularning dialektal xususiyatlari. 5. Shevalarda qo‘shma gap, o‘zga gap va dialog.</p>	FSMU texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	2	1,6,7 12,15, 18, 19
13	<p align="center">Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining muhim xususiyatlari</p> <p>1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga birlashuvchi dialektlar 2. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari 3. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining grammatik</p>	“Klaster” texnologiyasi “Aqliy hujum”	2	3,6,8, 9,13, 16,19, 20

	xususiyatlari			
14	Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari 1. Qipchoq lahjasiga birlashuvchi dialektlar 2. Qipchoq lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari 3. Qipchoq lahjasining grammatik xususiyatlari	Muloqot “Bumerang” B-B-B	2	1,6,7 12,15, 18, 19
15	O‘g‘uz lahjasining muhim xususiyatlari 1. O‘g‘uz lahjasiga birlashuvchi dialektlar 2. O‘g‘uz lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari 3. O‘g‘uz lahjasining grammatik xususiyatlari	“Skarboy” texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	2	3,6,8, 9,13, 16,19, 20
16, 17	Areal lingvistika 1. O‘zbek dialektologik atlasini tuzish va uning xususiyatlari. 2. O‘zbek shevalari tizimining ikki xil tashkili: struktur hamda zonal. 3. O‘zbek tilining qorluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining adabiy tilga munosabati. 4. O‘zbek shevalarining atlaslarini tuzish	FSMU texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	4	4,5,7, 11,17, 19
18	Adabiy til va dialekt munosabati 1. Sheva, milliy til va adabiy til tushunchalari 2. Dialektal xato va ularni bartaraf etish yo‘llari 3. Avtonomiya va geteronomiya 4. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida rivojlanishi	Muloqot “Bumerang” B-B-B	2	1,4,7,,1 4,16,18, 21

II. AMALIY MASHG‘ULOTLAR (18 soat)

№	Amaliy mashg‘ulotlar nomi va mazmuni	Foydalaniladigan axborot va pedagogik texnologiyalar	soat	Foydalani l adigan adabiyotlar
1	Transkripsiya. Shevaga oid matnlarni transkripsiyada yozish va o‘qish 1. Transkripsiya haqida 2. Transkripsion belgilarning o‘ziga xos xususiyatlari 3. Ayrim so‘zlarni Transkripsiyada yozish	“Skarboy” texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	2	1,4,5,8 17, 18
2	Fonetik tahlil. Shevalarga oid matnlarning fonetik xususiyatlari 1. Shevalarda vokalizmlar va konsonantizmlar masalasi. 2. Dialektizmlarda bo‘g‘in va urg‘uning . 3. Shevalarda tovush hodisalari talqini masalasi.	“Klaster” texnologiyasi “Aqliy hujum”	2	2,4,8, 12,13, 16,18

3	Fonetik tahlil. O‘zbek shevalarida uchraydigan fonetik qonuniyatlar ustida ishlash 1. Qipchoq shevalaridagi fonetik qonuniyatlar 2. O‘g‘uz shevalaridagi fonetik qonuniyatlar 3. Qarluq shevalaridagi fonetik qonuniyatlar	“Aqliy hujum” “Debat”	2	1,6,8, 9, 17, 20
4	Leksik tahlil. Shevalarga xos matnlarning leksik xususiyatlari 1. O‘zbek shevalarida omonim, sinonim va antonimlar. 2. O‘zbek shevalarida paronim va dubletlar. 3. Shevaga oid matnlarda polisemantik so‘zlar.	Muloqot “Bumerang”	2	1,6,8, 9, 17, 20
5	Shevalarga xos so‘zlarni mavzuiy guruglarga bo‘lib o‘rganish 1. Etnonimlarni va kishi nomlarini o‘rganish 2. Joy nomlarini guruhlab o‘rganish so‘zlar 3. Maishiy leksikaga oid so‘zlarni o‘rganish va tahlil qilish	“Debat” Slaydlar.	2	4,5,7, 8,16
6	Morfologik tahlil. Shevalarda turlanish 1. O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari 2. O‘zbek tilining O‘g‘uz, Qipchoq shevalarida turlanish 3. O‘zbek tilining Qarluq shevalarida turlanish	FSMU texnologiyasi B-B-B	2	1,5,8, 11,12, 16,19
7	Morfologik tahlil. O‘zbek shevalarida fe’lning o‘ziga xos xususiyatlari 3. O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari 4. O‘zbek tilining O‘g‘uz, Qipchoq shevalarida fe’l turkumi 3. O‘zbek tilining Qarluq shevalarida fe’l turkumi	“Debat” Slaydlar.		
8	Shevalarda so‘z yasalishi 1. Shevalarda affiksatsiya usulida so‘z yasalishi. 2. Shevalarda kompozitsion so‘z yasalishi. 3. Shevalarda kalkalash va boshqa usullarda so‘z yasalishi.	Muloqot “Bumerang”	2	1,2,5, 8,11,12, 16,19
9	Shevalardagi xos matnlardagi sintaktik xususiyatlarni tavsiflash 1. Qipchoq shevalarining sintaktik xususiyatlari. 2. O‘g‘uz shevalarining sintaktik xususiyatlari. 3. Qarluq shevalarining sintaktik xususiyatlari.	FSMU texnologiyasi B-B-B		

III. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI (18 soat)

№	Seminar mashg‘ulotlar nomi va mazmuni	Foydalaniladigan axborot va pedagogik texnologiyalar	soat	Foydalaniladigan adabiyotlar
1	Sheva, dialekt, lahjalarning xususiyatlari, ularni o‘rganish metodlari 1. Dialektologiya fani haqida umumiy ma’lumot. 2. Sheva, lahja va dialekt tushunchalari. 3. O‘zbek xalq shevalari leksikasi materiallarini o‘rganish usullari.	“Skarboy” texnologiyasi Slaydlar. “Debat”	2	1,4,5,8 17, 18
2	Dialektlarni tadqiq qilish usullari 1. Qiyosiy-tarixiy tekshirish metodlari 2. Tasviriy va savol-javob metodi 3. Areal o‘rganish metodi	“Klaster” texnologiyasi “Aqliy hujum”	2	2,4,8, 12,13, 16,18
3	O‘zbek shevalarining o‘rganilishi tarixi 1. Shevalarni o‘rganish tarixidan 2. O‘zbek shevalarini o‘rganishda rus-yevropa olimlarining xizmatlari 3. Shevalarimizni o‘rgangan o‘zbek olimlarining tadqiqotlari haqida	“Aqliy hujum” “Debat”	2	1,6,8, 9, 17, 20
4	O‘zbek shevalarining fonetikasi, uning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati 1. Qipchoq shevalaridagi fonetik qonuniyatlar 2. O‘g‘uz shevalaridagi fonetik qonuniyatlar 3. Qarluq shevalaridagi fonetik qonuniyatlar	Muloqot “Bumerang”	2	1,6,8, 9, 17, 20
5	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialekti 1. Farg‘ona-Toshkent shevalari 2. Xorazm shevalarining o‘rganilishi 3. Qo‘shni hududlardagi o‘zbek shevalari	“Debat” Slaydlar.	2	4,5,7, 8,16
6	Shevalar lug‘ati. Dialektal leksikografiya masalasi 1. Lug‘at tuzish prinsiplari 2. Shevalar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar haqida 3. Dialektal frazeologizmlar va shevalarda onomastik birliklar lug‘atlarini tuzish	FSMU texnologiyasi B-B-B	2	1,5,8, 11,12, 16,19
7	Shevalardagi mustaqil va yordamchi so‘zlar 1. O‘zbek shevalarida mustaqil so‘zlar 2. O‘zbek shevalarida yordamchi so‘zlar 3. O‘zbek shevalarida alohida turkum so‘zlari	Muloqot “Bumerang”	2	1,2,5, 8,11,12, 16,19
	O‘zbek tilining qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga xos xususiyatlari	“Debat” Slaydlar.	2	1,5,8, 10,12,15

8	1. Qarluq shevalarining xususiyatlari. 2. Qipchoq shevalarining xususiyatlari. 3. O‘g‘uz shevalarining xususiyatlari.			18,20
9	Areal lingvistika 1. O‘zbek shevalarini hududiy o‘rganish 2. Hududiy o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar 3. Areal o‘rganish bo‘yicha ish olib borgan olimlarning faoliyati haqida	“Debat” Muloqot	2	1,2,5, 8,11,12, 16,19

Mashg‘ulotlarda foydalanadigan pedagogik texnologiyalar

1. “Skaraboy” texnologiyasi. 2. FSMU texnologiyasi. 3. “Blits o‘yin” texnologiyasi. 4. Slaydlar. 5. “Klaster” texnologiyasi. 6. “Aqliy hujum”. 7. “Debat”. 8. B-B-B. 9. Muloqot. 10. “Bumerang”. 11. “Veer” texnologiyasi

MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o‘rganiladigan ma’ruza va amaliy mashg‘uloti mavzularidan iborat bo‘ladi. Mustaqil ta’lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, mavzularni tushunish qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Ajr. soat
1	O‘zbek shevalarining o‘rganilishi tarixi	2
2	Shevalarni tadqiq qilish usullari	2
3	O‘zbek shevalari tasnifi	2
4	Professor Y ^e .D.Polivanov tasnifi	2
5	Professor V.V.Reshetov tasnifi	2
6	Transkripsiya va uning turlari	2
7	Transkripsiyani o‘zlashtirish va sheva materiallarini matnlar shaklida yozish	2
8	O‘zbek shevalarida undosh va unlilar tasnifi	2
9	Shevalarda fonetik hodisalar.	2
10	Shevaga oid matnlarning leksik xususiyatlari	2
11	Shevaga xos so‘zlarning mavzuiy guruhlar	2
12	Ma’lum bir sheva lug‘atini tayyorlash	2
13	Shevalararo moslik (variant) masalasi	2
14	Sheva oid matnlarning morfologik xususiyatlari	2
15	Shevalarda fe’lning kategorial va nokategorial shakllari	2
16	Sheva oid matnlarning sintaktik xususiyatlari	2

17	O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga xos xususiyatlari	2
18	O‘zbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar	2
19	O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlar	2
20	Areal lingvistikaning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni	2
21	Adabiy til va dialekt muammosi	2
JAMI:		42 soat

Fan dasturining informatsion-uslubiy ta’minoti

O‘zbek dialektologiyasi fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, jumladan, pedagogik va axborot texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Bunda ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron texnologiyalardan foydalanilsa, amaliy mashg‘ulot darslarida esa “Skarboy” texnologiyasi, FSMU texnologiyasi, “Blits o‘yin” texnologiyasi, Slaydlar, “Klaster” texnologiyasi, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Fikrlash kengligi shajarasi”, «6x6x6», «Charxpalak», «Men JIF tashkilotchisi» va boshqa pedagogik texnologik metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Didaktik vositalar

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-hitachi, LCD-monitor, elektron ko‘rsatgich (ukazka).

- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko‘z (glazok).

ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI:

Asosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
4. Enazarov T.J., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G‘. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: Universitet, 2012.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –T.: “Navro‘z”, 2016

Qo‘shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8-феврал).

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги (Халқ сўзи 2017 йил, 21-апрел).

9. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: 2013.

10. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи лексикаси. –Тошкент: Иқтисод-Молия, 2007.

11. Dialectology. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University press. 2004.

12. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. –Тошкент: 1991.

13. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент: Фан, 1997

14. Ибрагимова З.Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари кишлок хўжалиги лексикасининг лингво-географик тадқиқи. НДА. 2009.

15. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2005.

16. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. –Тошкент: Мухаррир, 2011.

17. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.

Internet saytlari

18. www.turk.dili.google.com.tr

19. <http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr>

20. <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>

21. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

“Dialektologiya” fanidan O‘QUV MATERIALLARI 1-ma’ruza

Mavzu: Kirish. “O‘zbek dialektologiyasi” fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Shevashunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. Dialektologiya fanining predmeti.
3. Dialektologiya fanining ob’ekti va uning turlari.
4. Fanning tarkibiy qismlari.

Dialektologiya grekcha “dialektos” – “sheva” so‘zidan olingan tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini ya’ni mahalliy lahja va shevalarini o‘rgatadi. O‘zbek dialektologiyasi fani O‘zbekistondagi va chet davlatlardagi o‘zbek tilining turli dialekt va shevalarini o‘rganadi. Obyektni o‘rganish jihatidan dialektologiya 2 turlidir. 1) Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya. 2) Tarixiy dialektologiya. Tasviriy dialektologiya mahalliy lahja va shevalarga xos fonetik va leksikogrammatik xususiyatlarini qayd qilish bilan chegaralanadi. Tarixiy dialektologiya esa tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlaridan kelib chiqishi, rejalaniishi, turli davrlarda o‘zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham

o'rganadi, lahja va shevalarni lingvo-geografik usullar bilan o'rganish ham birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

Shevalarni o'rganish til tarixi uchun xam, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda yo'q bo'lib, ketgan yoki ma'lum darajada o'zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili tarixini o'rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir. Dialektlarni o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega, shevalarni o'rganish adabiy tilning fonetik, leksik – grammatik normalarini belgilash uchun, shuningdek o'zbek orfografiya va orfoepiyasini stabillashtirish uchun ham qayta yordam beradi. Shevalarni o'rganish xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham muhimdir. Masalan shevalarni o'rganish orqali o'tmishdagi urug' - kabilalarning joylashish territoriyalarini aniqlash, toponimlar, gidronimlar va shu kabi nomlar vositasida xalq tarixining ayrim kartinalarini yaratmoq mumkin bo'ladi.

Sheva nima? Sheva biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan birlashtiruvchi shevalar yig'indisi. Dialekt termini dialektologiyaga doir adabiyotlarda sheva ma'nosida ham, lahja ma'nosida ham qo'llaniladi.

Dialektologiyaning asosiy vazifalari. Bu fanning ob'yekti mahalliy dialekt, lahja va shevalar bo'lib, maqsad va vazifasi tubandagilardan iborat:

1). Ayrim sheva va dialektlardan fonetik, morfologik sintaktik va leksik xususiyatlarni har tomonlama tavsif qilish.

2). Milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash.

3). Shevalarning o'zaro munosabatini, shuningdek, ularni adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatini belgilash.

4). O'xshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash.

5). Umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum territoriyada tarqalish qartalarini tuzish va shevalarni tasnif qilish.

O'zbek tili va uning shevalarini o'rganishning ahamiyati.

O'zbek tili va uning shevalarini o'rganish ishi asosan 20 yillardan boshlanadi. Shu davrga qadar ayrim yozuvchilarning asarlaridan parchalar olib tuzilgan xrestomatiyalarda uchragan dialektal so'zlarga ma'lum joylarda izoh berilgan.

Bu davrga qadar dialekt tushunchasi fanida yo'q edi. Lekin shunga qaramasdan, rus istilochilari O'rta Osiyoga bosqinchi sifatida kelsalar ham ular erli aholining tiliga, urf-odatlariga qiziqdilar. Bularning ichida er-xotin Nalivkinlar, Ostraumov kabi ziyoli kishilar bulib, ular erli aholi tillariga qiziqib tadqiqotlar olib bordilar, lekin ularning tadqiqotlari tarixiy etnografik xarakterda edi. Bulardan tashqari venger olimi (1860) H.Vamberi, rus olimi A.N.Samoylovich (1908 yillarda Xivada bo'lgan) ham aholi tilidan maqol va ertaklarni yozib olganlar va nashr ettirganlar. Lekin bular ham aynan talaffuz qanday bo'lsa shunday yozib olinmagan. Shunday bo'lsa ham bu asarlar biz uchun qimmatli manbadir. Shevalarni o'rganish va tadqiq qilish orfografiyadagi chalkashliklarni hal qilishga terminologiyani tartibga solishga, o'zbek adabiy tili lug'at fanidagi leksik birliklarini ma'lum norma va qoidaga solish masalalarini hal qiladi.

O‘zbek xalq shevalarining shakllanishida turkiy bo‘lmagan tillarning ishtiroki.

Ayrim urug‘ va qabilalar orasidagi qardoshlik aloqalarning mavjudligi, xalqlarning uzluksiz aralashib turishlari, murakkab etno-lingvistik taraqqiyotga va ayrim millatlar tili, birinchi navbatda o‘zbek tilidagi dialektlarning turli-tuman bo‘lishiga olib keldi. O‘zbek shevalarining boshqa sistemadagi tillar bilan, birinchi navbatda tojik tili bilan o‘zaro munosabati juda muhim masalalardan biridir. Bu haqda turli qarashlar mavjud.

S.P.Tolstovning, S.Volinlarning yozishicha, XI-XII asrlarda Xorazm vohasida tojiklar ham yashagan, F.Kamol badiiy adabiyot orqali kirgan deydi. Sh.Shoabdurahmonovning fikricha hamkor bo‘lib yashash orqali faqat so‘zlar qatlami paydo bo‘lgan deydi. (Substrat – lat qatlam - g‘olib tilning mag‘lub tilda qoldirgan izi). Vokalizm – lat tilning unli tovushlar sistemasi. Bilingvizm – ikki tillilik (lat-ikki marta til).

Turkiy bo‘lmagan substrakt ta’siri natijasida tipik turkiy vokalizmga yuz bergan o‘zgarishlar, asta sekin singarmonizmning zaiflashishiga sanoati rivojlangan shahar shevalarida esa butunlay yo‘qolishiga olib keladi. O‘zbek va tojik xalqlarining hamkorligi natijasida o‘zbek tilida faqat qatlami sifatida o‘z izini koldirdi. Har iste’molda sar-taxta, sarjush, sarxush, otashin_dil, qaxramon, sahar, daryo, joy, do‘st, chimmat va hokazo.

Arabcha so‘zlar guruhining shakllanishi etnik jarayonlar bilan birga UI-UIII asrlarda arablar istilosi davridan boshlandi. Shuning uchun arabcha so‘zlar ham o‘zbek tilida anchagina ʻiqdorni tashkil qiladi. Masalan, imzo chekdi, nazariy, ilmiy, istiqbol, istiqbol, g‘alaba, hujum, odam, adabiyot, arbob, asbob, muharrir, qonun, madaniyat va hokazo.

Ma’lumki, sheva dialektlar bir-birlaridan va adabiy tildan dialektal so‘zlar-dialektizmlar orqali farqlanadi. **Dialektizm nima?** Ma’lum territoriyadagi sheva dialektlar uchun xarakterli bo‘lgan leksik, fonetik, morfologik, hamda grammatik va sintaktik xususiyatlariga ko‘ra adabiy tildan farqlanadigan yoki adabiy tilda umuman uchramaydigan so‘z va so‘z birikmalari **dialektizmlar** deb yuritiladi. Dialektizmlar badiiy asarlarda ham uchraydi. Shularni hisobga olib, dialektizmlarni ikki guruhga ajratish mumkin. 1. Sheva, dialektlardagi dialektizmlar. 2. Badiiy asarlardagi dialektizmlar.

Badiiy asarlardagi dialektizmlar ma’lum bir sheva dialektga xos bo‘ladi. Sheva, dialektlardagi dialektizmlarning eng asosiy muhim belgisi ularning ma’lum bir chegaralangan hududida izoglossalarga ega bo‘lishidir. (izoglossa – grekcha izos-bir xil, o‘xshash: glossa – til, nutq). Dialektal xususiyatlar tarqalgan territoriyani o‘z ichiga olgan chegara chiziqlari izoglossalardir.

Tayanch tushunchalar:

1. Lahja.
2. Sheva.
3. Dialekt.
4. Transkripsiya.

5. Transliteratsiya.
6. Qiyosiy-tarixiy metod.
7. Substrat.
8. Bilingvizm.

2-ma’ruza Mavzu: Transkripsiya

Reja:

1. Transkripsiya haqida tushuncha
2. Transkripsiya turlari
3. O‘zbek shevalarini o‘rganishda qo‘llaniladigan transkripsiyalar

Transkripsiya haqida tushuncha. *Transkripsiya* so‘zi lotincha – *transcriptio* so‘zidan olingan bo‘lib – qayta yozish degan ma‘noni anglatadi. Umuman transkripsiya ilmiy yozuv bo‘lib, biror bir tildagi hamma nozik tovushlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuziga ko‘ra yozib olish ma‘nosini anglatadi. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi materiallari, geografik atamalarni yozish, musiqa asboblari uchun birining boshqasiga moslab yozishda ham belgilar sistemasidan foydalaniladi.

Shunday qilib, biror narsaning ilmiy asosda yozib olinishiga *transkripsiya* deyiladi. Bu holat transkripsiya atamasining keng ma‘noda qo‘llanishiga misol bo‘ladi.

Mazkur atama tor ma‘noda ham qo‘llaniladi. Ya‘ni, faqat lahja va shevalarning o‘ziga xos tomonlarini, xususiyatlarini talaffuzga moslab yozib olish tushuniladi. Bunda u yoki bu tilga mansub alfavitlardagi belgilar tizimi yetarli bo‘lmaydi. Shunda biror matnni talaffuzga moslab yozib olish uchun lotin grafikasidagi alfavitlar bo‘lsin, kirill alifbosidagi harflar tizimi bo‘lsin ularga muayyan o‘zgartishlar kiritish zarur bo‘ladi. Bunda mavjud alifbodagi harflar ostiga yoki ustiga ma‘lum belgilar qo‘yish lozim bo‘ladi. Natijada ilmiy yozuvda belgilar soni odatdagidan ancha ko‘p bo‘ladi. Shu tariqa ilmiy yozuv – transkripsiya shakllanadi.

O‘zbek tili va shevalarini yozib olish uchun ko‘pgina olimlar transkripsiyalar ishlab chiqqanlar. Jumladan, G‘ozi Olim Yunusov, Baskakov, Reshetov kabilarning tuzgan transkripsiyalari boshqalariga nisbatan mukammal sanaladi. Bundan tashqari Xalqaro transkripsiya (XT) ham mavjud bo‘lib, ularni dunyoda barcha tillarga moslab yozish uchun foydalanish ko‘zda tutilgan. Shunday qilib transkripsiyalarning **fonetik transkripsiya** va **xalqaro transkripsiya** degan turlari mavjud.

O‘zbek shevalari uchun tayyorlangan transripsiyalar ichida eng ko‘p qo‘llanilgan transkripsiya – V.V.Reshetov transkripsiyasi hisoblanadi. Mazkur transkripsiya fonetik transkripsiya hisoblanadi. U kirill alifbosi asosida shakllantirilgan bo‘lib, ko‘pgina sheva materiallari ana shu transkripsiyada yozib olingan. Keying paytlarda lotin grafikasi asosidagi transkripsiyalar ham keng ommalashib bormoqda. Bunday transkripsiyalardan Nasimxon Rahmonov tomonidan tuzilgan transkripsiya diqqatga sazovordir.

Transliteratsiya. Bu termini *transkripsiya* termini bilan adashtirib yubormaslik lozim bo‘ladi. Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma‘lum bir tekstni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv sistemasini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv sistemasi orqali ifodalash **transliteratsiya** deyiladi. Demak transkripsiya biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir. Lingvistik asarlar (qiyosiy va tarixiy grammatikalar, etimologik lug‘atlar, turli til tekstlarining namunalar)ni nashr etganda transliteratsiyadan foydalanilsa, ham qardosh tillar fonetikasi qiyos qilinganda, dialektologik ishlarda va dialektologiya fanida **fonetik transliteratsiyadan** foydalaniladi. Hozirgi olimlar ilmiy asarlarini nashr etganda mavjud alfavitdan foydalanilsa, bu yodgorliklar dialektal qimmatini yo‘qotadi. Shuning uchun ularni talaffuz xususiyatini saqlash maqsadida fonetik transliteratsiyadan foydalaniladi.

Transliteratsiya chet tili va ona tili orfoepiyasiga oid ishlarda ham keng qo'llaniladi. Mohiyat jihatdan eng aniq transliteratsiya fonetik transliteratsiyadir. Bu transliteratsiya umumiy va xususiy fonetika shu qatori eksperimental fonetika yutuqlariga asoslanadi. Nutq tovushlarini fonetik transliteratsiya uchun tanlangan alfavit orqali ifodalab bo'lmasa, boshqa tillar alfavitidan harflar olinadi. Fonetik transliteratsiyaning vazifasi tilda mavjud bo'lgan hamma tovushlarni aks ettirishidir.

Transkripsiya turlari. O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan transkripsiyalar.

Dialektologiya fani o'zbek tili o'qitishda ham katta rol o'ynaydi. Chunki til o'qituvchisi sheva va adabiy tilni yaxshi farqlab, o'quvchiga tushuntirishi va shevalarda qanday, adabiy tilda qanday ekanligini ko'rsatishi lozim. Shevalarni o'rganishda tilshunoslar taklif etgan transkripsiyadan foydalaniladi. Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko'rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan ma'lum belgilar sistemasidir. Til tovushlarini aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan yozuv tarankripsiya (lotincha tranckriptio-qayta yozish) deb ataladi. Transkripsiyaning fonetik transkripsiya kabi turlari bor.

Tayanch tushunchalar:

- Yakka holda o'rganish.
- Savol-javob usuli.
- Anketa.
- Transliteratsiya.
- Transkripsiya

3-4 ma'ruza

Mavzu: O'zbek shevalari tasnifi

Reja:

1. O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar.
2. O'zbek shevalari tasnifi.
3. O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi olimlar.
4. Shevalar tasnifida olimlarning yutuq va kamchiliklari.

O'zbek shevalarini tadqiq qilishga qiziqishning kuchayishi, o'zbek xalq shevalarini tasniflash masalasini dialektologlar oldiga ko'ndalang qilib qo'ydi. Shu bilan birga shevalarni tasniflash va adabiy til uchun asos qilib olinadigan dialektni aniqlash hamda o'zbek shevalari tarqalgan territoriyalarning dialektologik-etnografik xaritasini ham yaratish lozim edi.

Rus olimi E.D.Polivanov o'zining «O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili» (1-1933) asarida shunday deb yozgan edi. «SSSR da turkiy tillarning birortasi ham o'zbek tili singari shevalararo bu qadar keskin farqlanmaydi. Demak, SSSR dagi birorta turkiy til ham bu qadar dialektal turlilik xususiyatiga ega emas. Bu hol esa birorta dialektni adabiy tilga asos qilib olish masalasini ogirlashtiradi.». So'nggi tadqiqotlar natijasida o'zbek shevalarining ayrim xususiyatlari, bir-birlariga fonetik-morfologik jihatdan yaqinliklari haqida va shu bilan birga bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlar haqida tasavvurga ega bo'lindi. Natijada, o'zbek shevalarini Sh.I.Zarubin,

E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, G'.Olim, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlar tomonidan tasniflashga harakat qilindi. Prof. I.I.Zarubin o'zbek shevalarini 4 guruhga bo'ldi. Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand, Buxoro shevalari I.I.Zarubin tasnifida o'zbek shevalari orasida katta o'rin tutgan hozirgi O'zbekistonning ancha hududiga tarqalgan qipchoq (j-lovchi) shevalari va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmay qolgan.

Prof. K.K.Yudaxin o'zbek shevalari tasnifining ikki variantini tavsiya etdi. U boshlang'ich variantida o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singormanizmni saqlash darajasiga qarab, o'zbek shevalarini to'rt guruhga ajratdi. Keyinroq, bu masalaga yanada aniqliklar kiritib, o'zbek shevalarini 5 guruhga ajratdi. Toshkent, Fargona, Qipchoq, Xiva va shimoliy o'zbek shevalari.

Prof. Polivanov E.D. bir qator o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek tili sheva va dialektlari orasidagi eng mayda farqlarni ham ko'rsatuvchi tasnifni berdi. Polivanov bu tasnifda tildagi ikki holatni ko'zda tutdi.

1) Metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi).

2) Gibrizatsiya (qardosh bo'lmagan tillarning chatishuvi).

U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib o'zbek shevalarni bir necha gurppaga buldi ya'ni o'zbek shevalarning tiklanish protsessida tojik tilining ishtirokini hisobga olib shevalarni tubandagicha guruhlashtirdi.

1 Eronlashmagan shevalar.

2 Eronlashgan shevalar.

Polivanov Toshkent-Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarida eronlashish elementlari borligini qayd qilsa, Buxoro Xo'jand, Samarqand, O'ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan ya'ni tojik vokalizmini (lotin unlilar sestimasi) o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi.

Eronlashmagan shevalarga: Farg'onaning singlarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar) o'zbek qipchoq jamlovchi lahjasida so'zlashuvchi shevalarni kiritadi. Eronlashgan va eronlashmagan shevalar o'rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibrizatsiya protsessida turkiy elementlarning kuchlilanishiga ko'ra eronlashgan shevalarni 4 tipga ajratadi.

1 -tip Toshkent va uning atrof qishloqlari shevalari.

2 -tip Qo'qon Marg'ilon va atrofi shevalari.

3 -tip Andijon Shahrixon tipidagi shevalar.

4 - tip uyg'urlashgan shevalar (Namangan va uning atrofi).

Polivanov tasnifida yana ikki tip sheva bor. Bular 6 tip Shimoliy o'zbek shahar shevalari (Turkiston, Chimbay va yaqin qishloqlari).

4 -tip Shimoliy o'zbek qishloq shevalari (Mankent, Qorabuloq). Yuqoridagi shevalarning hammasi Polivanovning ko'rsatishiga Chig'atoy lahjasini (eski o'zbek tili) tashkil qiladi.

Polivanov tasnifiga ko'ra ikkinchi dialekt o'g'uz lahjasi bo'lib, o'z ichiga ikki guruh shevani oladi.

Bular 1-tip. Janubiy Xorazm guruh shevalari. Bu guruhga Sho'roxon shevasi alohida tip sifatida kiritilgan.

2-tip. Shimoliy o'g'uz guruh shevalari (Iqon – Qorabuloq). Shu guruhga Forish tumanidagi Bog'dod shevasi alohida tip sifatida kiritilgan. Uchinchi dialekt Qipchoq lahjasi bo'lib, yetti tip shevani o'z ichiga oladi:

1-tip. O'rta Xorazm (Gurlan, Bog'ot, Shobboz) va Shimoliy Xorazm, Xo'jayli, Qipchoq, Qo'ng'iroq, Mang'it, tumanining ba'zi qishloqlari);

2-tip. O'lovchi tip (Qozoq-Nayman, Farg'ona, Qoraqalpoq shevalari).

3-tip. Qurama shevalari (Oxangaron vodiysi shevalari).

4-tip. Shimoliy o'zbek shevalari (Turkistondagi Suzoq, Chalaqo'rg'on qishloq shevalari).

5-tip. O'rta o'zbek (Qirq va Janubiy o'zbek shevalari) va laqay shevalari. Afg'onistondagi qipchoq o'zbek shevalari ham shu tipga kiritilgan. Shunday bo'lsa ham Polivanov o'zbek shevalari tasnifini hali mukammal emas, o'zbek tilshunoslik shevalarni detallashtiruvchi tasnifga muhtoj deb ko'rsatdi. Prof. Polivanov o'z tasnifida va ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek shevalarni faqat tashqi faktorlarga bog'lab tekshiradi. O'zbek tili va uning shevalarida ro'y bergan o'zgarishlar tilning ichki taraqqiyot protsessi natijasi ekanini e'tibordan chetda qoldiradi. Shunday bo'lsa ham uning o'zbek shevalari sohasida qilgan ishlari, aniq tadqiqotlari o'zbek dialektsiyasining rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Prof. G'ozim Olim Yusupov tasnifi.

Prof. G'ozim Olim Polivanovdan keyin 1936 yili o'zbek shevalari tasnifini e'lon qildi. Prof. G'ozim Olim Polivanovdan ma'noga ta'sir qilmaydigan fonetik xulosalarni, tashqi ta'sirni o'z tasnifiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unilarning ma'no farqlash xususiyatiga, lahja va sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, morfologik, fonetik xususiyatlarga ko'ra tasnif qilishni ilgari surdi.

Prof. G'ozim Olim o'zbek shevalarni avvalo 3 lahjaga ajratadi.

- 1) O'zbek qipchoq lahjasi.
- 2) Turk barlos lahjasi.
- 3) Xiva Urganch lahjasi.

Bu lahjalar o'z navbatida shevalarga ajratiladi. O'zbek qipchoq lahjasi 4 shevaga (qirq, jalayirlaqay, qipchoq, gurlan), turk barlos lahjasi xam 4 shevaga (Sayram, Chimkent, Toshkent–Xos, Andijon, Namangan), Xiva Urganch lahjasi esa 2 guruhga (Xiva, Qarluq) ajratiladi. Bu tasnifga asos qilib olingan belgilar tubandagicha;

1. O'zbek qipchoq lahjasi. Bu lahjaga Ohangaron vodiysida, Mirzacho'lda, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atrofida, Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi aholi kiradi. Bu lahjaga Xorazm, Andijon, Namangan, Qo'qon viloyatlarining qipchoq, Qo'ng'iroq, Chimboy tumanlari Tojikiston va Afg'onistonning shimolida yashovchi o'zbeklar ham kiradi. Bu lahjaning asosiy fonetik morfologik xususiyatlari:

- y>dj: yer – djer
- k>g: ak – ag, quloq – qulag
- k>u: ko'k – kogi
- k>b: kap – kab
- g>v: tug – tuv
- g>y: tegdi – tiydi
- y>dj: yg'n – djiy'n

Soʻz oxirida k, g tushib qoladi sarı tarʻ kabi. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qattiq oʻzakda ga, ka, yumshoq oʻzakda ge, ke. Chiqish kelishigi man, men, dan, den, sonorlardan keyin nan, nen, shaklida, Tushum kelishigi: nʻ, ni, tʻ, ti, dʻ, di qaratqich affiksi nʻng, ning, tʻtg, ting, dʻng, ding, hozirgi zamon davom feʻli -yatir, -jatir kabi.

1) Oʻzbek qipchoq lahjasiga kiruvchi qirq shevasida qisqa «i» oʻrnida uzun «i»: uchraydi. Joʻnalish kelishigidagi kishilik olmoshi magan, sagan, ugan.

2) Jaloyir laqay shevasida soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida ham e tovushi kelishi mumkin: kegen, bergen kabi. Joʻnalish kelishigi kishilik olmoshi menge, senge.

3) Qipchoq shevasida lab gormoniyasi uchinchi boʻgʻinda ham saqlanadi: Uyuga. Koʻplik affiksi -lar, -ler bilan birga -tar, -ter, -dar, -der ham ishlatiladi:

4) Gurlan shevasiga ayrim soʻzlarda «dj»ni yoʻqotayogan oʻzbek shevalari kiradi. Bu shevada bala soʻzining koʻpligi bagalar boʻladi.

11. Turk – barlos lahjasi. Bu lahjaga Toshkent, Qoʻqon, Namangan, Andijon, Margʻilon shaharlarida va bu shaharlarning atrofida yashovchi oʻzbeklar kiradi. Bu lahjaning vakillari oz boʻlsa-da, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysida uchraydi. Shuningdek, Chimkent, Sayram, Oʻsh, Uran shaharlarida yashovchi oʻzbeklar ham shu lahjaga kiritilgan. Bu lahjaning baʻzi dialektal xususiyatlari: joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qattiq oʻzak unlilar va jarangsiz bilan tugasa, -ka jarangli bilan tugasa–ga, yumshok oʻzak jarangsiz bilan tugasa –ga tarzida qoʻshiladi.

G-k, soʻz oxirida d, g, g ning jarangsizlanishiga qarab, affikslar shularga moslashadi: t e g-t e k k a, b e g-b e k k a kabi. Bu sheva ham 4 ga boʻlinib ularning quyidagi xususiyatlari mavjud.

1) Sayram-Chimkent shevasining oʻziga xos xususiyatlari berilmagan.

2) Toshkent-Xos shevasining asosiy xususiyatlari: tushum kelishigi soʻz oxirida assimilatsiyaga (oldingi tovushga oʻxshash, oʻzgarish) uchrab, qoʻshimcha oldidagi undoshga moslashadi: biz-bizzi kabi. Shart feʻlining I-shaxs koʻpligi-vuz, mʻz-bilsamʻz, bʻlsavuz, II shaxs bʻlsayʻz, kabi.

I. Andijon shevasining xususiyatlari: tushum kelishigi nʻ-ni, tʻ-ti, dʻ-di shaklida qoʻllanadi.

IV. Namangan shevasining asosiy xususiyatlari hozirgi zamon davom feʻli affiksi –ut: kluttʻman.

111. Xiva-Urganch lahjasi.

Bu lahjaga Xiva, Xonqa, Gʻozovot, Shovot, Kot, Toshhovuz, Eski Urganch, Yangi Urganch, Hazorasp, Toʻrtkoʻlda yashovchi oʻzbek shevalari kiradi. Bu lahja vakillari Amudaryoning soʻl qirgʻogʻida yashovchi oʻzbeklar orasida ham uchraydi.

Bu lahjaning xususiyatlari kelishik olmoshlari: men, sen, kelishik affiksini olib qattiqlashadi: manga, sanga. Bu lahjani 2 ga boʻlgan: 1) Xiva shevasi: bunda singarmonizm saqlangan.

2) Qorluq shevasi: bu shevaning xususiyati berilmagan. Koʻrinib turibdiki, Gʻ.Olim tasnifi oʻzbek shevalari xususiyatlarini toʻliq qamrab olmagan. Ajratilgan lahja va shevalar qaysi xususiyatlariga koʻra guruhlarga ajratilgani sezilmaydi. Polivanov va Gʻ.Olim tasniflari I.A.Batmanov tomonidan tanqid qilingan:

Prof. A.K.Borokov tasnifi.

A.K. Borokov toʻplangan faktik materiallar asosida oʻzbek shevalari tasnifini ikki xil variantini tavsiya etdi. U birinchi variantga oʻzbek shevalarida uchraydigan fonetik

xususiyatlarni asos qilib oldi. Bu tasnifda shevalardagi eng muhim xususiyat o-lash va a-lashga ko'ra ikki katta guruhga ajratdi.

1. O-lovchi shevalar shahar shevalari (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Qarshi, Jizzax) va ularning atrofidagi tuman shevalari.

2. A-lovchi shevalar bularga singlarmonizmni saqlagan shevalar kiritildi. Ular ham o'z navbatida y-lovchi va dj –lovchi shevalarga bo'lindi. Y-lovchi guruhga Chimkent, Mankent, Turkiston shevalari va janubiy Xorazm shevalari kiritildi. J-lovchi guruhga shim. Xorazm, Surxondaryo va Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritildi. Ikkinchi takdim etgan variantida sheva va dialektlar orasidagi munosabatlar va tarixiy-lingvistik xususiyatlar hisobga olingan. Ikkinchi variant 4 dialektdan iborat.

1. O'rta o'zbek dialekti a) Bu dialektga 2 ta katta guruh sheva kiradi). O'rta O'zbekiston shevasi (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona tipidagi shevalar. b) Shimoliy o'zbek shevasi (Chimkent, Sayram, Jambul, Marki) va Janubiy Qozog'istonning ba'zi o'zbek shevalari. Birinchi guruh shevalarda 6-7 unli fonema bo'lib, so'zlarning birinchi yoki keyingi bo'g'inlarida ochiq (e) fonemasi ishlatiladi. Unlilar uyg'unlashmaydi ya'ni singlarmonizmni yo'qotgan shevalardir. Ikkinchi guruh shevalarda esa unlilar sostavida 8 fonema bo'lib, (e) unlisi yo'q.

Uning o'rnida asl turkiy (**a**) unlisi ishlatiladi. Unlilarning uyg'unlashishi ma'lum darajada saqlangan. Birinchi guruh shevalarning xarakterli xususiyatlari quyidagicha: **a**) Toshkent tipidagi shevalarda oxiri yopiq bo'g'in bo'lgan ikki bo'g'inli suzlarning har ikki bo'g'inida ham (e) unlisi keladi: k e z e n, s e m e n kabi, x va h farqlanmaydi, arab tilidagi (ayn) bo'g'iz tovushi chuqur til orqali sirg'aluvchi g' bilan ifodalanadi. Soat-sog'at, qaraqkich va tushum kelishigining bosh undoshi assimilatsiyaga uchraydi: oshni-oshsh', ipni-ipp' kabi. **b**) Samarqand, Buxoro tipidagi shevalarda ko'pincha birinchi bo'g'inda (**a**) uchraydi.

v) Farg'ona tip shevalarda (**e**) birinchi bo'g'inda uchraydi: b e x a r, e n a r kabi.

2. Shayboniy o'zbek yoki jamlovchi dialekti.

Bu dialektga Samarqand, Qashkadaryo, Buxoro, Surxondaryo viloyatlaridagi va Ohangaron vodiylaridagi shevalari, Shimoliy Xorazm va Farg'ona vodiysidagi qipchoq va Qoraqalpoq shevalari kiradi.

Bu shevalarda unlilar soni 8 ta. O'zlashayotgan (e) fonemasi bilan 9 ta. Asosiy xususiyatlari: y o'rniga dj, so'z oxirida k, g o'rniga v ishlatiladi: (bov, tog-tov). So'z oxirida ba'zi undoshlar tushib qoladi: (nichchi-nichik, sar'-sariq).

3. Janubiy Xorazm dialekti.

Bu dialektga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G'ozovot, kabilar kiradi. Unlilar 9 ta. Xususiyatlari: so'z boshida t, k o'rniga d, g ishlatiladi. Bu dialekt lug'at sostavi jihatidan ham farq qiladi.

4. Alohida guruh shevalar.

Bular Qorabuloq, Iqon, Mankent shevalari. Asosiy xususiyatlari: uzun-qisqa unlilarga ega ekanligi.

Prof V.V.Reshetov tasnifi.

V.V.Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar (tojik, qozoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalari tasnifini tuzdi. U o'zbek xalqi sostavida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-

biridan farq qiladigan uch dialekt borligini aniqlab, o'z navbatida bu dialekt birliklari o'zbek tili sostavida 3 lahjani vujudga keltirganligini ko'rsatib berdi.

1. Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi bo'lib, uyg'un tiliga yaqin, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan.

2. Qipchoq lahjasi-qozoq, qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3. O'g'uz-lahjasi-turkman tili bilan yaqin.

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona tipidagi shevalarni o'z ichiga oladi. Xususiyatlari: So'z boshidagi t>ch ga o'tadi tusht'>chusht' kabi: so'z oxirida k-k g-g saqlanadi: tariq, urug' kabi.

2. Qipchoq lahjasi. Bu lahjaga xos xususiyatlar G'.Olim tasnifida berilgan.

3.O'g'uz lahjasi. Xususiyati: Juft unlilarning borligi, t>d, k>g ga o'tishi, qisqa va uzun unlilarning farqlanishi, ba'zan so'z boshida b tovushining tushib qolishi (bol-ol) kabilar.

Tayanch tushuncha:

1. Lahja.

2. Sheva.

3. Metisatsiya.

4. Gibrizatsiya.

5-ma'ruza

Mavzu: O'zbek shevalarining o'rganilishi

Reja:

1. O'zbek shevalarining tarqalish hududlari

2. Turkiy tillar va shevalarni o'rganishda M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarining ahamiyati

3. O'zbek shevalarini o'rganishda rus turkologlarining ishtiroki

O'zbek tili turkiy tillar tasnifiga ko'ra turkiy tillardan 3 guruhiga kiritilgan. Sababi, o'zbek tili o'zining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at sostaviga ko'ra turli turkiy tillar bilan umumiy xususiyatlarga va shuningdek, u tillardan farq qiladigan o'ziga xos ba'zi xususiyatlarga ham egadir.

O'zbek tili sostavida ayrim lahjalar, chunonchi, o'g'uz lahjasi o'z xususiyatlariga ko'ra turkiy tillardan janubiy-g'arbiy guruhiga kirsa, qipchoq lahjasi esa shimoliy-g'arbiy guruhga kiradi. Bu lahjalardan ham o'zlari kiradigan guruhlar bilan o'xshash va ayni vaqtda noo'xshash tomonlari mavjud.

O'zbek tilining shahar shevalariga asoslangan hozirgi zamon adabiy tili esa janubiy-sharqiy guruhga kiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatdan farq qiladigan 6 unli tovush bor (i, e, a, u, u, o).

Boshqa turkiy tillar esa 9 va undan ortiq unliga ega bo'lishlari bilan o'zbek adabiy tilidan farqlanadilar. Shuningdek, bu tillar unlilarning uyg'unlashish va uyg'unlashmasligi jihatidan ham farqlanadilar. Masalan: qirg'iz tilida lab ohangi (labial singormanizm: tulkulor) ning to'la saqlanishi juda kuchli, bu hodisa o'zbek adabiy tilida esa juda zaif (tulkilor).

O'zbek tilining undoshlar sistemasi ham boshqa turkiy tillarga asosan, mos kelsada, ayrim noo'xshashliklarga ham ega.

O‘zbek tilida so‘z boshida keladigan y tovushi shimoliy–g‘arbiy guruhga kiruvchi dj va j tovushi bilan beriladi (y, dj, j), o‘zbekcha- yol, qirg‘izcha–djol, kozokcha-jol kabi. O‘zbek tilida so‘z boshida keladigan t tovushi janubi–sharqiy guruhga kiruvchi turkiy tillarda (turk, ozarbayjon, turkman kabi) d tovushi bilan beriladi. Masalan: o‘zbek tili; turk, ozarbayjon, turkman-dil; o‘zb–tosh, turk, ozarb, turkman –dash; o‘zb–kuz, ularda goz kabi.

O‘zbek tilida tog‘, bog‘ kabi so‘zlarda so‘z oxirida keladigan g‘ tovushi o‘rnida qozoq, qoraqalpoq va qirg‘iz tillarida u («v»), («u»), («v») tovushlari ishlatiladi. ya’ni o‘zb –tog‘, qozoqcha–tau, qirg‘–too; o‘zbekcha – bog‘, qozoqcha – bau, qirg‘ – boo; so‘z oxirida keladigan sh tovushi qozoq va qorakalpoq tillarida s tovushi bilan m – i tosh – tas beriladi. Masalan: o‘zbekcha – och, qoraqalpoq va qozoqda – ash kabi. (Bul jumyr tasty baurym Musa Aybekke syuga tartam. Sabit Mukano uly.) (4 bet. «Oybek zamondoshlari xotirasida»).

O‘zbek tili va boshqa turkiy tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va noo‘xshashliklar ularning lug‘at sostavida ham ko‘rinadi. O‘zbek tili lug‘at fondiga kiruvchi so‘zlar boshqa turkiy tillar lug‘at fondiga kiruvchi so‘zlar ayrim turkiy tillarning o‘z fonetik xususiyatlariga ko‘ra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda tadqiq qilinishida rus olimlarining xizmatlari.

O‘zbek dialektologiyasining lingvistik fan sifatida shakllanishida E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borokov, V.V.Reshetov kabi rus turkshunos olimlarining xizmatlari kattadir. E.D.Polivanov shevalarni o‘rganishni 20-yillardan boshladi. «Zvukovoy sostav tashkentskogo dialekta» (jurnal «Nauka i prosveshenie» 1922) nomli maqolasi bilan bu «qo‘riqni» birinchilardan bo‘lib ochishga harakat kildi. K.K.Yudaxinning «Qorabulok shevasining ba’zi bir xususiyatlari» (1925), «Vodiy kishlog‘ining lahjasi haqida bir necha so‘z», «Chig‘atoy tili tovush sostaviga doir materiallar», «Laylak materiallaridan» kabi asarlari, V.V.Reshetovning «O‘zbek tilining Marg‘ilon shevasi», «O‘zbek tilining Namangan shevasi», «Transkriptsiya haqida» kabi bir qator asarlari bosilib chiqdi.

A.K.Borokovning «Yangi o‘zbek alfaviti», «Tasnif masalasi» kabi asarlar o‘zbek dialektologiyasining rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Tayanch tushunchalar:

Singormanizm.

Qiyosiy-tarixiy metod.

Substrakt.

Bilingvizm.

6-ma’ruza

Mavzu: Shevalar fonetikasi va fonetik qonuniyatlar.

Reja:

1. O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari
2. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi
3. Singarmonizm qonuni va uning turlari
4. O‘zbek shevalarida nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o‘zgarishlari va turlari.

O'zbek tilida so'zlashuvchi aholi yashaydigan hududlarga nazar tashlab shevalar bo'yicha fonemalarning munosabatiga son jihatdan qarasaq, ularning yagona bir markazga ya'ni adabiy til uchun asos bo'ladigan markazga qarab yo'nalishini ko'ramiz. Yagona markazlar uzoqlashgan sari unli fonemalar soni ko'paya boradi, shahar shevalariga xos bo'lgan unli fonemalarning sostavi esa asosan saqlanib, ularning xarakter, xususiyatlari ma'lum farqlar ko'rinishida boshlaydi. Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan ba'zi o'zbek shevalarining unilari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Toshkent-Farg'ona tipidagi shahar shevalari hamda shahar shevalarining talaffuz va leksik-grammatik xususiyatlariga uxshash bo'lgan qishloq shevalari adabiy tilning shakllanishida etakchi rol o'ynaydi.

O'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida vujudga kelgan eng progressiv xususiyatlarni o'zida aks ettirganligi sababli shahar shevalari etakchi sheva hisoblanadi. «J»-lovchi shevalar esa konservativ xarakterga ega bo'lib, shevalar vokalizmida qipchoq lahjasining traditsion xususiyatlari saqlangan. Bu ikki tomon («j»-lovchi va y-lovchi) shevalari orasida fonetik va morfologik xususiyatlari jihatidan adabiy til va jonli shevalarning o'zaro munosabatlari natijasida vujudga kelgan ko'pgina murakkab hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan shevalar ham bor ekanligini ko'rsatadi. O'zbek xalq shevalari tovush sostavi va fonetik xususiyatlariga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi. Bularidan bir «j»-lovchi shevalar bo'lib, ular so'z boshida y o'rniga «j» fonemasini ishlatadi. «j»lovchi shevalar o'zbek adabiy tilidan boshqa fonetik xususiyatlari bilan ham farq qiladi: mumkin orfografik o'rnida til orqa a ishlatiladi: adabiy orfografik –ota- «j»-lovchi (ata).

Faqat ba'zi «j»-lovchi shevalariga o'lash xususiyatiga ega. Bunday shevalar qatoriga Samarqand oblast, qozoq-nayman shevasi, Toshkent viloyatidagi qurama shevalarining ba'zilar kiradi, shuningdek, «j»lovchi shevalar singormonizmli bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

O'zbek shevalarining ikkinchi guruhini o-lovchi va a-lovchi guruhchalarga bo'linuvchi y-lovchi shevalar tashkil qiladi. «A»lovchi shevalar singarmonizmdir.

«Y»-lovchilarning a –lovchi shevalarida (shimoliy turkiy cho'ziq unililar mustaqil fonema sifatida ishlatiladi).

E.D.Polivanov, «j»-lovchi shevalarning y-lashishi (Xorazmda) o'g'uz shevalarining ta'sirida shakllangan. O'zbek xalq shevalari sostavi jihatidan murakkab bo'lganligi uchun ba'zi unli fonemalar son va miqdor jihatdan keskin farq qiladi. O'zbek shevalari tarkibiga kiruvchi lahjalarning har biri vokalizmi jihatidan fonetik no'xshashliklarga ega bo'lgan bir qancha shevalarga bo'linadi.

«K» chigil–uyg'ur lahjasida 9-10 ta unli fonema bor. O'g'uz lahjasidagi shevalar esa tovush jihatdan ancha murakkab, chunki ularda ba'zi unli fonemalar sifat jihatdan emas balki miqdor jihatdan ham keskin farq qiladi. Bu lahjadagi shevalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bularda ma'no farqlovchi ma'lum semantik funktsiyaga ega bo'lgan va mustaqil fonema hisoblanadigan alohida cho'ziq unli tovushlar mavjud. O'g'uz lahjasidagi shevalarning vokalizm sistemasi mutloq cho'ziq va mutloq qisqa fonemalardan tashkil topgan bo'lib, bu fonemalarning soni ba'zi shevalarda 18 taga boradi.

O'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan shevalarda unli fonemalar soni 6-7 tadan oshmaydi: masalan, Toshkent tip shevalarda -, e, a, o, e, u: Samarqand tip shevalarda:

e, a, o, e, u. Bu vokalizm Buxoro va Qarshi shevalariga ham taalluqlidir. Bunday xususiyatni Xo‘jand va Chust shevalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Qo‘qon va Marg‘ilon shevalarida sifat jihatdan farq qiladigan, ammo miqdor jihatdan farq qilmaydigan 7 fonema mavjud. Bular: u, e, o, e, a, e.

Bu shevalarning unlilar sistemasida Toshkent va Samarqand unlilar sistemasidan farq qiladigan orqa qator quyi ko‘tarilish (a) fonemasi saqlangan. Shunday qilib, bu shevalarda Toshkent shevasidagi (e,e) Samarqand, Buxoro, Qarshi, Xo‘jand, Chust shevalaridagi (a, e) va adabiy tildagi a, o kabi ikki unli fonema o‘rniga uch keng unli fonema (a,e,e) borligini ko‘ramiz.

Bu shevalarda (a) fonemasi quyi ko‘tarilishdagi unli fonemalar o‘rtasida oraliq fonema holatini saqlab qolgan.

Territoriya jihatdan Marg‘ilonga yaqin bo‘lgan Vodil qishloq shevasi, Jizzax va Toshkent atrofi shevalari unlilari Toshkent shahar shevasi unlilar sistemasiga o‘xshaydi. Andijon, Farg‘ona vodiysining qishloq shevalarida, Turkiston, o‘zbek tilining qoraqalpoq dialektida, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo oblastlarining «j»lovchi o‘zbek shevalarida hamda qurama shevalari vokalizmida 9, 10 ta fonema mavjud.

O‘zbek shevalari unlilarning talaffuzida lablarning ishtiroki.

Toshkent tipidagi shevalar vokalizmida, shuningdek, o‘zbek adabiy tili vokalizmida unlilarning lablanish holati asta–sekin kamayib, aksincha, tilning tanglayga tomon ko‘tarilishi darajasiga ko‘ra yukori ko‘tarilish unlilarining o‘rta ko‘tarilish unlilariga va nihoyat keng unli fonemalarga o‘tishi asta-sekin kuchayib bormoqda.

Yuqori ko‘tarilish unlilari i (‘ va u) u ni asosiy farqi ularning lablanishi va lablanmasligidir. Holbuki, bu ikki fonema tilning gorizontal holatiga ko‘ra (‘, u) va adabiy tildagi i, u o‘zining kombinator variantlariga ega. Bu kombinator variantlar adabiy talaffuzda ham o‘z aksini topgan. Masalan: q‘sh, q‘rq kabi so‘zlarda til orqa () kabi talaffuz qilinadi. Shuningdek, i va u tovushlari ba‘zi so‘zlarda o‘z pozitsiyalarini o‘zgartirib goh til orqa, goh til oldi unli sifatida namoyon bo‘ladilar. Yuqoridagidek, kombinator variantlar o‘rta ko‘tarilishi unlilaridan o (e, o) dan faqat u unlisidagina ko‘rinadi.

Masalan: qol, qo‘l kabi. Quyi ko‘tarilish unlilarida (e, a, e) lab ishtirokiga nisbatan tilning gorizontal yo‘nalishiga ko‘ra farqlanish ustun. Farg‘ona shevalarining ba‘zilari (Marg‘ilon) vokalizmidagi farq yuqorida ko‘rsatilgandek, quyi ko‘tarilish unlilarida e,a,e uchraydi. Ko‘rinadiki, 9, 10 ta unli fonemaga ega bo‘lgan o‘zbek shevalarida umumnorma sifatida labning ishtiroki va tilning gorizontal yo‘nalishiga ko‘ra ajralish printsiplarining qoldig‘i ma‘lum darajada saqlangan (yuqori ko‘tarilish o-o,i-u quyi ko‘tarilish e-a, a-e) kabi juft unlilarni qiyos qiling.

O‘zbek shevalari vokalizmida mutloq cho‘ziq va mutloq qisqa unlilar ham uchraydi. Mutloq cho‘ziq unlilar "j" ni Xorazm, Qorabuloq va Iqon shevalarida saqlanganligini ko‘ramiz. Bu shevalar vokalizmida (e) unlisi yo‘q. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra bu shevalar o‘zbek adabiy tilidan ham farq qiladi. O‘g‘uz shevalari kabi Iqon shevasida ham 18 ta unli mavjud.

<u>Oldingi qator</u>	<u>orqa qator</u>
<u>Qisqa ! i,e,e,u,o,</u>	<u>! Ы,а,у,о</u>
<u>Cho‘ziq ! i,e,e,u,o, !</u>	<u>! Ы,а,у,о</u>

Qorabuloq va Iqon shevalarining vokalizmida bir-biridan ma'lum darajada farq qiladigan ikki fonema: Qorabuloqda (e), Iqonda (a) fonemasi mavjud. Bu fonemalar o'rtasidagi sifat jihatdan farq shundaki, Qorabuloqdagi (e) ga nisbatan Iqon shevasidagi (e) bir muncha yopiq bo'lib, quyi ko'tarilishi unlisidir. Qorabuloq shevasidagi (e) fonemasi akustik jihatdan bir qadar pastga tushuvchi fonemadir. Masalan: Iqon kel, Toshkent kel, Iqon keldiler, Toshkent keldilar. Cho'ziqlikning alohida turi saqlangan shevalarga J.Xorazm, singarmonistik shimoliy o'zbek shevalari ham kiradi. Ba'zi turkiy (turkiy, yoqut) tillarda, o'zbek tilining boshqa shevalarida va o'zbek adabiy tilida bunday cho'ziq unililar uchramaydi.

O'zbek shevalarida ma'no farqlamaydigan ikkilamchi cho'ziq unililarning vujudga kelishi tubandagicha: 1. Yondosh undoshning tushishi natijasida (sh e h a r > sh e : e r > sh e r) a (r) ning tushishi natijasida: Namangan b e : v o s u n > b e : r bolsun (bor bo'lsin): Andijon, Toshkent b e m ' (bormi) k (k) ning tushishi natijasida: Namang. s e t e m e n bu sandu: n' (sotaman, bu sandiqni), kere: yoq-keragi yo'q orakn' uch' m'nem – o'roqni uchi bilan.

Suye:kler'ngdan suyekler'ng- suyaklaring (v) ning tushishi natijasida : Uychi su: >suv, Namang. su: 'sse >suv 'chs'-suv ichsa, Andijon: su : l'k yellerde- suvli erlarda (g) ning tushishi natijasida: Namang: o:lung'zz' kesp' n'me ?- o'g'lingizning kasbi nima? (ng)ning tushishi natijasida: bole – chaqa : n' el'p kel – bola-chaqangni olib kel. Chushun'-tushunchni kabi. (Y) ning tushishi sababli: Toshk.dj':de- jiyda: k':m'- kiyma (g) ning tushishi: Toshk: te:me- tegma kabi.

2. Ikki unlining tortilishi va ular o'rtasidagi undosh tovushning tushishi natijasida unli cho'zilishi mumkin. Masalan: Qorabuloq-to:p>taup >тауып – topib: sa:k>sauk – sauk kabi. Lekin Qorabuloq shevasidagi a t va a : t dan a : d kabi so'zlardagi cho'ziq unililarda farq bor, chunki bunda (a) va (a) unililarining alohida fonematik xarakteri bor. Bundan tashqari bu shevadagi (Qorabuloq) to : p, ko :p, so: k kabi so'zlardagi cho'ziq (o:) unlisi ma'lum fonetik holatlardagina mavjud bo'ladi.

Bu holat unli fonemalari differentsiatsiya qilinmaydigan boshqa shevalarga ham xos xususiyatdir. Masalan: Namang:do:d'm>dovd'm > depd'm – deb edim kabi. Yuqorida keltirilgan misolda lab-lab v ning tushishi orqali vujudga kelgan.

Fonetik ultra cho'ziqlik. Fonetik ultra cho'ziqlik nutq ohangi bilan bog'liq hodisadir. Bunday ultra cho'ziqlik o'zbek shevalarining har birida turlicha ko'rinishga ega. Bu hodisa ham ohang bilan bog'liq bo'lganligi sababli, tovush yoki tovushlar kompleksining tushib qolishi bilan bog'liq emas. Masalan: m'm b'lme: men – men bilmayman. Sem b'lme:-sen -sen bilmaysan.

Fonemalar va ularning kombinator variantlari.

J-lovchi va singarmonizmli y-lovchi shevalarda yuqori ko'tarilish unililari turkumiga kiradigan 6 ta fonema bor (i , ' , i , , u , u).

Bulardan uchtasi (i , ' , u) oldingi qator va uchtasi orqa qator (ы , , u). Yuqori ko'tarilish unililar orasida ikki juft (i-ы, u-u) kontrakt unli fonema bor, () va (') ning jufti yo'q. Ba'zi j-lovchi shevalarda yuqori ko'tarilish unli fonemalar yuqori o'rtta ko'tarilish unililariga (i, u) qarab rivojlangan.

Yuqori ko'tarilish lablanmagan (i , ' , ы) unililari i fonemasi odatdagi turkiy (i) – til oldi, lablanmagan, qoraqalpoq tilidagi (i)-ga o'xshash, qozoq tilidagi (i) ga yaqin unli

tovush (i) tovushi j – lovchi shevalarda qoraqalpoq tilidagi kabi yuqori o‘rta ko‘tarilish lablanmagan unli tomon rivojlangan. Shuningdek, ko‘pincha urg‘usiz bug‘inlarda (e) lashadi. O‘zbek shevalarida (i,e,e,) e unllilarining almashinishi so‘z boshida, qo‘shma so‘z, va grammatik formalarda esa so‘z o‘rtasi va oxirida sporadik holatda uchraydi.

Masalan: i s e p – x i s e p – x e s e p yl: Toshkent x’sep: k- buloq – semiz, Toshkent : sem’z. Y- tovushi bilan yondosh kelganda jl: siy’r,

Xiya-Xnk-biy –быг kabi.

I- tovushi (y) bilan yondosh kelganda o‘zining oldingi qatorlik holatini saqlaydi, (i) tovushining oldingi qatorlik holati (dj) ta’sirida ham ko‘rinadi. Masalan: djigit, djipak- (ipak) kabi.

Burun tovushlari (m-n, ng, l, r) va lab tovushi (b) va til orqa (k,g) tovushlari bilan yondosh kelgan (i) tovushi tilning orqaroq tortilishi bilan tafsiya qilinib, oraliq (ы) tovushiga o‘tadi, lekin rus tilidagi (ы) dan farq kildi (мынг kabi).

Chuqur til orqa (k,g,g) tovushlari bilan kelganda (i) ham til orqa holatga ega bo‘ladi. () tovushi Turkiston shevasida kombinator variant emas balki til oldi (‘) fonemasining til orqa jufti, mustaqil fonemadir. Masalan: yaxsh’, yaxsh’roq kabi.

J-lovchi shevalarda, sh- dek singormanistik y-lovchi shevalarda so‘z ma’nolarini farqlaydigan (i) va (ы) fonemalari bor. Ammo (i) va (ы) tovushlari bu shevalarda o‘zining til orqa holatini hamma saqlay olmaydi. Bu hodisa (y, sh, ch, dj) bilan yondosh kelganda yuz beradi: Masalan: symayды – sig‘maydi: djyn – yig‘in: chg‘aryp – chiqarib: shlym-chilish kabi. (I) tovushi qorluq-chigil–uyg‘ur dialektiga ko‘ra o‘zbek adabiy tilida ham uchraydi: k’m, k’g’z kabi.

(ы) va (i) unllilari (v,m,p) undoshlari bilan kelganda lablanishi mumkin. Masalan: (jl) kimmiki kabi. Bu erda assimilyasiya hodisasi ham mavjud. (Ы) va (i) tovushlari lab undoshlari bilan yondosh kelganda y-lovchi shevalarda lablanadi.

Ammo, j-lovchi shevalarda doimo lablanishi uchramaydi. Bir qancha j-lovchi shevalarda (i>e >) holati uchraydi. Masalan: kichkine, kichkene, kichkene kabi.

ЫI tovushi y-lovchilarda kuchsiz (a) tovushiga ham o‘tishi mumkin: dastarxen, dasterxen, dastyrxan kabi. (i, e, va ы, a) o‘tishi affiks va yuklamalarda ham uchraydi: yuklamalarda: bolama (mi), bomayma kabi: affikslarda **ketatag’an** kabi so‘z birikmalarida **oneki ey**: i tovushi j-lovchi shevalarda diftonglashishi ham mumkin. Masalan: iyt so‘zida.

U fonemasi haqida. Bu fonemaning ikki varianti bor. Til oldi u xarakteri jihatdan murakkab emas. J- lovchi va singarmonizmli shevalarda bir-biridan farq qiladigan ikki u fonemasi bor bo‘lib, ular so‘zlarning barcha bo‘g‘inlarida kela oladi. Oraliq u unlisi ham shevalarda uchraydi. Ikkinchi darajali cho‘ziq unllilar ham uchrashi mumkin.

Yondosh undoshlarning tushib qolishi a va o unllilarining cho‘zilishiga sabab bo‘ladi.

Quyi ko‘tarilish unli fonemalarga j-lovchi va y-lovchi o‘zbek shevalaridagi tubandagi unllilar kiradi.

a) old qator (e) va (e).

b) orka qator (a) va(e)

(e) tovushi y-lovchilarda kam uchraydi. J-lovchilarning qurama va qozoq-nayman shevalarining ba’zilarida uchraydi.

J- lovchilarning qurama va qozoq nayman shevalarining ba'zilarida uchraydi. (e) fonemasi o'zbek shevalarida sifat jihatdan xar xil. Bu tovush Namangan shevalarida ko'proq uchraydi.

(e) tovushi barcha o'zbek (e, 11 e, E) tovushlari hamma shevalarda o'rin almashib qo'llanishi mumkin. Masalan: ye ne yene – yana keyin kabi. (e) fonemasi j-lovchi va singarmonizmli o'zbek shevalarida Toshkent tipidagi shevalardagiga nisbatan kamroq qo'llanadi.

Orqa qator (a) fonemasi hamma shevalarda bir xil, ammo Toshkent tipidagi y-lovchi shevalarda kam uchraydi. Uning e yoki (e) tovushlari bilan yondosh kela olishi xususiyati bilan ham farqlanadi.

O'zbek shevalari konsonantizmi

O'zbek tili turkiy tillar tasnifiga ko'ra turkiy tillardan 3 guruhiga kiritilgan. Sababi, o'zbek tili o'zining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at sostaviga ko'ra turli turkiy tillar bilan umumiy xususiyatlarga va shuningdek, u tillardan farq qiladigan o'ziga xos ba'zi xususiyatlarga ham egadir.

O'zbek tili sostavidagi ayrim lahjalar, chunonchi, o'g'uz lahjasi o'z xususiyatlariga ko'ra turkiy tillardan janubiy-g'arbiy guruhiga kirsas, qipchoq lahjasi esa shimoliy-g'arbiy guruhga kiradi. Bu lahjalardan ham o'zlari kiradigan guruhlar bilan o'xshash va ayni vaqtda noo'xshash tomonlari mavjud.

O'zbek tilining shahar shevalariga asoslangan hozirgi zamon adabiy tili esa janubiy-sharqiy guruhga kiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatdan farq qiladigan 6 unli tovush bor (i, e, a, u, u, o).

Boshqa turkiy tillar esa 9 va undan ortiq unliga ega bo'lishlari bilan o'zbek adabiy tilidan farqlanadilar. Shuningdek, bu tillar unilarning uyg'unlashish va uyg'unlashmasligi jihatidan ham farqlanadilar. Masalan: qirg'iz tilida lab ohangi (labial singormanizm: tulkulor) ning to'la saqlanishi juda kuchli, bu hodisa o'zbek adabiy tilida esa juda zaif (tulkilor).

O'zbek tilining undoshlar sistemasi ham boshqa turkiy tillarga asosan, mos kelsada, ayrim noo'xshashliklarga ham ega.

O'zbek tilida so'z boshida keladigan y tovushi shimoliy-g'arbiy guruhga kiruvchi dj va j tovushi bilan beriladi (y, dj, j), o'zbekcha- yol, qirg'izcha-djol, kozokcha-jol kabi. O'zbek tilida so'z boshida keladigan t tovushi janubi-sharqiy guruhga kiruvchi turkiy tillarda (turk, ozarbayjon, turkman kabi) d tovushi bilan beriladi. Masalan: o'zbek tili; turk, ozarbayjon, turkman-dil; o'zb-tosh, turk, ozarb, turkman -dash; o'zb-kuz, ularda goz kabi.

O'zbek tilida tog', bog' kabi so'zlarda so'z oxirida keladigan g' tovushi o'rnida qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz tillarida u («v»), («u»), («v») tovushlari ishlatiladi. ya'ni o'zb -tog', qozoqcha-tau, qirg'-too; o'zbekcha - bog', qozoqcha - bau, qirg' - boo; so'z oxirida keladigan sh tovushi qozoq va qorakalpoq tillarida s tovushi bilan m - i tosh - tas beriladi. Masalan: o'zbekcha - och, qoraqalpoq va qozoqda - ash kabi. (Bul жумыр тасты баурым Musa Aybekke сыуға tartam. Sabit Mukano улы) (4 bet. «Oybek zamondoshlari xotirasida»).

O'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlik va noo'xshashliklar ularning lug'at sostavida ham ko'rinadi. O'zbek tili lug'at fondiga kiruvchi so'zlar

boshqa turkiy tillar lugʻat fondiga kiruvchi soʻzlar ayrim turkiy tillarning oʻz fonetik xususiyatlariga koʻra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin.

Masalan: oʻzbek-bakavul, turkm – bekeul, oʻzbekcha-gizlanmajak, turkm–gizlenjek .

Oʻzbekcha	!	Turkmancha
Gilam		!gʻali
Jumalak		!jomelek
Deyval , devor		!diyval
Qizilcha		! qЫZYIJa

Bunday fonetik hodisalardan qatʼiy nazar oʻzbek va boshqa turkiy tillar lugʻat sostavida umumiy oʻxshashlik saqlangan.

Tayanch tushuncha:

1. Vokalizm.
2. Fonema.
3. Konsonantizm.
4. Fonetika.
5. Assimilatsiya.

7-8 Maʼruza

Mavzu: Oʻzbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi

Reja:

1. Oʻzbek shevalari leksikasi tushunchasiga boʻlgan qarashlar
2. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari
3. Sheva soʻzlari va jargonlar
4. Dialektal frazeologizmlar va shevalarda onomastik birliklar.
5. Oʻzbek shevalari leksikografiyasi masalalari

Oʻzbek shevalari leksikasi.

Oʻzbek shevalarining leksik sostavi haqida umumiy maʼlumot. Shevalarning leksik jihatdan oʻzaro farqlari. Dialektal soʻzlarning tiplari.

Oʻzbek shevalari oʻzlariga xos fonetik va grammatik xususiyatlari bilan birga leksik xususiyatlarga ham ega. Bu xususiyatlar shevalari adabiy tildan va ayni vaqtda ularni oʻzaro farqlaydi.

Maʼlumki, oʻzbek qatlam va shevagagina xos boʻlgan leksik qatlam mavjud.

Har bir til va dialektal leksik sostavi asosini hayotiy zarur tushunchalar ifodasini bilgan, yangi soʻzlar yasash uchun baza boʻladigan, davrlar mobaynida turgʻun va yashovchan boʻlgan, shu til egalarining barchasi uchun umumiy boʻlgan soʻzlar tashkil etadi.

Bularga oʻzbek tilida tabiat hodisalari (chaqmoq, yomgʻir, shamol, qor) mavjudotlar (suv, daryo, daraxt, togʻ, tosh) holat – harakat

(yurmoq, uxlamoq, ichmoq) ni va shu kabilarni ifodalovchi soʻzlar kiradi. Bu soʻzlar oʻzbek tilida soʻzlashuvchi kollektiv uchun umumiy boʻlganidek, shevalar uchun ham, adabiy til uchun bab-barobar umumiydir. Shunga koʻra oʻzbek tili leksik

sostavining asosiy qismini tashkil etuvchi soʻzlar oʻzbek shevalari va shuningdek, oʻzbek adabiy tili leksik sostavining ham asosiy qismini tashkil etadi.

Adabiy til umumxalq tilining davrlar mobaynida ishlagan, sayqal berib silliqlangan yuqori formasidir. Shuning uchun adabiy tilning oʻziga xos ayrim leksik xususiyatlari shevalar uchun xos emas. Adabiy til lugʻat sostavidagi tarixiy kolorit va badiylik uchun ishlatiladigan soʻz va iboralar, ayrim qabul qilingan soʻzlar, boshqa tillardan tarjima qilib olingan soʻzlar (kalkalar), fanniy terminlar shevalarda asosan yoʻq. Respublikamizda kundun-kunga rivojlanishi natijasida adabiy tilning kundalik va toʻxtovsiz samarali taʼsiri natijasida bunday soʻz va terminlar shevalararo baʼzi fonetik uzgarishlar bilan paydo boʻlmoqda. Bularning koʻpchiligi qishloq xoʻjaligi, madaniy-oqartuv, davlat organlari va shu kabilarga xos soʻz va terminlardir: tʻ r e x // ad. orf, traktor, kelxoz //ad. orf. kolxoz, bʻrged// bʻrgede\\ad. orf. brigada, moshʻn // ad.orf. mashina. Olʻy Sevet // ad. orf. Oliy sovet.

Oʻzbek xalq shevalari sostavida (toshk.odosh // odog, yovuk (uzoq-yovuq), um- (umsinok). Xorazm. arna, yap, Namang. Yar kabi) adabiy tilda shaklan oʻzgargan yoki adabiy til taraqqiyoti davomida undan allaqachonlar chiqib ketgan ayrim soʻzlar mavjud. Bunday soʻzlarni oʻrganish til tarixi, shuningdek, adabiy til tarixi uchun muhimdir.

Bundan tashqari, oʻzbek xalq shevalari leksik sostavida ayrim shevalarning (yoki lahjalarning) (Toshk.djʻlle (djʻlle qurmese)

Xorazm: xokkʻ // U ok U Farg. Farg. chumeg) r kabi oʻzigagina xos boʻlgan soʻzlar ham bor. Bu soʻzlar faqat shu sheva yoki shu shevaga kiradigan shevalar gruppasi (lahja) uchun umumiy boʻlib, boshqa shevalarda va shuningdek, adabiy tilda yoʻq yoki shunday tushuncha anglatadigan boshqa soʻz orqali ifodalanadi. Bunday soʻzlarni toʻplash va oʻrganish sheva xususiyatlarini qayd etish uchun, hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida boyitish uchun muhimdir.

Oʻzbek xalq shevalarida oʻzbek adabiy tilida boʻlmagan soʻzlar ham uchraydi. Masalan, Shimoliy Xorazm shevalarida (prof. E.D.Polivanov tekshiruvchilarga koʻra) yerqanat (// ad.tilda koʻrshapalak,) yavan// djaban) // ad. tilda qishloq), arish (//ad. tilda shoti-arava shotisi), tartanak (// tilda oʻrgimchak) kabi qirq shevasida (dots. T.Z.Mirsoatov tekshiruvchiga koʻra) adrasman (// ad. tilda isiriq), zambir (// ad.tilda asalari), shoka (// ad. tilda panshaxa, sota (// ad.tilda tayoq, hassa), berek (// ad.tilda chuchvara) kabi Mirishkor shevasida (prof. S. Ibrohimov tekshiruvchiga koʻra) girdikn (// ad. tilda yakondozi, koʻrpacha) sarposh (ad.tilda tuvok), tekech (ad. tilda chekich), Jizzax shevasida (dots. X.Gʻulomov tekshiruviga koʻra) sʻkkeverey (oʻsimlik nomi), eyrʻchuka (oʻtin ortish uchun ishlatiladigan asbob) va shu kabi. Bundan tashqari, oʻzbek xalq shevalarida uchraydigan pese, qadoq, botmon, tosh, chaqirim kabi oʻlchov nomlari hozirgi kunda faqat kekxa avlod tilidagina ishlatiladi. Lekin ularning maʼnosini yosh avlod tushunmaydi. Kekxa avlod ham ayrim soʻzlarning maʼno xususiyatlarini unutib bormokda. Bunday arxaik soʻzlarning sheva sostavida chiqq borish, ularning yangi soʻzlar bilan almashinishi joylardagi moddiy-maʼnaviy hayot sharoitlari, adabiy til taʼsiri bilan bogʻliqdir.

Ayrim shevalarga xos dialektal soʻzlarga nisbatan umumxalq soʻzlari shevalar lugʻat sostavida koʻp oʻrin egallaydi. Adabiy tilning kundalik taʼsiri natijasida bunday soʻzlar sheva leksik sostavining passiv katlamiga oʻtib bormokda.

Shevalarning leksik jihatdan o‘zaro farqlar bir-biridan leksik jihatdan farqlaydigan xususiyatlar barcha so‘z turkumlarida uchraydi. O‘zbek shevalarda dialektal so‘zlarning fonetik, morfologik, leksik- morfologik, semantik va leksik tiplari uchraydi. Shevalarni kuzatganda, ayni bu suzning u yoki bu shevada boshqacharoq talaffuz qilinishi fonetik (yoki morfologik) farqlardir: (Masalan, Toshk.soch//And. chech // ad.- orf.soch, Toshk. Z’rey // Xorazm.zriey // ad.-orf. Zirak. Toshk. qulog // Farg. kulak // ad.-orf. quloq: Tosh. chug‘urchuq // And ch’g‘ch’k // ad.-orf. chug‘urchuq: Tosh. Oshsh’ Farg. Osh // ad. oshni(ng) kabi) Leksik farqlar esa shevalararo bir predmetni yoki harakat-holatni boshqa-boshqa so‘zlar orqali ifoda qilishdan iborat, masalan, Toshk nervon-Farg shat-Xorazm eenggi: Toshk. Ogr-Farg, kel – Xorazm. soki: Toshk. rovach –And. Chukr: Toshk. k’d’r-boshqa-boshqa so‘zlar bo‘lishiga qaramay, mazkur shevalararo birgina predmetni yoki ish-harakatni bildiradi va bu dialektal so‘zlar to‘liq munosabatdosh hisoblanadi. Ularning vazifasi va shakli bir xil. Bu munosabatdoshlik nisbiy bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Samarqand gruppasi shevalarida uchraydigan chekech (chekgich) so‘ziga munosabatdoshdek tuyuladi. Lekin bu ikki so‘z (nonpar-cheke‘ch) ifodalangan predmet vazifa jihatidan o‘xshash (mos) bo‘lsa-da, shakl jihatdan farqli, boshqa-boshqa predmetlardir. Ko‘rinadiki, nonpar va chek‘ch so‘zlarining munosabatdoshligi og‘r-kel’-soki so‘zlarining munosabatdoshligi farq qiladi. Keyinchalik nonpar so‘zi yog‘ochga sim qadab yasalgan predmetga anglata boshladi. Shundan keyingina nonpar va chek‘ch so‘zlari o‘rtasidagi teng munosabatdoshlik vujudga keladi.

O‘zbek shevalarida shunday so‘zlar ham uchraydiki, bunday so‘zlar shakl jihatidan o‘xshash bo‘lishlariga qaramay, shevalararo boshqa–boshqa ma’nolarda ishlatiladi. Masalan: Toshk. arava qismining nomi.

shot- Farg‘.a) narvon, a) arava qismi buy- Toshk. ona yoki otaning onasi

Farg‘. ona Toshk. oy. Peshshe----- Toshk.pashsha (rus. muxa) Farg‘. chivin (rus.komar), Tuxum ----- Toshk. tuxum (jl. meyek) qipchoq. urug‘.

O‘zbek shevalarining leksik sostavida traditsion leksika asosiy o‘rin egallaydi. O‘zbek xalq shevalari traditsion leksikasida shunday so‘zlarni uchratish mumkinki, ularning ma’no xususiyatlariga ko‘ra paydo bo‘lish ildizlari juda qadimiy davrlarga–urug‘chilik davrlarga borib taqaladi. Bunday so‘zlarga, avvalo, qarindosh-urug‘ nomlarini bildiruvchi so‘zlar kiradi. Bu so‘zlar orasida ote // ad.-orf. ota, one// ad. ona, og‘‘l // ul //ad. -orf. o‘g‘il, q‘z // ad. -orf. qiz kabi umumdialekti xos so‘zlar, shuningdek shakl va ma’no jihatdan farqli ayrim shevalargagina xos bulgan qarindosh-urug‘ nomini bildiruvchi so‘zlar ham bor. Masalan, And. ketete // kete (kette ote) - Toshk. buve // ad. -orf. buvi And eke-Toshk. oke // ad. -orf aka (qipchoq shevalarida ota, amaki ma’nosida ishlatiladi) opa (qipchoq shevalarida ota, ona ma’nosida ham ishlatiladi), bole //ad. -orf. bo‘la. (ayrim shevalarda amakivachcha ma’nosida ham ishlatiladi). Toshk. opok’, tog‘e, emek’, emme, hole, kel’n, kuyov, dj’yen, keynene, keynete, keyn’n’. Tog‘a, amaki, amma, hola, kelin, kuyov, jiyan.

Yuqoridagidek, Qarindosh-urug bildiruvchi so‘zlarni detallashtirish farqlash, ularni paydo bulishi hamda ma’nolariga ko‘ra ayrim xususiyatlari (aka-ota, amaki ma’nosida , opa-ona ma’nosida kabi) shubhasiz odamlar orasidagi munosabatlarning qon-qarindoshlik aloqalariga asoslangan davrlariga borib taqaladi va asl ma’nosini

saqlagan holda O'zbek shevalarining leksik tarkibi an'anaviy qatlamida saqlanib kelmoqda.

O'zbek shevalarining traditsion leksikasi hozirgi kunda asosan keksa avlod tilini xarakterlaydi.

Dialektal lug'at tiplari.

Hozirgacha o'zbek dialektal leksikografiyasida dialektal lug'atning faqat sheva va dialektlarga oid so'zlarni tanlab olib, u so'zlarni adabiy tilda izohlab beruvchi dialektal adabiy tipdagi differensial lug'atlarga bor. Dialektal lug'atlarning boshqa tiplari bo'yicha o'zbek dialektologiyasida umuman turkiy tillarda ham lug'atlar tuzilmagan.

Qozoq regional leksikografiyasini boshqa turkiy tillardagi va rus tilidagi dialektal lug'atlar bilan qiyosan o'rganib tadqiq etgan Sh. Sariboyev dialektal lug'atning to'liq, dialektal-adabiy, adabiy dialektal va fonetik dialektizmlar kabi tiplari borligini qayd qilgan.

1. To'liq dialektal lug'at. Ma'lumki, sheva va dialekt vakillari nutqida o'sha sheva dialektlarga xos so'zlardan tashqari boshqa shevalarda adabiy tilda qo'llanayotgan juda ko'p so'zlar bor. Mana shu sheva yoki shevalar guruhida mavjud bo'lgan barcha so'zlarni – leksik boyliklarni qamrab olgan lug'atga to'liq dialektal lug'at deyiladi. Dialektal lug'at to'g'risida prof. A. G'ulomov shunday degan "Sheva leksikasini butun bir sistema sifatida qamrab olish yoppasiga tasvirlash boshqa lug'atlarning vazifasini ham o'z ustiga olish bo'ladi," – degan.

Bu fikrlar to'g'ridir. Chunki shevalar lug'ati boshqa lug'atlarni takrorlamasligi kerak.

2. Dialektal-adabiy lug'at. Yoqlangan nomzodlik va doktorlik ishlarida berilgan lug'atlar hamda ilmiy to'plamlarda berilgan lug'atlar, o'zbek xalq shevalari lug'atlari dialektal -adabiy lug'atlardir.

Turkiy tillar shevalari bo'yicha differensial, dialektal-adabiy lug'atlar tipidagi lug'atni birinchi bo'lib 1964 yilda Ozarbayjon dialektologlari tuzganlar. 1967 va 1970 yillarda boshqird shevalarining 2 jildli, 1969 yilda tatar, qozoq, 1971 yilda o'zbek, 1972 yilda qirg'iz shevalarining bir tomlik lug'atlari tuzilgan. 1977 yilda turkman, 1976 yilda yoqut, 1983 yilda qoraqalpoq dialektal lug'atlari nashr qilindi.

3. Adabiy -dialektal lug'at. Bu xil lug'atda bosh so'z qilib adabiy tildagi so'zlar olinadi va shu so'zlarning shevalarda uchraydigan barcha variantlari, dubletlari beriladi. M-n: ombir-атавыз (shim. Xorazm)-atag'z-(jan.Xorazm), kampirovuz (Mastchog') kabi.

4. Fonetik dialektizmlar lug'ati. Bu xildagi dialektal lug'atda bosh so'z sifatida adabiy tildagi so'z olinib keyin uning shevalardagi fonetik variantlari beriladi. Agar shevalardagi fonetik dialektizmlar qatori adabiy tilda uchramasa, shevadagi so'zlardan biri bosh so'z sifatida olinib so'ngra fonetik dialektizmlar keltiriladi.

Shevalar bo'yicha tuzilgan dialektal lug'atlarda bosh so'zlarning har xil manbalarga qiyoslanishi va qiyoslanmasligiga ko'ra 2 guruhga ajratish mumkin.

1. Shevalarning sof dialektal-adabiy lug'atlari

2. Shevalarning qiyosiy dialektal-adabiy lug'atlari

Sof dialektal-adabiy lug'atlarda bosh so'zlar hech qanday manbalarga qiyoslanmaydi.

Qiyosiy dialektal-adabiy lugʻatlarda qiyoslash ishi quyidagi yoʻsinda amalgam oshirilgan:

Bosh soʻzlar turkiy yozma yodgorliklar tiliga hamda boshqa turkiy tillarga qiyoslangan.

Dialektal lugʻatlar ahamiyati

Oʻzbek tilining lahjalariga oid sheva yoki shevalar guruhining yoki barcha shevalarning leksik boyligini qamrab olgan lugʻatlar oʻzbek xalqi soʻz boyligining yagona soʻz boyligidir. D.l. hozirgi oʻzbek adabiy tili oʻzbek tili tarixi boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun shuningdek adabiy til va sheva leksikasining oʻzaro munosabatalini yoritish shevalardagi ayrim soʻzlarni adabiy til lugʻatlariga kiritish adabiy tilda badiiy asarlarda keng qoʻllanayotgan dublet soʻzlarning dominantlarini belgilash uchun yordam beradi. D.l.lar oʻzbek shevalari atlasini tuzish uchun ham foydalidir. Chunki D.l.larda dialektizmlarning qaysi hududda uchrashi maʼlum darajada aks etadi.

Shevalardagi baʼzi soʻzlarning etimologiyasini ham aniqlashga yordam beradi. D.l.da oʻzbek tilining izohli, ikki tilli va terminologik lugʻatlari uchun koʻp leksik materiallar bor. Bu xildagi adabiy tilga oid lugʻatlarda baʼzi bosh soʻzlardan keyin qoʻyiladigan dial shartli belgisi oʻsha soʻzning mahalliy shevalarga oid dialektizm ekanligini bildiradi.

Umumturkiy tillar boʻyicha olib borilayotgan ilmiy-nazariy va qiyosiy tadqiqotlarni tuzish rejalashtirilayotgan umumturkiy tillar shevalarning D.l.ni oʻzbek shevalari toʻliq lugʻatisiz tasavvur qilish qiyin. D.l. oʻzbek xalq maqol va matallarining qaysi territoriyada, qaysi sheva dialect vakillari tomonidan yaratilganligini belgilashga ulardagi baʼzi soʻzlar anglatgan maʼnolarni toʻgʻri aniqlab olishga yordam beradi.

D.l. xalq ogʻzaki ijodini oʻrganuvchilar, folklor asarlarini lugʻatini tuzuvchilar uchun ham ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maktablarda oʻquvchilar yozuvidagi dialektal xatolarni bartaraf qilish uchun ham foydalidir. Bu borasida N. Ahmedov va O. Botirovlarning sheva materiallari asosida yozilgan nomzodlik ishlari fikrimizning dalilidir. Shevalarlugʻatida xalq tarixining koʻp asrlik mahalliy koʻrinishlari oʻz aksini topadi. Shu jihati bilan ham D.l.lar tarixchilar, etnograflar, arxeologlar va adabiyotshunoslar uchun ham qimmatlidir. D.l. lar botanik, zoolog q.q. xodimlari va barcha kasbdagi odamlar uchun ham zarur. Chunki unda kasb – hunarga oid soʻzlar ham mavjud. Hozirgi paytda kitob, radio, vaqtli matbuot, teatrning kundalik taʼsiri adabiy til bilan shevalar oʻrtasidagi farqni kamaytirib bormoqda. Bu holat arxaik hamda etnografik dialektizmlarning kamayishiga olib keladi. “Leksikologiyaga oid tadqiqotlar unutilishi mumkin, biroq yaxshi lugʻatlar hech qachon unutilmaydi, ular abadiy qoladi deydi prof. F. Sorokoletov. Oktabr voqealaridan keyin V. Nalivkin va Nalivkinalarning Namangan shevasi boʻyicha lugʻati yaratilgan.

1972 yildan boshlab A. Kononov va A. Aliyevlar bu lugʻatni ilmiy yozuvda berilmagani uchun lugʻat deb hisoblamaganlar. 1899 yilda N. Pantusovning “ Bir chol va bir savdogar qizi haqida Margʻilin ertagi” asari bosilib chiqqan va oʻsha davr Margʻilin shevasi boʻyicha maʼlumot beradi. 1988 yilgacha oʻzbek dialektologiyasi boʻyicha 9 ta doktorlik, 6 ta nomzodlik ishlari himoya qilingan. Shulardan 25 tasida D.l. mavjud. Oʻzbek shevashunosligi tarixida 1971 yilda 5 ming soʻzdan iborat 1 tomlik

o‘zbek xalq shevalari lug‘ati nashr qilingan. Shundan keyin ham qilingan ko‘pgina ishlarda dialektal lug‘atlar mavjud.

Tayanch tushuncha:

1. Dial belgisi
2. Monografiya
3. Adabiy-dialektal lug‘at
4. Dialektizm terminiga ta’rif

Dialektal lug‘atning tarkibi va lug‘atga kiritiladigan so‘zlar.

O‘zbek tilining sheva, dealektlarida ishlatiladigan barcha so‘zlari tilda qo‘llanilishi yoki qo‘llanmasligi jihatidan ikkita guruhga ajratiladi.

1. O‘zbek adabiy tili va shevalari uchun mushtarak so‘zlar: qo‘l, ko‘z, oyoq, qora, oq kabi;

2. Adabiy tilda qo‘llanmaydigan faqat sheva va dialektlarida ishlatiladigan so‘zlar: al, aya, yal, opsak, jakay kabi.

Adabiy til va shevalar uchun mushtarak so‘zlar miqdori faqat shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlar miqdoridan ko‘pdir.

Shuning uchun umumxalq leksikasini iste’mol doirasi chegaralanmagan leksika, dialektal leksika va professionallizmlarni iste’mol doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Boshqa manbalarda ham o‘zbek tili leksikasi iste’mol doirasi chegaralangan va chegaralanmagan deb ajratilgan (o‘zbek tili leksikasi 1981 yil, «Hozirgi o‘zbek adabiy tili», 1-tom, 1980) o‘zbek tili leksikasisini bunday guruhlashga A.Ishaev e’tiroz bildirib, shunday deydi, - «Cheksiz narsa umuman yo‘q,

professionallizmlar, jargon va orgolar ham aslida umumxalq leksikasining tarkibiy qismidir. Shu sababli umumxalq leksikasini qo‘llanishiga, turli xil funktsional xarakterga ko‘ra keng doirada va tor dirada qo‘llanuvchi leksika deb atagan ma’qul».

Buni quyidagi sxemada ko‘rsatish mumkin:

Umum o‘zbek tili leksikasi.

Keng doirada qo‘llanuvchi leksika	Tor dirada qo‘llanuvchi leksika
Adabiy til leksikasi	Professional terminalogik leksika
So‘zlashuv nutq leksikasi	Dialektal leksika
Yozma nutq leksikasi	Adabiy til va dialektlar uchun mushtarak leksika
Sof dialektal leksika	Jargon va argonlar leksikasi

Bu sxemadan ko‘rinadiki, tor doirada qo‘llaniladigan leksika ham adabiy til leksikasi bilan u yoki bu darajada aloqadordir. Yuqoridagilarga qaraganda qaysilarini D.L ga kiritish mumkin. Tabiiyki, sheva, dialektlarimizda qo‘llanadigan muhim professional so‘z va terminlar turli xil kasb-hunarga oid, dehqonchilik, chorvachilik to‘y-marosim, oziq-ovqat, kiyim-kechak singari xilma-xil sohalarga oid so‘zlar D.L ga kiritiladi. Adabiy tilda qo‘llanadigan professionalizmlar D.L ga kiritilmaydi. Lekin qo‘llanilishi noaniq sohalarga oid terminlar borki, ular na adabiy tildagi na D.L ga kiritilgan. Botanik olim M.M.Nabievning «Botanika atlas lug‘ati» bunga misoldir. Bu lug‘atdan 1110 dan ortiq o‘simlikning ilmiy va mahallaviy nomlari berilgan.

«O‘zbek tili izohli lug‘ati» ni (1981 yil) tuzuvchilar ham bu lug‘atni chetlab o‘tganligi natijasida o‘simlik nomlarining 800 dan ko‘prog‘i lug‘atga kiritilmay qolgan.

Shevashunos olimlar ham o'z ob'ekti nuqtai nazaridan fitonimlarni tadqiq qilsa, naqadar foydali bo'lar edi.

Shuning uchun D.L tuzuvchilar sohalar terminologiyasiga olhida e'tibor bilan qarashlari zarur. Masalan, o'zbek shevalarini taqiq qilgan E.Sheraliev qoqi, qoqi gul so'zining o'zi tekshirgan shevalarida 24 ta sinonimi mavjud ekanligini qayd qiladi. (A.K.D 1974, 24 bet) umuman izohli lug'atlarga va ikki tilli lug'atlarga kiritilgan adabiy tilda qo'llanishi noaniq bo'lgan so'zlar D.L ga kiritilishi shart. Nutqda qo'llanmaydigan arxeolog so'zlar bor. Ular ma'lum bir sheva vakillari nutqidagina uchrashi mumkin yoki iste'mol qilinmay balki faqat ularga tushunarli bo'lishi mumkin. Undan keyin tarixiy so'zlar bor. Ular esa tarixiy asarlarda stilistik maqsadlarda qo'llanishi mumkin. O'tmishdan sado beruvchi bunday so'zlarni ham D.L ga kiritish shartdir.

Jargon va argolar D.L ga kiritiladimi? - degan savol tug'iladi Darhaqiqat, jargon va argolarni dialektal so'zlardan farqlash lozim. Chunki dialektizmlar asrlar davomida yashashi, keng doirada qo'llanilishi mumkin. Jargonlar va argolar esa tor doirada qo'llanilib ma'lum bir odamlargagina tushunarlidir. D.N.Ushanov muharrirligida chop qilingan «Rus tilining izohli lug'ati» da jargon va argolar deb xukm chiqarilgan. Darhaqiqat ko'pgina adabiyotlardan jargon va argolar farqlanmay ishlatilgan. Ular dialektal so'zlar qatoriga kimasa ham izohlanishi va ta'riflanishi zarur.

Ularning yana bir xususiyati tez o'zgaruvchanligidadir. Masalan, Xorazmda qizlar yigitni avval kavaler deyishsa, hozir kadi deyishadi.

Prof.E.Begmatov o'zbek tilining umumiy lug'at tarkibini tashkil etuvchi so'zlar guruhi haqida fikr yuritar ekan, jargonlarni alohida guruh sifatida qayd etib, «jargonlar til materialini ma'lum sotsial guruhlar nutqni xarakterlovchi lug'aviy va grammatik material sifatida til lug'at sostavig kiradi va unda maxsus lug'aviy sektorni tashkil qiladi», - deb to'g'ri xulosa chiqargan. (1985, 15).

Jargon va argolar (fransuzcha sirli) badiiy asarlardagi qahramonlar tilining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi vosita sifatida stilistik maqsadlarda qo'llaniladi.

Jargon va argolarning ayrimlari o'zgarmaydi, dialektal leksika bilan aloqada bo'ladi. Bunday holatlarda ayrim argolar yoki jargonlar dialektizmga o'tib, dialektizmlar jargon yoki argo bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun ularni dialektal so'zlardan aniq farqlash lozim. Buning uchun dialektizm, jargonizm va argotizm terminlariga tushunib to'g'ri yondashish lozim. Ular qachonki, dialektizmlar qatoriga o'tsa D.L dan shubhasiz o'rin oladi. Tishunoslikda jargon va argolar maxsus tadqiq qilinmagan.

Ularni tadqiq qilib, maxsus lug'atlar tuzish lozim. Bu nafaqat tilshunoslar balki boshqa soha mutaxassislariga ham ariginal materiallar berishi mumkin. Tilshunos olim A.Ishaevning fikricha, leksikadan qilingan har bir ishda lug'at bo'lishi shart.

Obyekt ichida oz miqdorda jargon va argolar bo'lsa, lug'at ichida ilova tariqasida berish lozim, - deydi. Bolalar tiliga oid materiallarga ham shu yo'sinda yondoshmoq kerak. D.L tuzish uchun transkripsiyada yozib olingan tekstlar yaxshi foyda beradi.

Dialektologlarning ishlarida ana shunday tekstlardan parchalar berilgan. Ammo tekstlarning o'zlari nashr qilinmagan. Shevalardan transkripsiya bilan tekstlar yozib olish ishini E.D.Polevanov boshlab bergan. Bu tekstlar 1922 yildan boshlab turli

joylarda nashr qilingan (V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovning «O‘zbek dialektologiyasida»).

Qorabuloq va Mankent, Chimkent shevalaridan K.Yudaxin tekstlar yozib olib, 1927 yilda nashr qildirgan. Prof. K.Yudaxin keyinchalik Vodil, O‘sh, Iqon shevalaridan ham tekstlar yozib qoldirgan.

Prof. G‘.Olim 1930 yilda Janubiy Tojikiston va Afg‘onistondagi qatog‘on urug‘idan tekstlar yozib olib chop qildirgan. 1935 yilda Xiva, Urganch, Bulung‘ur, Margilon, Namangan shevalari bo‘yicha yozib olgan tekstlarini nashr qildirdi.

Ana shunday yozib olingan tekstlardan lug‘at turida unumli foydalansa bo‘ladi. D.L ning birlamchi asosiy ob‘ekti o‘zbek sheva, dialektlarida mavjud bo‘lgan dialektizmlardir. D.L tuzuvchilar uchun dialektal so‘zlarning izoglossalari va xususan ularning tarqalgan zonalarini birinchi darajali ahamiyatga ega. Shu sababli D.L da dialektizmlarning qayerda, qaysi shahar va qishloqda qo‘yinki, bironta shevalar guruxida uchrashi qayd etilishi shart.

Agar dialektal so‘zning ana shu tomonlari ma‘lum bo‘lmasa, ya‘ni pasportsiz bo‘lsa, dialektal lug‘atga kiritilmaydi. Shevadagi so‘zlarning dialektizm ekanini aniqlash uchun o‘sha so‘z mavjud bo‘lgan sheva yoki shevalar guruhi boshqa bironta sheva yoki guruh shevalarga yoxud adabiy tilga qiyoslanishi shart.

Dialektizmlarning bir qancha turlari mavjud:

1.Etnografik dialektizmlar.

2.Sof leksik dialektizmlar.

3.Leksik-semantik dialektizmlar (peshsha).

4.Leksik-derivatsion dialektizmlar (Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo‘lgan xilma-xil affikslar dialektal so‘zlarga yoki adabiy til shevalar uchun mushtarak so‘zlarga qo‘shilishi natijasida chngi tipdagi dialektizmlar vujudga kelishi **yurma’’l at** yoki) birinchi (dial + adabiy affiks).

5. Morfologik dialektizm. Leksik derivatsion dialektimlar so‘z o‘zagiga yangi so‘z yasovchi affikslarni qo‘shish orqali hosil qilsa, morfologik dialektizmlar forma yasovchi affikslar orqali vujudga keladi. (a’’ka’’n+la’’).

6. Leksik-fonetik dialektizmlar, ularni fonetik dialektizmlardan farqlash zarur. Masalan, yur-jur-fonetik dialektizm. Hayvan (mang, turl) ayvan-bu leksik-fonetik dialektizm.

7. frazeologik dialektizm. Yipsiz boylamoq kabi.

Lekin leksikografiyaga aloqador bo‘lmagan fonetik, morfologik va sintaktik dialektizmlar D.L ga kiritilmaydi.

Dialektizmlar.

Sof leksik dialektizm -----Leksik derivatsion dialektizm

Leksik-semantik dialektizm-----Morfologik dialektizm

Etnografik dialektizm-----Sintaktik dialektizm

Leksik-fonetik dialektizm-----Frazeologik dialektizm

O‘zbek shevalarida yangi va eski so‘zlar.

So‘z ifodalaydigan buyum va tushuncha hayotda yo‘qolishi bilan so‘zning o‘zi hamiste’ moldan chiqadi. Bu so‘zlar ham o‘z navbatida qadimgi so‘zlar va tarixiy so‘zlarga bo‘inadi.

Arxaizmlarning hozirgi sharoitda o'rnida ishlatiladigan boshqa so'zlar ham bo'lishi mumkin. Bu bir narsaning 2 ta nomi bir vaqtda ishlatiladi, ammo bittasi zamon nuqtai nazaridan faol biri passiv iste'molda bo'ladi. Eskirgan formasi o'rni bilan o'sha davrni ochib berish holatlarida qo'llanishi mumkin. M-n; g'azot-urush, sho'ro-q. sh. Raisi, tushan-quyon kabi.

Bunday so'zlarning lug'at birligi biror jihatdan eskirib o'z o'rnini boshqa bir lug'at birligiga bo'shatib bergan. Ba'zi hollarda ba'zi bir so'zlarning ma'nolari bir-biriga yaqinlashadi, yoki aynan bir xil bo'lib qoladi. Bunday hollarda ulardan biri iste'moldan chiqib ketadi. M-n; sho'ro-sovet, ma'ruza-doklad kabi so'zlar dublet shaklida qo'llanib kelindi. Bularning ichidan sho'ro, doklad so'zlari eskirib iste'moldan chiqdi. O'tmishda mavjud bo'lgan va hozirda ishlatilmay qolgan narsa va tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar istorizmlar tarixiy so'zlar yo'qolib ketgan narsa – voqea-hodisalarning va tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bularni hozirgi adabiy tilda shakldoshlari bo'lmagan. M-n; qozi, alam, ellikboshi, mirshab kabi. Bu so'zlar hozirgi paytda zaruriyat tufayli o'tmishga murojaat qilingandagina o'z o'rnida ishlatilishi mumkin. Yangi so'zlar jamiyatda, hayotda bo'layotgan o'zgarishlarni ifoda qiladi.

Bunday so'zlar har bir tilda o'z so'z boyligi asosida turli sohalarni ifodalovchi leksema sifatida paydo bo'ladi. Bu so'zlar ham ma'lum bir davr uchun yangilik hisoblanadi. M-n; 20-yillarda kolxoz, sovxoz, 60-yillarda kosmos, kosmonavt so'zlari yangilik sanalgan. 10-yillarda zavod, ishchi, poyez so'zlari yangilik sanalib keyinchalik eskirgan. Evfemizmlar eng qadimgi ibtidoiy odamlar tilida bo'lgan. Hozir ham ayrim qoldiqlari saqlanib qolgan. Tabu hodisasi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Evfemizm grekcha "yaxshi gapiraman" degan ma'noni bildiradi. M-n; ko'zi ko'rmaydigan odamga ko'r demasdan ko'zi ojiz deyish evfemizmdir. Tabu hodisasi etnografik atama bo'lib, irim-sirimlar asosida yuzaga keladi. M-n; ma'lum bir so'zni aytmaslik tabu deyiladi. M-n; tog'li xalqlar kechasi bo'ri nomini aytmaganlar. Qarluq shevalarida ilonni arg'amchi deyilishi, o'g'uz shevalarida g'assolni tozalovchi deyilishi tabu hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

- | | |
|--|-------------------------------------|
| 1. Arxaizmlar | 7. Dialektizm. Qatlam tushunchasi |
| 2. Neologizmlar | 8. Traditsion leksika |
| 3. Tabu va evfemizmlar | 9. Dialektizm. Dialektal lug'at. |
| 4. Arxaizm, Istorizm, dialektal lug'at | 10. Adabiy-dialektal lug'at Qiyosiy |

9-10 ma'ruza

Mavzu: O'zbek shevalari morfologiyasi.

R e j a:

1. Shevalarda ot va unga xos xususiyatlar.
2. Shevalarda sifat hamda uning xususiyatlari.
3. O'zbek shevalarida son va uning turlari. Numerativlar.
4. Shevalarda fe'l hamda uning xususiyatlari. Ravish va uning turlari.
5. Shevalarda ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar.
6. Modal so'zlar, undov so'zlar hamda shevalardagi ko'rinishlari.

O'zbek shevalari morfologiyasi ham adabiy tildagidek, mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi. Ushbu masalada o'zaro umumiyliklar bilan bir qatorda o'ziga xos tomonlar ham mavjud.

Bu holni kelishiklar, egalik va ko'plik kategoriyalar, fe'l zamonlari, fe'lning funksional shakllarini o'rganishda ko'rish mumkin.

I. Kelishik kategoriyasi.

1). Kelishik kategoriyasi ot yoki otlashgan so'zning boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik bog'lanishini ko'rsatadi, ularning gapdagi vazifasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili uchun ham, o'zbek xalq shevalari uchun ham umumiydir. O'zbek adabiy tilida 6 ta kelishik 5 ta grammatik ko'rsatkich mavjud. Chunki bosh kelishikning qo'shimchasi yo'q. O'zbek shevalarining ba'zilar bu sohada adabiy til bilan umumiylikka ega, ba'zilar esa farq qiladi. Qaratqich uyg'ur lahjasida asosan 4 ta kelishik bor. Bunda qaratqich va tushum kelishigi bir shaklda keladi. Samarqand, Buxoro, Qarshi, Urgut, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on shevalarida ham jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari aralash holda qo'llanadi. O'g'uz lahjasida ham asosan qaratqich va tushum kelishigi uchun bir forma qo'llanadi. Ayrim hollar bundan mustasno (Saning bilan boradi). Qanday holatda bo'lmaslik o'zbek shevalarida ham 6 ta kelishik mustaqil sanaladi. Chunki ularning ayrim hollarda bo'lsa ham ishlatilishi o'rinlari bor. Ular quyidagicha:

1. Bosh kelishik. Bu kelishikning qo'shimchasi yo'q. Bu kelishikdagi so'z gapda ega bo'lib keladi. Ba'zi o'rinda kesim yoki tarkibli kesimning bo'lagi bo'lib keladi. (Тағ‘апын hemi:she пыл bosын).

2. Qaratqich kelishigi shevalarda turlicha ko'rinishda keladi.

Нын, nin, ны, ni kabi. Qorluq shevalarida n', o'g'uz shevalarida ны, ni, va qadimiy shakli bo'lgan in, ын, Toshkent tip shevalarida, d', ты (ulard' i:shi yok) qipchoq shevalarida ko'proq нын, ning shaklida ishlatiladi.

Qaratqich kelishigi belgisiz ham qo'llanadi. Masalan, kalxoz rey's' kabi. Demak, qaratqich kelishigida kelgan otlar ham belgili ham belgisiz qo'llanadi. Bu holat barcha shevalarga xosdir. O'g'uz shevalarida bu kelishik 3 xil ko'rinishda ishlatiladi.

a) Qattiq-yumshoq ko'rinishga ega: nits // нын.

b) Tushum–kelishigi orqali ifodalanadi: ны // ni.

v) Qadimiy ko'rinishda ishlatiladi: ын // in deshanын, esh'k' kabi.

g) Belgisiz keladi: yigit yanina bardi.

3. Tushum kelishigi. Qarluq shevalarida n' bilan keladi. Ayrim hollarda d'/t' formasida qo'llanadi. Masalan: ta'd' tuman basырт' (urgut) kabi. Toshkent, Namangan, Shahrisabz, Urgut shevalarida -z', -m', -l', -p', -ch' kabi ko'rinishlari ham bor. Masalan, uzun chechch' неме кыласан? bizz', konull', etem' kabi.

O'g'uz shevalarida ын//in shakli ham uchraydi. Барын, чықарaversene. Qipchoq shevalarida ны / ni, dts, ты, ti, formalari ishlatiladi. -di/ды, ti / ты formalari undosh tugagan so'zlarga qo'shiladi.

4. Jo'nalish kelishigi. Qarluq shevalarida bu kelishikning ge/k, e, ke shakllari qo'llanadi. (Bekke berevuz d'y'd'le (tosh) so'zlarning oxiri jarangsiz tovush bilan tugaganda ke shakli qo'llanadi.

Qipchoq shevalarida bu kelishik -ga, -ge, -a, -e, -ke shaklida bo'ladi. Masalan: atamg'a mexsy alved'k kabi.

Qurama, Payariq, Ishtixon, Bulung'ur shevalarida kelishik olmoshlariga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda mag'an/sag'an, ug'an shaklida ishlatiladi.

Bu holat hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va qumiq tillariga ham xosdir. O'g'uz lahjasida bu kelishikning ge, ke, a, e, na/ne shakllari bor.

5. O'rin-payt kelishigi. Qarluq shevalarida de, ge, shaklida ishlatiladi. Toshkent va Samarqand tip shevalarda jo'nalish kelishigi ko'rinishida ge ishlatiladi. Masalan: bechele mektabge okuyd' kabi. Qipchoq shevalarida da, de, ta, te shaklida ishlatiladi.

O'g'uz shevalarida ham da/de, ta/te shaklida. (Qyishda oyde yatamyz).

6. Chiqish kelishigi. Qarluq shevalarida – dan, ten, (eshten byr eshem aldy) shaklida, qipchoq shevalarida dei, tei, nei, o'g'uz shevalarida dei, nai, nei shaklida ishlatiladi.

II. Egalik kategoriyasi.

Egalik kategoriyalari hosil qiluvchi qo'shimchalar o'zbek shevalarida bir qancha ko'rinishlarga ega. Farg'ona tip shevalarda egalik qo'shimchalarining ishlatilishi adabiy tilga mos keladi.

Otam, otang, otam, otamiz, otalari kabi.

Toshkent shevasida bir oz farq qiladi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik	Misol
1	-m	-vuz, vuze	Bag'uvuzde
2	-n'	-y'z, -ila'z	Uzумы'z
3	-s'	-s', -ler'	Meves'

So'z oxirida undosh bilan tugasa

Shaxs	Birlik	Ko'plik	Misol
1	-m	-uvuz, vuze, vze	Meyz'm
2	-n	-y'z, -'z, - 'yiz	Meyz'yz
3	-'	-', -ler'	meyzler'

N.Ratabyaning ma'lumot berishiga qaraganda, «Egalik affikslarining qipchoq shevalaridagi ko'rinishi naqadar ko'p bo'lib, ular 60 ga yaqindir. Ularning bunday bo'lishiga sabab, ohangdoshlik xususiyatining mavjudligidir» – deydi. O'g'uz shevalarida ham shunga o'xshashdir.

Qipchoq shevalarida.

O'zak-negiz		Shaxs	Unlilar bilan tugaganda		Undosh lar bilan tugaganda		Misol
Lablan magan	Qattiq	1	-m	-мыз	-ым	-ымыз	Soзымыз
		2	-n	-ңыз	-ын	-ыңыз	
		3	-sy	-лары	-ы	-лары	
Unlilar	Yumshoq	1	-m	-miz	-im	-imiz	Soзимиз
		2	-n	-ңыз	-in	-ingiz	
		3	-si	-лары	-un	-lari	

Lablan gan	Qattiq	1	-m	-мыз	-um	-umuz	Papkem
		2	-n	-nuz	-un	-unuz	
		3	-si	-лары	-un	-lari	
Unlilar	Yumshoq	1	-m	-muz	-um	-umuz	Ozum, bedem, sozun
		2	-n	-nuz	-un	-unuz	
		3	-su	-leri	-un	-leri	

O'g'uz shevasida

O'zak- negizlar	Shaxs	Unlilar bilan tugaganda. Birlik.	Undoshlar bilan tugaganda. Birlik.			Misollar
			Ko'plik		Ko'plik	
Qattiq	I	-m	-miz	-ым	-ымыз	Atam
	II	-n	-nyz	-ын	-ыныз	
	III	-si	-лары	-ы	-лары	
Yumshoq	I	-m	-miz	-im	-imiz	Anam
	II	-n	-in	-in	-ingiz	
	III	-si	-i	-i	-leri	

III. Ko'plik kate g o r i y a s i .

Otlarning ko'plik shakli turli xil affikslar bilan yasaladi. Lekin lar /ler, la/ le ko'rinishlari ko'plik hosil qilish uchun ko'proq xizmat qiladi. O'zbek shevalarining hammasida -lar//ler, -la//le affikslari ko'rinadi.

Qorluq shevalarida tovushlarning qattiq – yumshoqligiga qarab asosan – lar / ler affikslari ishlatiladi. Ba'zi o'rinlarda oxirgi -r tovushining kam titrashi ya'ni kuchsizlanishi natijasida ba'zan tushib ham qoladi. Lekin ko'plik affikslarining la / le shaklida qo'llanishi asosan o'g'uz shevalariga xosdir. Ba'zi j – lovchi shevalarda – ner / ter shakllari ham mavjud (jigitter, puzumnar).

Sh. Shoabdurahmonovning aytishicha, Toshkent shevasida – lug' (lug+ ') affiksi ham hurmat va ko'plik ifodalana ekan.

(Qoylug'n' beq'ievett' – qo'ylarini boqishyapti).

Tayanch tushunchalar:

1. Shevalarda Ot, Sifat, Son
2. Olmosh, Ravish, Fe'l
3. Grammatik kategoriya.

11-ma'ruza

Mavzu: O'zbek shevalarida so'z yasalishi.

Reja:

1. Affiksatsiya usulida so'z yasalishi.
2. Kompozitsiya usulida so'z yasalishi.
3. Y-lovchi(qorluq), J-lovchi(qipchoq), o'g'uz guruhi shevalarida so'z yasalishi hamda ularga xos xususiyatlar

O'zbek shevalari o'zlariga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar shevalari adabiy tildan va ayni vaqtda ularni o'zaro farqlaydi. Ma'lumki, o'zbek qatlam va shevagagina xos bo'lgan leksik qatlam mavjud.

Har bir til va dialektal leksik sostavi asosini hayotiy zarur tushunchalar ifodasini bilgan, yangi so'zlar yasash uchun baza bo'ladigan, davrlar mobaynida turg'un va yashovchan bo'lgan, shu til egalarining barchasi uchun umumiy bo'lgan so'zlar tashkil etadi. Bularga o'zbek tilida tabiat hodisalari (chaqmoq, yomg'ir, shamol, qor) mavjudotlar (suy, daryo, daraxt, tog', tosh) holat – harakat (yurmoq, uxlamoq, ichmoq) ni va shu kabilarni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bu so'zlar o'zbek tilida so'zlashuvchi kollektiv uchun umumiy bo'lganidek, shevalar uchun ham, adabiy til uchun bab-barobar umumiydir. Shunga ko'ra o'zbek tili leksik sostavining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va shuningdek, o'zbek adabiy tili leksik sostavining ham asosiy qismini tashkil etadi.

Adabiy til umumxalq tilining davrlar mobaynida ishlagan, sayqal berib silliqlangan yuqori formasidir. Shuning uchun adabiy tilning o'ziga xos ayrim leksik xususiyatlari shevalar uchun xos emas. Adabiy til lug'at sostavidagi tarixiy kolorit va badiylik uchun ishlatiladigan so'z va iboralar, ayrim qabul qilingan so'zlar, boshqa tillardan tarjima qilib olingan so'zlar (kalkalar), fanniy terminlar shevalarda asosan yo'q. Respublikamizda kundan-kunga rivojlanishi natijasida adabiy tilning kundalik va to'xtovsiz samarali ta'siri natijasida bunday so'z va terminlar shevalararo ba'zi fonetik uzgarishlar bilan paydo bo'lmoqda. Bularning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi, madaniy-oqartuv, davlat organlari va shu kabilarga xos so'z va terminlardir: t ' r e x // ad. orf, traktor, kelxoz //ad. orf. kolxoz, b'rged// b'rgede\\ad. orf. brigada, mosh'n // ad.orf. mashina. Ol'y Sevet // ad. orf. Oliy sovet.

O'zbek xalq shevalari sostavida (toshk.odosh // odog, yovuk (uzoq-yovuq), um-(umsinok). Xorazm. arna, yap, Namang. Yar kabi) adabiy tilda shaklan o'zgargan yoki adabiy til taraqqiyoti davomida undan allaqachonlar chiqib ketgan ayrim so'zlar mavjud. Bunday so'zlarni o'rganish til tarixi, shuningdek, adabiy til tarixi uchun muhimdir.

Bundan tashqari, o'zbek xalq shevalari leksik sostavida ayrim shevalarning (yoki lahjalarning) (Toshk.dj'lle (dj'lle qurmese)

Xorazm: xokk' // U ok U Farg. Farg. chumeg) r kabi o'zigagina xos bo'lgan so'zlar ham bor. Bu so'zlar faqat shu sheva yoki shu shevaga kiradigan shevalar guruhi (lahja) uchun umumiy bo'lib, boshqa shevalarda va shuningdek, adabiy tilda yo'q yoki shunday tushuncha anglatadigan boshqa so'z orqali ifodalanadi. Bunday so'zlarni to'plash va o'rganish sheva xususiyatlarini qayd etish uchun, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida boyitish uchun muhimdir.

O'zbek xaqk shevalarida o'zbek adabiy tilida bo'lmagan so'zlar ham uchraydi. Masalan, Shimoliy Xorazm shevalarida (prof. E.D. Polivanov tekshiruvchilarga ko'ra) yerqanat (// ad. tilda ko'rshapalak,) yavan// djaban) // ad. tilda qishloq), arish (//ad. tilda shoti-arava shotisi), tartanak (// tilda o'rgimchak) kabi qirq shevasida (dots. T.Z. Mirsoatov tekshiruvchiga ko'ra) adrasman (// ad. tilda isiriq), zambir (// ad. tilda asalari), shoka (// ad. tilda panshaxa, sota (// ad. tilda tayoq, hassa), berek (// ad. tilda chuchvara) kabi Mirishkor shevasida (prof. S. Ibrohimov tekshiruvchiga ko'ra) girdikn (// ad. tilda yakondozi, ko'rpacha) sarposh (ad. tilda tuvok), tekech (ad. tilda chekich), Jizzax shevasida (dots. X.G'ulomov tekshiruvchiga ko'ra) s'kkeverey (o'simlik nomi), eyr'chuka (o'tin ortish uchun ishlatiladigan asbob) va shu kabi. Bundan tashqari, o'zbek xalq shevalarida uchraydigan pese, qadoq, botmon, tosh, chaqirim kabi o'lchov nomlari hozirgi kunda faqat kekxa avlod tilidagina ishlatiladi. Lekin ularning ma'nosini yosh avlod tushunmaydi. Kekxa avlod ham ayrim so'zlarning ma'no xususiyatlarini unutib bormokda. Bunday arxaik so'zlarning sheva sostavida chiqib borish, ularning yangi so'zlar bilan almashinishi joylardagi moddiy-ma'naviy hayot sharoitlari, adabiy til ta'siri bilan bogliqdir.

Ayrim shevalarga xos dialektal so'zlarga nisbatan umumxalq so'zlari shevalar lug'at sostavida ko'p o'rin egallaydi. Adabiy tilning kundalik ta'siri natijasida bunday so'zlar sheva leksik sostavining passiv katlamiga o'tib bormokda.

Shevalarning leksik jihatdan o'zaro farqlar bir-biridan leksik jihatdan farqlaydigan xususiyatlar barcha so'z turkumlarida uchraydi. O'zbek shevalarda dialektal so'zlarning fonetik, morfologik, leksik- morfologik, semantik va leksik tiplari uchraydi. Shevalarni kuzatganda, ayni bu suzning u yoki bu shevada boshqacharoq talaffuz qilinishi fonetik (yoki morfologik) farqlardir: (Masalan, Toshk. soch//And. chech // ad.- orf. soch, Toshk. Z'rey // Xorazm. zriey // ad.-orf. Zirak. Toshk. qulog // Farg. kulak // ad.-orf. quloq: Tosh. chug'urchuq // And ch'g'ch'k // ad.-orf. chug'urchuq: Tosh. Oshsh' Farg. Osh // ad. oshni(ng) kabi) Leksik farqlar esa shevalararo bir predmetni yoki harakat-holatni boshqa-boshqa so'zlar orqali ifoda qilishdan iborat, masalan, Toshk. nervon-Farg. shat-Xorazm. eengi: Toshk. Ogr-Farg, kel – Xorazm. So'qi: Toshk. rovach – And. Chukr: Toshk. k'd'r-boshqa-boshqa so'zlar bo'lishiga qaramay, mazkur shevalararo birgina predmetni yoki ish-harakatni bildiradi va bu dialektal so'zlar to'liq munosabatdosh hisoblanadi. Ularning vazifasi va shakli bir xil. Bu munosabatdoshlik nisbiy bo'lishi ham mumkin. Masalan, Samarqand guruh shevalarida uchraydigan chekech (chekgich) so'ziga munosabatdoshdek tuyuladi. Lekin bu ikki so'z (nonpar-cheke'ch) ifodalangan predmet vazifa jihatidan o'xshash (mos) bo'lsa-da, shakl jihatdan farqli, boshqa-boshqa predmetlardir. Ko'rinadiki, nonpar va chek'ch so'zlarining munosabatdoshligi og'r-kel'-soki so'zlarining munosabatdoshligi farq qiladi. Keyinchalik nonpar so'zi yog'ochga sim qadab yasalgan predmetga anglata boshladi. Shundan keyingina nonpar va chek'ch so'zlari o'rtasidagi teng munosabatdoshlik vujudga keladi.

O'zbek shevalarida shunday so'zlar ham uchraydiki, bunday so'zlar shakl jihatidan o'xshash bo'lishlariga qaramay, shevalararo boshqa-boshqa ma'nolarda ishlatiladi. Masalan: Toshk. arava qismining nomi.

shot- Farg'.a) narvon, a) arava qismi buy- Toshk. ona yoki otaning onasi

Farg‘. ona Toshk. oy. Peshshe----- Toshk.pashsha (rus. muxa)
Farg‘. chivin (rus.komar), Tuxum ----- Toshk. tuxum (jl. meyek) qipchoq. urug‘.

O‘zbek shevalarining leksik sostavida traditsion leksika asosiy o‘rin egallaydi. O‘zbek xalq shevalari traditsion leksikasida shunday so‘zlarni uchratish mumkinki, ularning ma‘no xususiyatlariga ko‘ra paydo bo‘lish ildizlari juda qadimiy davrlarga–urug‘chilik davrlarga borib taqaladi. Bunday so‘zlarga, avvalo, qarindosh-urug‘ nomlarini bildiruvchi so‘zlar kiradi. Bu so‘zlar orasida ote // ad.-orf. ota, one// ad. ona, og‘‘l // ul //ad. -orf. o‘g‘il, q‘z // ad. -orf. qiz kabi umumdialekti xos so‘zlar, shuningdek shakl va ma‘no jihatdan farqli ayrim shevalargagina xos bulgan qarindosh-urug‘ nomini bildiruvchi so‘zlar ham bor. Masalan, And. ketete // kete (kette ote) - Toshk. buve // ad. -orf. buvi And eke-Toshk. oke // ad. -orf aka (qipchoq shevalarida ota, amaki ma‘nosida ishlatiladi) opa (qipchoq shevalarida ota, ona ma‘nosida ham ishlatiladi), bole //ad. -orf. bo‘la. (ayrim shevalarda amakivachcha ma‘nosida ham ishlatiladi). Toshk. opok‘, tog‘e, emek‘, emme, hole, kel‘n, kuyov, dj‘yen, keynene, keynete, keyn‘n‘. Tog‘a, amaki, amma, hola, kelin, kuyov, jiyan.

Yuqoridagidek , Qarindosh-urug bildiruvchi szlarni detallashtirish farqlash,ularni paydo bulishi xamda ma‘nolariga kura ayrim xususiyatlari (aka-ota, amaki ma‘nosida , opa-ona ma‘nosida kabi) shubhasiz odamlar orasidagi munosabatlarning qonkarindoshlik aloqalariga asoslangan davrlariga borib taqaladi va asl ma‘nosini saklagan xolda O‘zbek shevalarining leksik sostavi traditsion katlamida saklanib kelmokda.

O‘zbek shevalarining traditsion leksikasi xozirgi kunda asosan keksa avlod tilini xarakterlaydi. Hozirgi davrda o‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyotini ta‘minlaydigan omillarni eng avvalo ichki va tashqi manbalar sifatida ikki yirik guruhga bo‘lish mumkin.

Ichki manbalarga birinchi navbatda so‘z yasalishi kiradi. Bundan tashqari so‘zlarning ma‘nolarida yuz beradigan turli-tuman o‘zgarishlar (ma‘no torayishi, kengayishi) ham o‘zbek shevalari leksik taraqqiyotining ichki manbaiga kiradi.

O‘zbek shevalarining taraqqiyot tarixi o‘zbek tilining, o‘zbek xalqining taraqqiyot tarixi bilan bog‘liqdir. O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyotiga manba bo‘lgan va bo‘la oladigan omillar juda ko‘p. Ularning ayrimlari uzoq qadimiy tarixdan boshlanadi hamda o‘zbek shevalarining shakllanish va tarixan tashkil topish jarayoniga borib taqaladi. Sinxron nuqtai nazardan qaraganda o‘zbek shevalari tarqalgan ayrim regionlarda qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq kabi xalqlarning joylashganligi va ularning turli o‘zbek shevalari bilan munosabati masalasi ham bor. Bularni aniqlash uchun bir necha faktorlarni hisobga olish mumkin.

1. Hududiy faktor: bunda geografik muhiotning roli, ishlab chiqarish usuli, kasb-kori shu hudud bo‘ylab etnik va til xususiyatiga ko‘ra ma‘lum birlikni tashkil eta olishi yoki eta olmasligi aniq hudud bilan bog‘liqligining tabiati hisobga olinadi.

2. Tarixiy faktor: o‘rganilayotgan sheva vakillarining qachondan buyon shu yerda yashayotganligi

3. Etnogenetik faktor: sheva vakillarining shajarasi

4. Til faktori: bunda qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan qo‘shni munosabatda yashashi

5. Til yoki sheva holatining tavsifi

6. Sheva tili strukturaviy bo'limlarining tasnifi (Grammatik qurilishi, lug'at tarkibi)

7. Sheva yoki dialektning adabiy tilga munosabati

8. O'rganilganlik faktori

O'zbek shevalari leksikasining taraqqiyot bosqichlarini va uning manbalarini ilmiy jihatdan to'g'ri yoritishda ham hisobga olinishi zarur bo'lgan bunday omillar anchagina, biroq faqat o'zbek dialektologiyasi uchun emas, balki o'zbek tili tarixi, o'zbek xalqi tarixi etnografiyasi uchun ham nihoyat muhim bo'lgan bunday etnogenetik, etnolingvistik, sof lingvistik va ekstrolingvistik omillar hali atroflicha o'rganilmagan.

M-n; biz etnik jarayonlarning konsolidatsiyasi nisbatan tezlashayotgan hozirgi davrda o'zbek xalqi etnogeneziga singib ketgan yoki endi singa boshlagan ayrim yirik urug'-qabilalarning birortasidan ularga xos bo'lgan qancha so'zning biror yirik dialekt yoki lahjaga, jonli o'zbek so'zlashuv tiliga xususan adabiy tilga o'tganligini aniq bilmaymiz. Bunday ishlarning bajarilishi fan uchun juda zarur.

Xorazm o'zbeklarining tili haqida ilk ma'lumotni Venger olimi G. Vamberi o'zining "Cagataische Sprachstudien" nomli asarida yozib (Leypsig 1867) chig'atoy tili (eski o'zbek tili) grammatikasining ocherkini bergan.

Vamberi o'zbek tili shevalarini 3ta dialektga bo'ladi. 1. Qo'qon 2. Buxoro 3. Xiva dialektlari. Qo'qon va Buxoro shevalarining xususiyatlari haqida u hech qanday ma'lumot bermaydi. Lekin Xiva dialekti haqida ancha keng to'xtalgan va quyidagilarni yozgan. "Shaharlarda sartlar yashaydi. O'zbeklar esa qishloq joylarda turadilar. Shaharliklar tili qishloqdagi o'zbeklarning tilidan farq qiladi, bu farqlar quyidagilardir:

1. Shaharliklarning tilida arab va fors tillaridan kirgan so'z va iboralar qishloq o'zbeklarininkiga qaraganda ko'proq;
2. Urg'uni ishlatishda keskin farq seziladi;
3. Qishloq aholisi tovushlarni qttiq aytadi, shaharliklar yumshoqroq talaffuz qiladilar (k-g', k-g tovushlari haqida)
4. Qishloq aholisi k tovushini normal talaffuz qiladi, Xivada esa gtarzida aytiladi."

Xrestomatiya materiallari ichida berilgan namunalar ham (maqollar) bor. Lekin bu maqollar adabiy lashtirilib berilgan. Shuning uchun bu materiallarda turli tipdagi sheva xususiyatlari o'z aksini topmagan. Masalan; савлыкым- байлыкым, хасталыкым-маклайкаралыкым kabi maqolllar berilgan.

Akad. A. N. Samoylovich 1908 yilda Xivada bo'lgan. U Xorazm shevalarini maxsus o'rganmasa ham "Turk tillarining tasnifiga ba'zi bir qo'shimchalar" (Nekotoriye dopolneniya klassifikatsii turetskix yazikov Petrograd 1922) nomli asarida o'zbek tilining boshqa shevalari bilan bir qatorda Xorazm aholisining tili haqida ham fikr yuritadi. Uning tasnifiga ko'ra turkiy tillarning V guruhiga kiradigan Xorazm shevalari o'zlarining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha "o'rta, qipchoq-turkman" guruhini tashkil qiladi. UXiva shevasini qaysi xususiyatlariga ko'ra turkman tiliga yaqin ekanligini aniq ko'rsatib bermagan.

Prof. I. I. Zarubin Turkiston o'lkasining xalqlari to'g'risida fikr yuritib, hududga tarqalgan o'zbek shevalarining umumiy tasnifini beradi. U o'zbek

shevalarining til xususiyatlariga to'xtamaydi, balki Xiva, Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Samarqand shevalari deb yirik shaharlar nomini keltirgan xolos.

Prof. G'. O. Yunusov ham 1936 yilda "O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba" nomli monografiya yozib, barcha o'zbek shevalarini 3 ta katta guruhga bo'lib, ilmiy asoslab bergan.

Tayanch tushuncha:

1. O'zbek-qipchoq shevalari
2. Turk-barlos shevalari yoki chig'atoy shevalari
3. Xiva-Urganch shevalari
1. Ekstralingvistik faktor
2. Etnogenetik faktor

3. Tarixiy faktor, til faktori
4. O'rganilganlik faktori
5. Leksikologiya termini.
6. Dialektizm.
7. Traditsion leksika.
8. Qatlam tushunchasi.

12-ma'ruza

Mavzu: Shevalar sintaksisi.

Reja:

1. Sintaksis va shevalar sintaksisi.
2. Dialektal so'z birikmasi.
3. Dialektal sodda gaplar.
4. Gap bo'laklari va ularning dialektal xususiyatlari.
5. Shevalarda qo'shma gap, o'zga gap va dialog.

O'zbek tilining lahjalariga oid sheva yoki shevalar guruhining yoki barcha shevalarning leksik boyligini qamrab olgan lug'atlar o'zbek xalqi so'z boyligining yagona so'z boyligidir. D.l. hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek tili tarixi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun shuningdek adabiy til va sheva leksikasining o'zaro munosabatalini yoritish shevalardagi ayrim so'zlarni adabiy til lug'atlariga kiritish adabiy tilda badiiy asarlarda keng qo'llanayotgan dublet so'zlarning dominantlarini belgilash uchun yordam beradi. D.l.lar o'zbek shevalari atlasini tuzish uchun ham foydalidir. Chunki D.l.larda dialektizmlarning qaysi hududda uchrashi ma'lum darajada aks etadi.

Shevalardagi ba'zi so'zlarning etimologiyasini ham aniqlashga yordam beradi. D.l.da o'zbek tilining izohli, ikki tilli va terminologik lug'atlari uchun ko'p leksik materiallar bor. Bu xildagi adabiy tilga oid lug'atlarda ba'zi bosh so'zlardan keyin qo'yiladigan dial shartli belgisi o'sha so'zning mahalliy shevalarga oid dialektizm ekanligini bildiradi.

Umumturkiy tillar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-nazariy va qiyosiy tadqiqotlarni tuzish rejalashtirilayotgan umumturkiy tillar shevalarning D.l.ni o'zbek shevalari to'liq lug'atisiz tasavvur qilish qiyin. D.l. o'zbek xalq maqol va matallarining qaysi territoriyada, qaysi sheva dialekt vakillari tomonidan yaratilganligini belgilashga ulardagi ba'zi so'zlar anglatgan ma'nolarni to'g'ri aniqlab olishga yordam beradi.

D.l. xalq og'zaki ijodini o'rganuvchilar, folklor asarlarini lug'atini tuzuvchilar uchun ham ahamiyatga ega. Bundan tashqari maktablarda o'quvchilar yozuvidagi

dialektal xatolarni bartaraf qilish uchun ham foydalidir. Bu borasida N. Ahmedov va O. Botirovlarning sheva materiallari asosida yozilgan nomzodlik ishlari fikrimizning dalilidir. Shevalarlug‘atida xalq tarixining ko‘p asrlik mahalliy ko‘rinishlari o‘z aksini topadi. Shu jihati bilan ham D.l.lar tarixchilar, etnograflar, arxeologlar va adabiyotshunoslar uchun ham qimmatlidir. D.l. lar botanik, zoolog q.q. xodimlari va barcha kasbdagi odamlar uchun ham zarur. Chunki unda kasb – hunarga oid so‘zlar ham mavjud. Hozirgi paytda kitob, radio, vaqtli matbuot, teatrning kundalik ta’siri adabiy til bilan shevalar o‘rtasidagi farqni kamaytirib bormoqda. Bu holat arxaik hamda etnografik dialektizmlarning kamayishiga olib keladi. “Leksikologiyaga oid tadqiqotlar unutilishi mumkin, biroq yaxshi lug‘atlar hech qachon unutilmaydi, ular abadiy qoladi deydi prof. F. Sorokoletov. Oktabr voqealaridan keyin V. Nalivkin va Nalivkinalarning Namangan shevasi bo‘yicha lug‘ati yaratilgan.

1972 yildan boshlab A. Kononov va A. Aliyevlar bu lug‘atni ilmiy yozuvda berilmagani uchun lug‘at deb hisoblamaganlar. 1899 yilda N. Pantusovning “Bir chol va bir savdogar qizi haqida Marg‘ilin ertagi” asari bosilib chiqqan va o‘sha davr Marg‘ilin shevasi bo‘yicha ma‘lumot beradi. 1988 yilgacha o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha 9 ta doktorlik, 6 ta nomzodlik ishlari himoya qilingan. Shulardan 25 tasida D.l. mavjud. O‘zbek shevashunosligi tarixida 1971 yilda 5 ming so‘zdan iborat 1 tomlik o‘zbek xalq shevalari lug‘ati nashr qilingan. Shundan keyin ham qilingan ko‘pgina ishlarda dialektal lug‘atlar mavjud.

O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi Xorazm viloyatida keng tarqalgandir. Bundan tashqari Xorazm vohasida boshqa sheva vakillari ham yashaydilar. Jumladan, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tatarlar ham istiqomat qiladi. Xorazm viloyatining Yangibozor, Gurlan avvalgi Mang‘it tumanlari tili qipchoq lahjasiga qolgan tumanlari aholisi tili o‘g‘uz lahjasiga mansubdir. Bundan tashqari o‘g‘uz lahjasi vakillari Toshhovuz shahri va r-nida Ko‘hna Urganch tumani markazida Qoraqalpog‘istonning Beruniy, To‘rtko‘l, Qozog‘istonning Chimkent, Turkiston hududida yashovchi o‘zbeklarning barchasi o‘g‘uz lahjasida gaplashadilar. Bundan tashqari Buxoro vil.ining Olot, Qorako‘l tumanlarida ham o‘g‘uzlar yashaydilar; Samarqand vil.ining Forish r-niga tarqalgan o‘zbek shevalarida ham o‘g‘uz shevasida gapiruvchi aholi yashashini Sh. Egamberdiyeva qayd qilib o‘tgan.

Yuqorida qayd qilingan tumanlardan tashqari Vobkent, Romitan va Buxoro tumanlarining ayrim qishloqlarida ham o‘g‘uzlar yashashini prof. M. Mirzayev o‘z ishida qayd qilib o‘tgan. Bu tipdagi o‘g‘uz shevalari ko‘p jihatdan Xorazm o‘g‘uz shevalariga yaqin turadi. Vil.ga tarqalgan o‘g‘uz shevalari Buxoro dialektining ta’sirida o‘g‘uz shevalariga xos bo‘lmagan anchagina fonetik-morfologik xususiyatlarini o‘zlashtirganlar. Tarixiy etnografik adabiyotlarda va lingvistik tekshirishlarda genetic jihatdan o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qarluq, o‘g‘uz, qipchoq etnik guruhlarining hozirgi O‘zbekiston hududiga tarqalish tarixi ularning o‘zaro munosabatlari nihoyat darajada murakkab bo‘lganligini bildiradi.

Lingvistik jihatdan qaraganda o‘g‘uz etnik guruhiga aloqador bo‘lgan aholi asosan Xorazm vohasida va mayday guruhchalarga bo‘lingan holda Sirdaryoning o‘ng qirg‘oqlarida hozirgi Chimkent vil.ining hududida yashaydi. Bu aholining tili o‘g‘uz tillariga xos bo‘lgan juda qadimgi xususiyatlarini hamon saqlab kelmoqda. Tarixan qipchoq shevasiga aloqador Bog‘ot tumanining Xitoy qishloq aholisi Orol bo‘ylaridan

ko'chib kelganlariga 400 yil bo'lishiga qaramasdan o'z til xususiyatlarini saqlab qolganlar. M. Qoshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra, Qarluq o'g'uz shaharlaridan biri bo'lgan. Hozir ham bu qishloq o'g'uzcha gapiradi. Xorazm o'zbeklarining tili haqida ayniqsa o'g'uz shevasi haqida Venger olimi G. Vamberi "Chig'atoy tili xrestomatiyasi" asarida to'la ma'lumot beradi. Xrestomatiyada hikmatli so'zlar, maqollar ko'p uchraydi. Lekin ular adabiy tilda berilganligi uchun ilmiyligi pasaygan. Akad. A. N. Samoylovich "Turk tillarining tasnifiga ba'zi bir qo'shimchalar" nomli asarida Xorazm shevalarini turkiy tillarning 5-guruhiga kiritgan. 1936 yilda prof. G. Olim o'zbek shevalarini 3 guruhga ajratgan.

1. O'zbek-qipchoq shevalari
2. Turk-barlos shevalari
3. Urganch-Xiva shevalari

Prof. F. Abdullayev o'g'uz lahjasini 2 guruhga ajratgan.

1. Urganch-Xiva shevalari
2. Xazorasp-Yangiariq shevalari

O'g'uz shevalari haqida Vamberi Ozarbayjonliklarning ta'siri deb tushuntiradi. Ba'zi o'rinlarda o'z tasnifida Ye. D. Polivanov o'g'uz shevalarini turkmanlashgan, qipchoq shevalarini qozoqlashgan deb tushuntiradi. Prof. M. Melioranskiy jonli shevalarni o'rganish eng qadimgi yodnomalarni ham to'g'ri o'qishga va uqishga juda katta yordam beradi va bu borada bebaho material yetkazib beruvchi nodir manbadir deb yozadi.

Tayanch tushuncha:

1. Qozoqlashgan shevalar
2. Turkmanlashgan shevalar
3. Aralash tip shevalar
4. Qipchoq-o'g'uz shevalari

13-ma'ruza

Mavzu: Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari

1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga birlashuvchi dialektlar
2. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari
3. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining grammatik xususiyatlari

Mavzuning qisqacha bayoni:

O'zbek tili uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq tili gruppasiga kiradi. Qarluq tili tarixiy jihatdan O'rta Osiyo gruppasiga, ayniqsa, g'arbiy xun shahobchasiga kirgan tillar bilan oiladoshdir. XI asrdan keyingi o'rta Osiyo turkiy tillari, shu jumladan, o'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi ma'lum davrlarni belgilash mumkin. Til tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri - davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'dosh bo'lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'liqdir. Tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki, tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil prinsipga amal qilinadi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Koshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham XIX asrgacha bu tillarning mukammal tasnifi yaratilmagan edi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bulardan ayrimlarini namuna uchun keltiramiz.

I. V. V. Radlov turkiy tillari to'rt guruhga bo'ladi:

1. Sharqiy guruh (Sibir tatarlari tili).
2. G'arbiy guruh (qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar tillari).
3. O'rta Osiyo guruhi (o'zbek, uyg'ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim tatar tillari).

II. A.N. Samoylovich, Radlov va Korsh tasniflarini birlashtirib oladi.

1. Janubiy-sharqiy yoki chig'atoy guruhiga hozirgi uyg'ur, o'zbek tillarini va shevalarini kiritadi.

2. Janubiy-g'arbiy yoki o'g'uz guruhiga o'zbek tilining o'g'uz shevalarini kiritadi.

III. S. E. Malov o'z tasnifida yangi turk tillari guruhiga o'zbek, chig'atoy tillarini kiritadi.

IV. N.A. Baskakov tasnifida turk tillarining g'arbiy xun tarmog'i qarluq tillari guruhiga kiritiladi; a) qarluq — xorazm guruhi. Bunga qoraxoniylar - xorazm tili (Ahmad Yassaviy asarlari), hozirgi uyg'ur tili va shevalari kiritilgan (bunda ayrim lingvistik belgilar hisobga olingan).

V. V.A. Bogoroditskiy (1921) tasnifida o'rta Osiyo guruhiga o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillari kiritilgan.

Ularning ba'zilar turkiy tillarni hududiy - jo'g'rofiy jihatdan tasnif qilsa, boqshalari tashsharning bir xil lingvistik beyagisiga asoslanadi. Uchinchilarida turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan etarlicha bog'lanmaydi. Shular ichida N.A. Baskov tasnifi ancha mukammal tuyuladi.

A.M. Sherbak tasnifi (1953):

1. Eng kadimgi davr o'zbek adabiy tili (X - XII asrlar).
2. O'rta davr o'zbek adabiy tili (XII-XIII asrlar).
3. Yangi davr o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar).
4. Eng yangi davr o'zbek adabiy tili (XIX asr oxiri va XX asr boshlari).

Olim Usmon tarxi (1957):

14-ma'ruza

Mavzu: Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari

1. Qipchoq lahjasiga birlashuvchi dialektlar
2. Qipchoq lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari
3. Qipchoq lahjasining grammatik xususiyatlari

Mavzuning qisqacha bayoni:

Xorazm o'zbeklarining tili haqida ilk ma'lumotni Venger olimi G. Vamberi o'zining "Cagataische Sprachstudien" nomli asarida yozib (Leypsig 1867) chig'atoy tili (eski o'zbek tili) grammatikasining ocherkini bergan.

Vamberi o'zbek tili shevalarini 3ta dialektga bo'ladi. 1. Qo'qon 2. Buxoro 3. Xiva dialektlari. Qo'qon va Buxoro shevalarining xususiyatlari haqida u hech qanday

ma'lumot bermaydi. Lekin Xiva dialekti haqida ancha keng to'xtalgan va quyidagilarni yozgan. "Shaharlarda sartlar yashaydi. O'zbeklar esa qishloq joylarda turadilar. Shaharliklar tili qishloqdagi o'zbeklarning tilidan farq qiladi, bu farqlar quyidagilardir:

5. Shaharliklarning tilida arab va fors tillaridan kirgan so'z va iboralar qishloq o'zbeklarininkiga qaraganda ko'proq;
6. Urg'uni ishlatishda keskin farq seziladi;
7. Qishloq aholisi tovushlarni qattiq aytadi, shaharliklar yumshoqroq talaffuz qiladilar (k-g', k-g tovushlari haqida)
8. Qishloq aholisi k tovushini normal talaffuz qiladi, Xivada esa g tarzida aytiladi."

Xrestomatiya materiallari ichida berilgan namunalar ham (maqollar) bor. Lekin bu maqollar adabiylashtirilib berilgan. Shuning uchun bu materiallarda turli tipdagi sheva xususiyatlari o'z aksini topmagan. Masalan; савлыкым- байлыкым, хасталыкым-маклайкаралыкым kabi maqolllar berilgan.

Akad. A. N. Samoylovich 1908 yilda Xivada bo'lgan. U Xorazm shevalarini maxsus o'rganmasa ham "Turk tillarining tasnifiga ba'zi bir qo'shimchalar" (Nekotoriye dopolneniya klassifikatsii turetskix yazikov Petrograd 1922) nomli asarida o'zbek tilining boshqa shevalari bilan bir qatorda Xorazm aholisining tili haqida ham fikr yuritadi. Uning tasnifiga ko'ra turkiy tillarning V gruppasiga kiradigan Xorazm shevalari o'zlarining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha "o'rta, qipchoq-turkman" gruppasini tashkil qiladi. UXiva shevasini qaysi xususiyatlariga ko'ra turkman tiliga yaqin ekanligini aniq ko'rsatib bermagan.

Prof. I. I. Zarubin Turkiston o'lkasining xalqlari to'g'risida fikr yuritib, hududga tarqalgan o'zbek shevalarining umumiy tasnifini beradi. U o'zbek shevalarining til xususiyatlariga to'xtamaydi, balki Xiva, Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Samarqand shevalari deb yirik shaharlar nomini keltirgan xolos.

Prof. G'. O. Yunusov ham 1936 yilda "O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba" nomli monografiya yozib, barcha o'zbek shevalarini 3 ta katta guruhga bo'lib, ilmiy asoslab bergan.

4. O'zbek-qipchoq shevalari
5. Turk-barlos shevalari yoki chig'atoy shevalari
6. Xiva-Urganch shevalari

G. O. Yunusov ba'zi o'rinlarda Xiva-Urganch shevasini qarluq guruhiga ham kiritgan. Lekin nima uchun qarluq lahjasiga ham kiritganligini bayon qilmagan. Ozbek shevalarini chuqur ilmiy asosda o'rganish 1920 yillardan boshlandi. Bu ishni Ye. D. Polivanov o'zbek shevalarni o'rganishni Toshkent shevalaridan boshladi. Xorazm shevalarini o'rganishni "Shovot r-n Qiyot-qo'ng'iroq qishlog'I shevasi" nomli asarini yozishdan boshladi. Bu asarida Xorazm shevalarinin 3 guruhga bo'ladi.

1. Janubiy Xorazm guruhi
2. O'rta Xorazm guruhi
3. Shimoliy Xorazm guruhi

60-yillar ichida F. Abdullayevning "Xorazm shevalari fonetikasi A. Ishayevning "O'zbek tili mang'it shevasining fonetik xususiyatlari", Yu. Jumanazarovning "Xazorasp shevasining morfologik xususiyatlari", E. O'rozovning "Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari" kabi ishlari yuzaga keldi

O'zbek shevashunosligi bo'yicha Ye. D. Polivanov, A. K. Baravkov, K.K.Yudahin, V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonovlarning tadqiqotlarini inobatga olgan holda F. Abdullayev Xorazm shevalarini 2 ta guruhga ajratadi.

1. O'g'uz shevasi
2. Qipchoq shevasi

Ularni mayda guruhchalarga ajratadi. Qipchoq lahjasi: a) j-lashgan shevalar, b) y-lashgan shevalar, d) a-lshgan shevalar, e) aralash tip shevalar. O'g'uz lahjasi: a) Urganch-Xiva shevalari, b) Xazorasp-Yangiariq shevalari, d) aralash tip shevalar.

Tayanch tushuncha:

1. Sheva,
2. Dialekt,
3. Tasnif

15-ma'ruza

Mavzu: O'g'uz lahjasining muhim xususiyatlari

1. O'g'uz lahjasiga birlashuvchi dialektlar
2. O'g'uz lahjasining fonetik va leksik xususiyatlari
3. O'g'uz lahjasining grammatik xususiyatlari

Mavzuning qisqacha bayoni:

O'zbek tilining o'g'uz lahjasi Xorazm viloyatida keng tarqalgandir. Bundan tashqari Xorazm vohasida boshqa sheva vakillari ham yashaydilar. Jumladan, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tatarlar ham istiqomat qiladi. Xorazm viloyatining Yangibozor, Gurlan avvalgi Mang'it tumanlari tili qipchoq lahjasiga qolgan tumanlari aholisi tili o'g'uz lahjasiga mansubdir. Bundan tashqari o'g'uz lahjasi vakillari Toshhovuz shahri va r-nida Ko'hna Urganch tumani markazida Qoraqalpog'istonning Beruniy, To'rtko'l, Qozog'istonning Chimkent, Turkiston hududida yashovchi o'zbeklarning barchasi o'g'uz lahjasida gaplashadilar. Bundan tashqari Buxoro vil.ining Olot, Qorako'l tumanlarida ham o'g'uzlar yashaydilar; Samarqand vil.ining Forish r-niga tarqalgan o'zbek shevalarida ham o'g'uz shevasida gapiruvchi aholi yashashini Sh. Egamberdiyeva qayd qilib o'tgan.

Yuqorida qayd qilingan tumanlardan tashqari Vobkent, Romitan va Buxoro tumanlarining ayrim qishloqlarida ham o'g'uzlar yashashini prof. M. Mirzayev o'z ishida qayd qilib o'tgan. Bu tipdagi o'g'uz shevalari ko'p jihatdan Xorazm o'g'uz shevalariga yaqin turadi. Vil.ga tarqalgan o'g'uz shevalari Buxoro dialektining ta'sirida o'g'uz shevalariga xos bo'lmagan anchagina fonetik-morfologik xususiyatlarini o'zlashtirganlar. Tarixiy etnografik adabiyotlarda va lingvistik tekshirishlarda genetic jihatdan o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qarluq, o'g'uz, qipchoq etnik guruhlarining hozirgi O'zbekiston hududiga tarqalish tarixi ularning o'zaro munosabatlari nihoyat darajada murakkab bo'lganligini bildiradi.

Lingvistik jihatdan qaraganda o'g'uz etnik guruhiga aloqador bo'lgan aholi asosan Xorazm vohasida va mayday guruhchalarga bo'lingan holda Sirdaryoning o'ng qirg'oqlarida hozirgi Chimkent vil.ining hududida yashaydi. Bu aholining tili o'g'uz

tillariga xos bo'lgan juda qadimgi xususiyatlarini hamon saqlab kelmoqda. Tarixan qipchoq shevasiga aloqador Bog'ot tumanining Xitoy qishloq aholisi Orol bo'ylaridan ko'chib kelganlariga 400 yil bo'lishiga qaramasdan o'z til xususiyatlarini saqlab qolganlar. M. Qoshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra, Qarnoq o'g'uz shaharlaridan biri bo'lgan. Hozir ham bu qishloq o'g'uzcha gapiradi. Xorazm o'zbeklarining tili haqida ayniqsa o'g'uz shevasi haqida Venger olimi G. Vamberi "Chig'atoy tili xrestomatiyasi" asarida to'la ma'lumot beradi. Xrestomatiyada hikmatli so'zlar, maqollar ko'p uchraydi. Lekin ular adabiy tilda berilganligi uchun ilmiyligi pasaygan. Akad. A. N. Samoylovich "Turk tillarining tasnifiga ba'zi bir qo'shimchalar" nomli asarida Xorazm shevalarini turkey tillarning 5-guruhiga kiritgan. 1936 yilda prof. G'. Olim o'zbek shevalarini 3 guruhga ajratgan.

4. O'zbek-qipchoq shevalari
5. Turk-barlos shevalari
6. Urganch-Xiva shevalari

Prof. F. Abdullayev o'g'uz lahjasini 2 guruhga ajratgan.

5. Urganch-Xiva shevalari
6. Xazorasp-Yangiariq shevalari

O'g'uz shevalari haqida Vamberi Ozarbayjonliklarning ta'siri deb tushuntiradi. Ba'zi o'rinlarda o'z tasnifida Ye. D. Polivanov o'g'uz shevalarini turkmanlashgan, qipchoq shevalarini qozoqlashgan deb tushuntiradi. Prof. M. Melioranskiy jonli shevalarni o'rganish eng qadimgi yodnomalarni ham to'g'ri o'qishga va uqishga juda katta yordam beradi va bu borada bebaho material yetkazib beruvchi nodir manbadir deb yozadi.

Tayanch tushuncha:

1. Qozoqlashgan shevalar
2. Turkmanlashgan shevalar
7. Aralash tip shevalar
8. Qipchoq-o'g'uz shevalari

16-17 ma'ruza

Mavzu: Areal lingvistika

Reja:

1. O'zbek dialektologik atlasini tuzish va uning xususiyatlari.
2. O'zbek shevalari tizimining ikki xil tashkili: struktur hamda zonal.
3. O'zbek tilining qorluq, qipchoq va o'g'uz lahjalarining adabiy tilga munosabati.
4. O'zbek shevalarining atlaslarini tuzish

Lingvistik geografiya / lingvo-geografiya /- tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u ma'lum territoriyada tarqalgan til hodisalari tovushlar, grammatik formalar, so'zlar/ni aniqlaydi, ularning o'sha joy /makon/ ga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi, territorial til

xususiyatlarini xalq tarixi, bilan aloqador qiyoslab, tushuntirib, kartalar orqali ifodalaydi.

Lingvistik geografiya ham territorial dialektlarni o'rganadi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri ko'rgazmaliligi bo'lib, unda ma'lum til hodisalarining o'rni va tarqalish chegarasi kartalar yoki atlas vositasida aniq belgilab beriladi. Karta ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo'llarini, konkret dialektlarning paydo bo'lishi va hozir mavjudligining sabablarini, shuningdek, dialekt xususiyatlarining milliy tilga bo'lgan munosabati va o'zaro aloqasi masalalarini tushuntirib berishdir. Nihoyat, lingvistik geografiya bir qator umumlingvistik problemalarni ya'ni tilda lahja dialekt, shevalar mavjud bo'lgan, ularning xususiyatlari va bu xususiyatlar nimalar bilan chegaralanishi, dialektlarning umummilliy tilga bo'lgan munosabatida shu kabi masalalarni hal qilmog'i kerak.

Lingvistik geografiya XX asrning o'rtalarida dialektologik kuzatishlar rivojlangan, dialektologlar, dialektlar va ularning xususiyatlari to'g'risida yetarli faktik materiallar to'plangan joylarda paydo bo'ldi. Lingvistik geografiya yuzasidan olib borilgan birinchi tajribalar – tilni bu yangi metod orqali o'rganish qanchalik (istiqbolli) ekanini ko'rsatdi. Lingvistik geografiya tilshunos olimlarga yangi faktlar berdi. O'z davrida turg'un bo'lib qolgan, masalan, dialektning mohiyati, shevalar orasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteri haqidagi tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha hal qilishga da'vat etdi.

Tilshunoslikdagi bu yangi yo'nalish lingvistik geografiyaning rivojida, dialektologik fikrning keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan Yevropa lingvo-geograflarining belgili xizmatlari bor. Lingvistik geografiyaning asoschilari: Fransiyada Jan Jileron, Germaniyada Georg Venker, F. Frede, P. Peyerler, Rossiyada esa I. I. Sreznevskiy kabilardir. Mazkur olimlarning asarlari tufayli lingvistik geografiyaning fan sifatida asosiy o'rni, predmeti va vazifasi belgilandi, shu bilan birga u yoki bu til hodisasining territorial tarqalishini ko'rsatuvchi lingvistik kartaga tushirilgan belgi – «izoglossa»; izofonema – fonetik belgi; izomorfema – morfologik belgi; izoglossa-leksik belgi tushunchasi kiritildi.

Rossiyada lingvistik geografiyaning paydo bo'lishi va rivoji I.I. Sreznevskiy nomi bilan bog'liq. I.I. Sreznevskiy o'tgan asrning 50-yillaridayoq bu sohani o'rganish va rivojlantirish masalasini qo'ydi va bu yangi sohaning o'rni va vazifalarini belgilovchi asarlar yaratdi.

Rus lingvistik geografiyasining keyingi (XIX – asrning oxiri XX – asrning boshi) taraqqiyoti akad. A.I.Sobolevskiy va akad. A.A.Shaxmatov nomi bilan bog'liq. Akad. A.A.Shaxmatov o'z tekshiruvlari bilan lingvistik geografiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shibgina qolmay, balki rus dialektologlarining bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda ham bosh bo'ldi. Keyinchalik, rus shevalarini lingvo-geografik metod bilan o'rganish sohasida akad. Korsh boshliq Moskva dialektologik komissiyasi keyin dialektografik komissiya katta ishlar qildi.

1935-yilda SSSR FA «Rus tili atlasini» ni tuzishga kirishdi. Bu davrda tilshunoslardan B.A.Larin. F.P.Filin bosh bo'lgan dialektologlar gruppasi mazkur atlasni yaratish rejasini so'roqligini tuzdilar va bu atlas uchun material to'plash ishlarini uyushtirdilar. 1944-yilda tilshunoslardan R.I.Avanesov va B.A.Larin boshchiligida

“Rus dialektologik atlasini tuzish bo‘yicha materiallar to‘plash programmasi” yaratildi va shu programma asosida rus dialektlari atlasini tuzish ishlari boshlandi. 1951-yilda «Moskva shahridagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasini» tugallandi va u 1957-yilda nashr etildi. Hozirgi kunda barcha rus tili shevalari bo‘yicha material to‘plash, to‘plangan materiallarini kartalashtirish tugallangan.

Lingvistik geografiya metodi bilan shevalarini o‘rganish Ukraina va Belorussiyada ham yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu respublikalarda shevalar atlasini tuzish tugallandi va nashr etildi. O‘zbekistonda esa lingo-geografik metod bilan shevalarni o‘rganish 1940 yillarda boshlandi va bu sohada ish davom etmoqda.

Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlar tarqalish chegarasini aks ettirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig‘indisi dialektologik atlas deyiladi.

Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini uning millat bo‘lib shakllanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan.

Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar quyidagilar: Venker va Fredelarning «Nemis tili atlasini» /1876 –1926/, Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan. «Nemis leksikologik atlasini» Jileron va Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasini» /1902 – 1912/ Yaberg va Yudning 8 jildli «Italyan – shveytsar atlasini» /1928 – 1940/ yillar mobaynida yaratilgan. SSSR da tuzilgan eng muhim dialektologik atlasda: «Moskva sharqidagi markaziy viloyatlar rus xalqi shevalari atlasini» /1957/: «Shimoli-g‘arbiy viloyatlar rus xalqi atlasini» va boshqa SNG davlatlarida nashr etilgan «Ukrain tili xalq shevalari atlasini», «Belorus tili xalq shevalari atlasini» va boshqalar.

O‘zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o‘zbek shevashunosligi o‘zining boshlang‘ich etapi – dialektografiya bosqichini o‘tab endi u to‘plangan boy material – baza asosi va hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug‘ullanish bosqichiga o‘tdi. O‘zbekistonda dialektologik ishlarni boshqarib boruvchi yagona ilmiy markaz – O‘zFA ning Til va adabiyot instituti huzuridagi Dialektologiya bo‘limidir. Hozirgi vaqtda bu bo‘lim asosan uch yo‘nalish bo‘yicha ilmiy ish olib bormoqda bular: o‘rganilmagan o‘zbek shevalarini monografik tadqiqotlashtirish o‘zbek shevalari lug‘atini tuzish va o‘zbek tili dialektal atlasini yaratishdir. O‘zbek tili shevalarini monografik o‘rganish sohasida anchagina ishlar qilindi.

Bunday kuzatishlarning natijalari maxsus monografiyalar maqolalar va to‘plamlarda e‘lon qilindi. Ayrim tekshirishlarda keltirilgan leksik materiallar va ekspeditsiyalarda to‘plangan materiallar asosida o‘zbek shevalarining lug‘ati tayyorlandi va nashr etildi. O‘zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan o‘rganish ishi 1944 yilda boshlangan edi.

Prof. A.K.Borokov o‘zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida «O‘zbek – sheva – lahjalarini tekshirishga doir savol – javoblar anketasini» tuzdi. Shu anketa asosida 1945 –1950 yillar mobaynida Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plandi. Lekin o‘sha vaqtlarda Respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo‘qligi bu materiallarni ishlab chiqish va kartalarga ko‘chirish imkonini bermadi. Oradan 20 yil o‘tgandan keyin 1965 yildan boshlab, o‘zbek shevalari

xususiyatlarini kartalashtirish ishlari yana kun tartibiga qo'yildi. Ma'lum programma va so'roqlik tuzildi, shu asosida dialektal materiallar to'plana boshlandi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, ukrain, belorus va shuningdek, boshqa turkiy tillar dialektologiyasining shevalar atlasini yaratish sohasidagi boy tajribalaridan o'rganish hamda butun o'zbek kollektivi yashaydigan territoriya bo'ylab to'plangan lingvistik materiallar ma'lum darajada o'zbek shevalari atlasini tuzish uchun sharoit yaratdi.

O'zbek dialektlarini kartalashtirish ishini prof. V.V.Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini lingvistik tekshirdi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik – leksik va grammatik faktlarni kartaga ko'chirdi. O'zbek dialektologiyasida birinchi bo'lib o'zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi.

Prof.V.V.Reshetov tuzgan lingvistik kartalarda quyidagi fonetik , grammatik va leksik belgilar olingan. Fonetika bo'yicha «dj» lash, «j» lash va «y» lashing tarqalishi, ya'ni so'z boshida (dj/j/ y) hodisasi (karta №1, izoglossa: djoq – joq – yoq).

Morfologiyadan so'roq yuklamasi (- mi // - mi – m' // - ma // - me /

Ko'plik affiksi (-lar // - ler), qaratqich kelishigining ifodalanishi, shaxs va qaratish olmoshlarining ifodalanishi shaxs (munge – munge – mag'an, bunge – bunga – bunga – bug'an), (karta № 24).

Leksika bo'yicha quyidagi so'zlarning uchrashi yoki uchramasligi aniqlangan: karta № 38: meyek, karta №39: dugava – dogava // kese kose, karta №40, enek – nek – ney // sigir – siyir // karta №41, tam –tom //Uy –uy –oy- oy karta №42, bole // hole // vechche karta № 43, djezde // pochche, karta № 44, bobek – chakalok, karta № 45, chekki – suzma, karta № 46. kurre – xotk, karta № 47, Uri – gong.

Prof. V.V.Reshetov o'zi o'rgangan territoriyadagi izoglossalarning tarqalishini o'rganib, ayrim sheva vakillarining etnognezini aniqlashga va shuningdek real til faktlari asosida qurama shevalarning aniq tasnifini berishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbek tili dialektologiyasi atlasini quyidagi vazifa – maqsadlarni ko'zda tutadi:

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili ma'lum shevalarga tayanadi. U o'zining imlo va talaffuz normalarini, shuningdek, fonetik sistemasi grammatik tuzilishi, leksik sostavini normalashtirishda, asosan, Toshkent Farg'ona til shevalariga asoslansa, ayrim hollarda bu shevalar materiali adabiy til normalariga mos kelmaydi. Dialektologik atlasning ob'ektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to'liq aniqlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o'zbek tili territoriyasida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik atlas zaminidagi muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o'zbek shevalarining mavjud tasniflarini to'ldirish mukammallashtirishga ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuningdek, o'zbek shevalarining paydo bo'lishida qatnashgan turkiy va turkiy bo'lmagan etnik gruppalarning o'zaro aloqalari natijasida ro'y bergan juda murakkab etnolingvistik taraqqiyot protsessini ham belgilab beradi.

3. Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri o'zbek xalq shevalaridagi til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtiradi. Chunki o'zbek xalqining ekonomikasining va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o'zbek adabiy tilining qo'llanish doirasi kengaydi. Adabiy tilning barcha o'zbek

shevalariaro normalasha borishi asta–sekin dialektal nutqni kesib, og‘zaki–so‘zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi.

Tayanch tushuncha:

1. Izoglossa.
2. Karta.
3. Dialektologik atlas.
4. Izofonema.
5. Izomorfema.

18-ma’ruza

Mavzu: Adabiy til va dialekt munosabati

Reja:

1. Sheva, milliy til va adabiy til tushunchalari
2. Dialektal xato va ularni bartaraf etish yo‘llari
3. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida rivojlanishi

Sheva, milliy til va adabiy til tushunchalari.

O‘zbek shevashunosligida mavjud bo‘lgan ilmiy adabiyotlarda sheva, lahja va dialect atamaları turlicha ma’nolarda qo‘llanilib kelmoqda. Mazkur atamalarning ma’nosi ham bir-biridan unchalik uzoq emas. *Sheva* – forscha so‘z bo‘lib, asl ma’nosi *ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish* kabi ma’nolarni anglatadi. Ammo tilshunoslikka oid atama sifatida qo‘llanilganda “o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan, muayyan hudud bilan chegaralangan o‘zbek tilining bir tarmog‘i sheva deyiladi”. Shevalar hatto kishik bir qishloq hududi bilan ham chegaralanishi mumkin. Masalan, Toshkent shevasi, Andijon shevasi va boshqalar.

Keyingi yillarda sheva atamasi bilan bir qatorda – dialekt atamasi ham ishlatilmoqda. Dialekt so‘zi lotincha bo‘lib, adabiy tildan o‘zining ba’zi bir (fonetik, grammatik, leksik) farqlanadigan umummilliy tilning yirikroq bo‘lago dialekt deb yuritiladi.

Kichik shevalar yig‘ilsa, lahjani yuzaga keltiradi. Shu bois, “bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi lahja deb yuritiladi”. *Lahja* – so‘zi arab tiliga xos bo‘lib, *ifoda, so‘z, sheva, ovoz* kabi ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi. Lahja atamasi keng va tor ma’nolarda qo‘llanilib kelinadi. O‘zbek tilshunosligida shevalardagi asosiy xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisi ma’nosida qo‘llanilishi uning keng ma’noda qo‘llanilayotganini bildiradi. Ba’zan esa, dialekt (sheva) atamaları bilan ham mos kelib qoladi. Bunda u tor ma’noda qo‘llanilayotgn bo‘ladi.

Milliy til tushunchasi barcha sheva hamda lahjalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Milliy tilimiz chegaralangan va chegaralanmagan leksika, yangi va eski so‘zlar, kasbhunarga oid so‘zlar, tabu va evfemizmlar, varvarizm, jargon va argolar, xullas tilimizning barcha leksik qatlamlarini qamrab oladi.

O‘zbek adabiy tili esa, ana shu lisoniy vositalarda saylab olinib, sayqallanib, tartibga solinib shakllantirilgan, O‘zbekistonda yashayotgan barcha sheva vakillari

uchun tushunarli bo'lgan til hisoblanadi. O'zbek adabiy tili ana shu sheva va lahjalardan oziqlanadi.

Dialektal xato va ularni bartaraf etish yo'llari. Mamlakatimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan sheva vakillari o'zbek adabiy tilidan foydalanishda bir qancha o'rinlarda dialektal xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday dialektal xatoliklar har bir lahja vakillari uchun xususiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Masalan, qarluq lahjasi vakillari nutqida qaratqich kelishigi(-ning) o'rnida tushum kelishigi (-ni)ni qo'llash holatlari keng kuzatildi. Misol qilib: *mani kitobim* (mening kitobim), *sani uying* (sening uying) kabi. Bu holatni o'zbek tilining deyarli barcha sheva va lahjalari vakillari nutqida kuzatish mumkin.

Yoki, o'g'uz lahjasi vakillari nutqida jo'nalish kelishigi (-ga) o'rnida (-a) shaklining qo'llanishi: *bozora* (bozorga), *uy:a* (uyga) kabi. Samarqand, Buxoro regionlarida yashaydigan turkiyzabon kishilar nutqida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) o'rin-payt kelishigi o'rnida qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, mashinada keldi//*mashinaga keldi*; shu yerda//*shu yerga* va boshqalar.

Bu kabi dialektal xatoliklarni tuzatish uchun ko'proq adabiy til me'yorlarini o'rganish va ularga rioya qilish zarur bo'ladi. Buning uchun mashhur diktorlar, radio va televideniening taniqli suxandonlari nutqini tinglab borish zarur bo'ladi.

Bir xalq tilining turli davlat hududlarida rivojlanishi. Ma'lum bir territoriyada istiqomat qiladigan, muayyan millatga xos tillar bugungi kunda mavjud chegaralar bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, o'zbek tilining tarqalish areali O'zbekiston davlati chegaralaridan ancha yiroqdagi o'lkalarni ham qamrab oladi. Jumladan, qo'shni Afg'oniston hududida bir nech millionlik o'zbek tilida gaplashuvchi aholi yashaydi. Yoki Sharqiy turkiston deb hisoblanayotgan Xitoyning janubiy-g'arbiy hududlarida, Tojikistonda, Qozog'iston va Qirg'izistonning bir qancha viloyatlarida o'zbek tilida gaplashuvchi aholi istiqomat qiladi.

Ana shu hududlardagi o'zbek tili va shevalari ham bizning milliy tilimiz tarkibiga aloqador hisoblanadi. Bu hududlardagi o'zbek shevalari ham ko'pchilik olimlarimiz tomonidan o'rganilgan, tahlil va tadqiq qilingan.

Bugungi globallashuv zamonida dunyoning turli o'lkalariga o'zbek millatiga mansub kishilar borib ishlab, yashab faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Amerika, Germaniya, Rossiya va boshqa dunyoning ko'plagan davlatlari hududida o'zbek tilida gaplashadiga kishilar mavjud, ularning til xususiyatlarini o'rganish, osha yerdagi o'zbekcha nutqning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish ham o'zbek tilshunosligi, xususan, shevashunosligi sohasining vazifalari sirasiga kiradi.

REFERAT MAVZULARI

1. O'zbek shevalarida polizchilik
2. Qoshloq xo'jaligi leksikasi
3. Aralash tip shevalar
4. J-lovchi shevalar
5. Qipchoq dialektlari
6. Qashqadaryo shevasi
7. Toshkent shevasi
8. Qo'qon shevasi
9. Eronlashgan shevalar
10. Qipchop shevasining fonetik xususiyatlari
11. O'g'uz shevasi fonetikasi
12. Qipchopq shevasi morfologiyasi
13. O'g'uz shevasi morfologiyasi

14. Qarluq lahjasi
15. Xorazm shevalari
16. Orolbo‘yi o‘zbek shevalari
17. O‘zbek tilining qarindoshlik terminlari
18. O‘zbek tilining etnografik leksikasi
19. Uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi
20. O‘zbek shevalari sintaksisi
21. O‘zbek shevalari frazeologiyasi
22. Marosim leksikasi

23. Kiyim-kechak leksikasi
24. Kasb-hunar leksikasi
25. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi.
26. Shevalarimizni o‘rganishda Yevropa olimlarining o‘rni.
27. Borovkov va Yudaxin tasniflari.
28. G‘ozi Olim va Polivanov tasniflari.
29. Dialektal lug‘atshunoslik muammolari.
30. Shevalarni tadqiq qilish usullari.

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI FANIDAN

UMUMIY SAVOLLAR

1. O‘zbek dialektologiyasi fanining predmeti
2. Fanning obyekti, obyekt turlari, sheva, lahja, qardosh tillar, qardosh bo‘lmagan tillar, chet ellarda yashaydigan o‘zbeklarning shevalari
3. Dialektlarni o‘rganish usullari
4. Yakka holda ishlash, monografik usulda o‘rganish, transkripsiya, tranliteratsiya
5. Lingvistik geografiya
6. Izofonema, izomorfema, izaglossa, dialektologik atlaslar
7. O‘zbek tili va o‘zbek xalq shevalari
8. Sheva va adabiy til
9. O‘zbek shevalari va qardosh tillar
10. O‘zbek shevalari va qardosh bo‘lmagan tillar
11. O‘zbek shevalari tasnifi
12. Tushunchalarga ta’rif bering, tasniflarning ahamiyati
13. Chet el olimlarining tasnifi va o‘zbek olimlarining tasnifi
14. Shevaga xos dialogik matn keltiring va izohlang
15. O‘zbek shevalari vokalizmi
16. Tovushlarga ta’rif bering, kombinator variantlarini aniqlang
17. Singarmonizm
18. Tovushlarni tasniflang
19. O‘zbek shevalari konsonantizmi
20. Tovush va fonemani izohlang
21. Diakritik belgilarni ayting
22. Undoshlarga ta’rif bering
23. Transkripsiya ta’rif bering!
24. O‘zbek shevalari leksikasi
25. O‘zbek shevalari tarqalgan hududlar
26. Shevalarning xususiyatlari
27. O‘zbek shevalarida yangi va eski so‘zlar
28. Arxaizm, istorizm, neologizm
29. Tabu va evfemizmlar
30. Mavzu bo‘yicha referat yozing
31. O‘zbek shevalari frazeologiyasi
32. Erkin va turg‘un birikma
33. Dialektal va adabiy tildagi frazeologizmlar
34. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi
35. O‘zbek tili lahjalari va ularning xususiyatlari
36. O‘g‘uz lahjasi tarqalgan hududlar
37. Xorazm o‘g‘uz-qipchoq shevalari
38. O‘g‘uz-qipchoq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari
39. Xorazm shevalari tasnifi
40. Oraliq tip shevalar
41. O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari
42. Shevalar taraqqiyotida insoniyat taraqqiyoti ta’siri
43. Shevalarning ichki va tashqi manbalar asosida boyishi
44. O‘zbek shevalari morfologiyasi

45. Mustaqil soʻz turkumlari, olmoshlarning turlari
46. Kelishik, egalik va koʻplik kategoriyasi
47. Dialektal lugʻat tarkibi
48. Oʻzbek shevalari tarmoqlari
49. D.L. ga kiritiladigan soʻzlar
50. Dialektal matnlarning ahamiyati
51. Dialektal lugʻat tiplari
52. Turkiyshunoslikda D. L.
53. Dialektal lugʻat turlari
54. Dialektal lugʻatlarning ahamiyati
61. jratib, izohlang!
55. D.L. tuzish muammolari va dastlabki dialektal lugʻatlar
56. Monografik ishlar tarkibidagi dialektal lugʻatlar
57. Shevalarni yozib olish va toʻplash usullari
58. Yakka holda ishlash, guruh boʻlib ishlash
59. Shevalarni toʻplashda texnik vositalardan foydalanish
60. Suhbat matnidan dialektizmlarni a

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI
O. N. SAVOLLARI

1. Lahja nima?
2. Sheva, dialekt deb nimaga aytiladi?
3. Jargon va argolar.
4. Transliteratsiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosi?
5. Transkripsiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosi?
6. Dialektologiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosi?
7. Atlas nima?
8. Lingvistik geografiya.
9. Lingvoareal metod.
10. Dialektologiyaning turlari.
11. Dialektologiyaga doir qo‘llanmalar.
12. Shevashunoslik fanining mualliflari.
13. O‘zbek shevalarini tadqiq qilgan rus olimlari.
14. Shevashunoslikning o‘rganilishi.
15. O‘zbek shevalarini kartalashtirish.
16. Tabu va evfemizm.
17. Istorizm, arxaizm
18. Neologizm
19. Shevashunoslikning semantik sohalari.
20. Gidronimlar
21. So‘zlarning shakli va ma‘nosi.
22. Xalq shevalari.
23. O‘zbek shevalari tasnifi.
24. V.V.Reshetov tasnifi.
25. G‘.O.Yunusov tasnifi.
26. E.D.Polivanov tasnifi.
27. Shevalarni zonal o‘rganish.
28. O‘g‘uz lahjasi.
29. Qipchoq lahjasi.
30. Qarluq lahjasi.
31. Vokalizm
32. Konsonantizm
33. Shevalarni o‘rganuvchi markaz.
34. Sheva va adabiy til.
35. Shevalar morfologiyasi.
36. Shevalar sintaksisi.
37. Ko‘plik qo‘shimchalari.
38. Egalik qo‘shimchalari.
39. Kelishik qo‘shimchalari.
40. Fe‘l xususiyatlari.
41. O‘zbek shevashunos olimlari.
42. Shevalarni o‘rganish metodlari.
43. Singarmonizm hodisasi.
44. Transkripsiyaning turlari.

45. Omonim soʻzlar.
46. Sinonim soʻzlar.
47. Antonim soʻzlar.
48. Forsiy qatlam.
49. Arabizmlar.
50. Umumturkiy soʻzlar.
51. Lahja nima?
52. Sheva, dialekt deb nimaga aytiladi?
53. Jargon va argolar.
54. Transliteratsiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi?
55. Transkripsiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi?
56. Dialektologiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi?
57. Atlas nima?
58. Lingvistik geografiya.
59. Lingvoareal metod.

Y. N. SAVOLLARI

Dialektologiyaning turlari.

1. Dialektologiyaga doir qoʻllanmalar.
2. Shevashunoslik fanining mualliflari.
3. Oʻzbek shevalarini tadqiq qilgan rus olimlari.
4. Shevashunoslikning oʻrganilishi.
5. Oʻzbek shevalarini kartalashtirish.
6. Tabu va evfemizm.
7. Istorizm, arxaizm
8. Neologizm
9. Shevashunoslikning semantik sohalari.
10. Gidronimlar
11. Soʻzlarning shakli va maʼnosi.
12. Xalq shevalari.
13. Oʻzbek shevalari tasnifi.
14. V.V.Reshetov tasnifi.
15. Gʻ.O.Yunusov tasnifi.
16. E.D.Polivanov tasnifi.
17. Shevalarni zonal oʻrganish.
18. Oʻgʻuz lahjasi.
19. Qipchoq lahjasi.
20. Qarluq lahjasi.
21. Vokalizm
22. Konsonantizm
23. Shevalarni oʻrganuvchi markaz.
24. Sheva va adabiy til.
25. Shevalar morfologiyasi.
26. Shevalar sintaksisi.

27. Ko‘plik qo‘shimchalari.
28. Egalik qo‘shimchalari.
29. Kelishik qo‘shimchalari.
30. Fe’l xususiyatlari.
31. O‘zbek shevashunos olimlari.
32. Shevalarni o‘rganish metodlari.
33. Singarmonizm hodisasi.
34. Transkriptsiyaning turlari.
35. Omonim so‘zlar.
36. Sinonim so‘zlar.
37. Antonim so‘zlar.
38. Forsiy qatlam.
39. Arabizmlar.
40. Umumturkiy so‘zlar.

FOYDALI MASLAHATLAR

- shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi;

- adabiy tilda allaqachon yo‘q bozlib ketgan yoki ma’lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan;

- dialektologiya til tarixini o‘rganish uchun juda ahamiyatlidir;

- o‘zbek dialektologiyasi ham o‘zbek tili tarixini o‘rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir;

- qadimiy o‘zbek yozma yodgorliklarining biz uchun noaniq bo‘lgan ayrim xususiyatlarini hozirgi davr o‘zbek shevalarining xususiyatlarini o‘rganish bilan to‘ldirishimiz mumkin;

- dialektlarni o‘rganish ham ilmiy, ham praktik ahamiyatga ega;

- shevalarni o‘rganish o‘zbek adabiy tilining fonetik, leksik-grammatik normalarini belgilash uchun, shuningdek, o‘zbek orfografuya va orfoepiyasini stabillashtirishda ham katta yordam beradi;

- shevalarni o‘rganish xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham muhimdir;

- shevalarni o‘rganish orqali o‘tmishdagi urug‘-qabilalarning joylashish hududlarini aniqlash, toponimlar, gidronimlar va shu kabi nomlar vositasida xalq tarixining ayrim manzaralarini yaratish mumkin bo‘ladi.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

Quvondiq Madiyorovich Olloyorov.

1969-yil 9-fevralda Qo‘shko‘pir tumanidagi Oqdarband qishlog‘ida tug‘ilgan. 1989-90 o‘quv yilida Fayzulla Xo‘jaev nomidagi Buxoro davlat universitetining tayyorlov bo‘limini tugatib, shu yili Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universitetiga qabul qilingan.

1995-yilda Oliy o‘quv yurtlari iqtidorli talabalari o‘rtasida Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan olimpiadada faxrli birinchi o‘rinni egallagan. 1995-yilda o‘qishni imtiyozli diplom bilan tamomlab, UrDUning Umumiy tilshunoslik kafedrasiga ishga qabul qilingan.

1996-99 yillarda UrDU qoshidagi aspiranturada o‘qigan. “Xorazm dostonlari onomastikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ustida izlanishlar olib bormoqda. Shu davr mobaynida chet el, mahalliy va markaziy matbuotda o‘ttizdan ortiq ilmiy maqolalari e’lon qilingan.

TARQATMA MATERIALLAR

1. Shevaga xos so‘zlarni toping.

- a) –E, shoshmang, tusholmayotibman, -dedi Oqila,-Qaqqa ketvobbiza o‘zi?(Y. Shomansur)
- b) –Daladan kelganimda shatta turgan edi-ya! Kampir chiroqsiz xonada gugurt chqaib, qimiz kadini qidirar edi.

2. Eskirgan so‘zlarni toping.

- a) Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’lum.(A.Q)
- b) Tilmoch tortiqni oldi va beto‘xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va’da qildi. (A.Q)
- c) Xon yasovulni chaqirib, yo‘lga hozirlanishni buyurdi.
- d) O‘tmishning jafoli qo‘ynida
Jontemirlar juda ko‘p bo‘lgan:
Biri batrak, biri chorakor,
Biri malay, biri nonga zor,
Biri podachi, biri kambag‘al,
Biri gadoy bo‘lgan, biri xor. (Uyg‘un)
- e) Ashurmirza betini ushlaganicha mirshabxonaga yugurdi.
- f) Tarix muzeyida paranji, chachvon, charx, chig‘iriy ham bor ekan.

3. Quyidagi sinonimik qatordan bosh soʻzni aniqlang.

- a) Aft, bet, yuz, chehra, bashara
- b) Gʻam, musibat, qaygʻu
- c) Quvnoq, shod, xursand, xushchaqchaq
- d) kuldi, iljaydi, jilmaydi, xoxoladi.
- e) puxta, pishiq, mustahkam, mahkam.
- f) koʻp, ancha, talay, moʻl, serob.

4. Oltin soʻzi qaysi gapda koʻchma maʼnoda qoʻllangan?

- a) Oltin oʻtda bilinar, odam mehnatda.(Maqol)
- b) Suvlar tiniq, yaproqlar oltin.(Uygʻun)
- c) Yerimiz – oltin, unga nima eksang bitadi.
- d) Oltin nashvatilar, yoqut olmalar uzilib tagiga tushibdi.
- e) Yer – xazina, suv – oltin.
- f) Oltin qoziq yer ostida, koʻk arqoni yer ustida.

MASALALAR VA MASHQLAR TOʻPLAMI

1-mashq

1. Shevaga xos soʻzlarni toping.

- a) –E, shoshmang, tusholmayotibman, -dedi Oqila,-Qaqq ketvobbiza oʻzi?(Y. Shomansur)
- b) –Daladan kelganimda shatta turgan edi-ya! Kampir chiroqsiz xonada gugurt chqaib, qimiz kadini qidirar edi.

2-mashq

2.Eskirgan soʻzlarni toping.

- a) Mingboshining bir oʻziga yetti yuz bogʻ beda, bir toy bergani maʼlum.(A.Q)
- b) Tilmoch tortiqni oldi va betoʻxtov pristavga yaxshilab tushuntirishni vaʼda qildi. (A.Q)
- c) Xon yasovulni chaqirib, yoʻlga hozirlanishni buyurdi.
- d) Oʻtmishning jafoli qoʻynida
Jontemirlar juda koʻp boʻlgan:
Biri batrak, biri chorakor,
Biri malay, biri nonga zor,
Biri podachi, biri kambagʻal,
Biri gadoy boʻlgan, biri xor. (Uygʻun)
- e) Ashurmirza betini ushlaganicha mirshabxonaga yugurdi.
- f) Tarix muzeyida paranji, chachvon, charx, chigʻiriy ham bor ekan.

3-mashq

3. Quyidagi sinonimik qatordan bosh soʻzni aniqlang.

- a) Aft, bet, yuz, chehra, bashara
- b) Gʻam, musibat, qaygʻu
- c) Quvnoq, shod, xursand, xushchaqchaq

- d) kuldi, iljaydi, jilmaydi, xoxoladi.
- e) puxta, pishiq, mustahkam, mahkam.
- f) ko‘p, ancha, talay, mo‘l, serob.

4-mashq

4. Oltin so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma‘noda qo‘llangan?

- a) Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda. (Maqol)
- b) Suvlar tiniq, yaproqlar oltin. (Uyg‘un)
- c) Yerimiz – oltin, unga nima eksang bitadi.
- d) Oltin nashvatilar, yoqut olmalar uzilib tagiga tushibdi.
- e) Yer – xazina, suv – oltin.
- f) Oltin qoziq yer ostida, ko‘k arqoni yer ustida.

5-topshiriq

Matndagi so‘zlarni lotin yozuviga transliteratsiya qiling!

Банкир, банк, батинка, кунгилчан, мункаймоқ, тўнка, банкрот, мактаб, банка, арқон, манқал, чанғи, масхарабоз, қизиқчилик, ақча, боғча, вақтинча, иқтисод, ниқтамоқ, тўқсон, жабр, талаффуз, жавоб, жемпир, жуфт, инженер, пассажир, таржима. хориж.

Ушбу сўзлар асосида гап тузинг. Гап тузишда фразеологик ибораларни қўллашга ва фикрни ихчам, қисқа ифодалашга ҳаракат қилинг.

GLOSSARIY

Adabiy til – Umumxalq tilining til me‘yorlari doirasida sayqallangan shakli.

Alifbo – harflar tovushlarning ma‘lum tartibda joylashgan harfiy ifodasi (sirasi).

Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosi 29 harf va tutuq belgisidan iborat.

Artikulatsiya – tovushlarning paydo bo‘lishidagi nutq a‘zolarining holat va harakati.

Assimilatsiya – bir tovushning yon tovushga moslashishi, singishi. *Progressiv assimilatsiya* – oldingi tovushning ta‘sirida keyingi tovushning o‘zgarishi: *ottan (otdan), yurakka (yurakga)*. *Regressiv assimilatsiya*: keyingi tovushning ta‘sirida oldingi tovushning o‘zgarishi: *tussiz (tuzsiz), yossin (yozsin)*.

Antonimlar – ma‘nosi bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar: *katta-kichik, yosh-u qari, oq- qora*.

Arxaik so‘zlar – eskirgan so‘zlar: *ajun – dunyo, aya – kaft, ayag‘ – sharob, ayru – yoki* (Koshg‘ariy)

Atamalar(terminlar) – ma‘lum bir fan-texnika sohasiga oid so‘zlar: *neytron, proton, aniqlovchi, to‘ldiruvchi*

Badiiylik – Adabiyot va san‘at asarlarining ijtimoiy-estetik ahamiyatini belgilovchi sifati va darajasi.

Va‘z – Notiqar tomonidan o‘qiladigan nutq. Diniy aqidalarni targ‘ib qilishga qaratilgan nutq.

Voiz – Diniy mavzuda va‘z qiluvchi, nitq irod etuvchi notiq.

Vulgarizm – (qo‘pol va haqoratli so‘zlar) Adabiy tilda boshqa tillardan olingan

qo‘pol so‘zlarni nutqda noo‘rin va ko‘p qo‘llash.

Dialog – Ikki kishi orasidagi nutq. Og‘zaki va yozma shakllarga ega.

Dubletlar – ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar: *boyo ‘g‘li – boyqush, gado- gadoy, gazlama – gazmol.*

Etimologiya – so‘zning kelib chiqishini, tarixini o‘rganuvchi ta‘limot: *qayrag‘och – qayrilgan yog‘och*

Estetika – go‘zallik, nafis san‘at, badiiy ijodiyot va ularning shakllari haqidagi ta‘limot.

Jargon – biror ijtimoiy guruhga xos so‘zlar: *loy – pul, lox – sodda odam.*

Juft so‘zlar – juft shaklda qo‘llanuvchi so‘zlar: *qozon-tovoq, qishin-yozin, non-choy.*

Intonatsiya – Nutqda tovushning baland va past ohangi bilan belgilanadigan so‘zlashish tarzi, so‘zni talaffuz etish holati. So‘zlovchining nutq mavzuiga munosabatini, his-tuyg‘usini ifodalovchi talaffuz uslubi.

Improvizatsiya – Avvaldan tayyorgarliksiz biror munosabat tufayli ma‘lum mavzuda hozirjavoblik bilan nutq so‘zlash.

Kasb-hunar leksikasi – bir kasb yoki hunarga oid so‘zlar: *poshna, tagcharm.*

Kommunikativ sifat – Fikr almashuviga oid kommunikatsiya, ya‘ni aloqaning sifati. Nutqning sifati.

Ko‘p ma‘noli so‘zlar (polisemiya) – shaklan bir xil bo‘lsa ham ma‘nolari yaqin bo‘lgan so‘zlar: *ishning ko‘zi, gapning tuzi, ishning boshi.*

Logograf – Qadimgi g‘arb sud notiqligida nutq yozib beruvchi shaxs.

Leksikografiya – so‘z shakllari, tilning lug‘at boyligi – lug‘atlar haqidagi ta‘limot.

Madaniyat – Jamiyatning ishlab chiqarish va ma‘naviy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlar majmui.

Majoziy ma‘no (metafora) – biror predmet yoki harakatning belgisini boshqasiga ko‘chirish: *ko‘z yoshi sel bo‘ldi, bo‘ron o‘kirdi.*

Mantiqiy urg‘u – Nutq jarayonida biror so‘zning ma‘nosiga alohida diqqat jalb etish maqsadida uni boshqalardan ajratib, kuchliroq talaffuz etib ko‘rsatish.

Monolog – bir kishining nutqi. (Ko‘pincha o‘z-o‘ziga so‘zlash)

Mubolag‘a (giperbola) – shaxs, voqea, hodisa va predmetlarni bo‘rttirib ifodalash: *Ohim ko‘klarga yetdi. Tilini uzun qildi.*

Muzakkir – tarixchi notiq.

Neologizmlar – yangi qo‘llangan so‘zlar: kollej, litsey, biznes, reyting.

Notiq – nutq so‘zlovchi; gapga chechan, usta so‘zamol.

Nutq – fikrni so‘z orqali ifodalash. So‘zlashuv jarayoni.

Nutq madaniyati – og‘zaki va yozma tarzda fikr bildirishning adabiy til me‘yorlariga mos tarzda ifodalanishi. Tilshunoslik faniga oid soha.

Ohang – bir-biriga ulangan, uyg‘unlashgan yoqimli tovushlar tizimi. Nutqda ma‘noga qarab ovozning balandligi yoki pastligi.

Omonimlar – shaklan bir xil, mazmunan turli so‘zlar: *ot – hayvon, ot – fe‘l; o‘t – o‘simlik, o‘t – fe‘l.*

Onomastika – atoqli otlar tizimini: kishi ismlarini, toponimika – joy nomlarini va boshqalarni o‘rganadi.

Paronim – tovushlari va tarkibi o‘xshash, ma‘nosi boshqa so‘zlar: *otaliq – otalik,*

shoh – shox, hal – xol.

Qo'shma so'zlar – birdan ortiq o'zakli so'zlar: *Oltiariq, oybolta, gultojixo 'roz.*

Ritorika – notiqlik nazariyasi, javob talab qilmaydigan so'roqlar.

Semasiologiya – so'z ma'nolari haqidagi ta'limot.

San'at – yuksak mahorat, ustalik.

Sinegor – Qadimgi g'arb sud notiqligida nutq tayyorlab beruvchi shaxs.

Sinekdoxa – butunni qism bilan yoki qismni butun bilan ifodalash: *kalla, chinoq (odam ma'nosida).*

Sinonimiya – so'z va gaplarning ma'nodosh bo'lishiga xos grammatik o'zgarish.

Sinonimlar – shaklan turli xil, mazmuni bir-biriga yaqin so'zlar: *odam, inson, kishi, shaxs.*

Sifatlash(epitet) – narsa yoki tabiat hodisalarining xususiyatlarini tasvirlash uchun ularning nomiga qo'shib ishlatiladigan so'z: *oltin kuz, kumush qish*

So'z – ma'no anglatuvchi nutqning bir bo'lagi.

So'zning leksik ma'nosi – so'zning lug'aviy ma'nosini o'rganishdir.

So'zning asl ma'nosi – so'zning o'z, lug'aviy ma'nosi.

So'zning ko'chgan ma'nosi – so'zni ko'chma ma'noda qo'llash (*metafora, metonimiya, sinekdoxa, polisemiya va boshqalar*)

Tabu – ma'n etilgan, aynan aytilmaydigan so'zlar: *chechak, qizamiq – gul, qoraqurt – biy, kal – siyqabosh.*

Tarixiy so'zlar – eski, ammo hozir o'z muqobiliga ega bo'lmagan, ma'lum maqsadlardagina ishlatiladigan so'zlar: *qozi, pristav.*

Uslubshunoslik – nutq uslublari haqidagi fan.

Urg'u – so'z tarkibidagi tovushlardan birining yoki gap tarkibidagi bo'laklardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi hodisasi.

Xatib – masjidida xutba o'qiydigan, va'z aytadigan domla-imom, voiz.

O'xshatish – predmet va harakat-holat o'xshatilib, metaforaga yaqin turadi: *Ulug'bek – misoli oftob. Adashgan it kabi Furqat qayon borg'um bilolmasman. (Furqat)*

O'zlashgan so'zlar – boshqa tillardan kirib, o'zlashib ketgan so'zlar: *kitob, ilm (arabcha), xushro'y, sozanda (forscha), stol, stul (ruscha) va b.*

Sheva va lahja – ma'lum hududda yashovchi aholining o'ziga xos so'zlari: *paqir, shoti, shakarob (Farg'ona), so'qi, zanggi (Xorazm)*

Sheva – umumxalq tilining ma'lum hududga xos ko'rinishii, mahalliy til, dialekt.

Sharh – biror bir narsaning mazmunini ochib berish, tushuntirish, izohlash.

Chet so'zlar – boshqa tillardan olingan so'zlar: *stol, stul (rus), kitob, olim (arab), ozoda, ob-havo, ovoza (fors), abzas (nem.), avariya (ital.), avtomat (lotin).*

Ingliz tilida

Literary language – within the norms of the national language, polished form of the language

Alphabet – an expression of the sounds as the letters. Uzbek alphabet based on the Latin alphabet consists of 29 letters and an apostrophe.

Artikulation – the movement of speaking organs while speaking.

Assimilation – the sound's adoption by means of next sound. In progressive assimilation previous sound changes next one: Otta (horse), yurakka (heart). In

regressive assimilation next sound changes the previous one: dim (Unsalted), Yossi (scribe).

Antonyms – meant to set up a conflict between the words: big and small, young and old, white and black.

Archaic words – old, out of date words: ajun (world), aya (palms), *ayag'* (alcohol) *ayru (or)* (Koshgariy)

Terms – words belong to a field of science and technology: neutrons, protons,

Literary – Artistic works of literature and art, establishing the importance of the social and aesthetic quality and level.

Vaz – understanding speech. Promoting religious beliefs speech.

Voiz – religious speaker.

Vulgarizm – rude words. In literary language, using words which come from other languages most and in inappropriate way.

Dialogue – speaking between two people. It has two forms: oral and written forms.

Dublet – means the words which have nearer meaning. *boyo'g'li* – *boyqush*, *gado-gadoy*, *gazlama* – *gazmol*.

Etymology – learning the history of the origin of the words: *qayragoch*- curved wood

Estetics – fine arts, artistic creativity and figures.

Jargon – some words which belong to specific particular social group: *loy-money*, *lox*- crazy man.

Two-part words – words which is set up two words: *qozon-tovoq*, *qishin-yozin*, *non-choy*.

Intonation – Which is determined by the tone of voice voices high and low setting, orator's speech, the relationship between the theme, expressing his hunches style.

Improvisation – without preparing, makin a speech very fluently on one subject.

Professional lexics – the words which belong to a particular profession or vocation: *heels*, *sole*, *mold*.

Communicative quality – quality of communication that is the quality of the connection, the quality of the speech.

Polisemy- the words which have lots of meanings. *ishning ko'zi*, *gapning tuzi*, *ishning boshi*.

Logograf – The person who wrote old western speakers's speech.

Lexicography – learning dictionaries and their types.

Madaniyat - a set of achievements won the rest of the cultural and spiritual life of society

Metaphora – A metaphorical interpretation of the (metaphorical) define a subject or another. *ko'z yoshi sel bo'ldi*, *bo'ron o'kirdi*.

Sentence stress - During the speech emphasized word in a sentence.

Monologue – of a person's speech. (Mostly speaking to oneself)

Hyperbolic – Expressing party, event and other items in bold: *Ohim ko'klarga yetdi*. *Tilini uzun qildi*.

Muzakkir – historian speaker.

Neologims – newly used words. *kollej*, *litsey*, *biznes*, *reyting*.

Notiq –speaker

Speech – expressing your thoughts in an orally way.

Speech culture – expressing your oral and written thoughts in the norms of literary language. The branch of linguistics.

Omonims – the same form and content of a variety of meanings: *ot* – *hayvon*, *ot* – *fe'l*; *o't* – *o'simlik*, *o't* – *fe'l*.

Onomastics – names, the names of the toponomycs.

Paronims – have similar voices and contents, but their meanings are different: *otaliq* – *otalik*, *shoh* – *shox*, *hal* – *xol*.

Complex words – have more than a base: *Altyaryk*, *oybolta*, *gultojixoroz*.

Rhetoric – questions which do not require answers.

Semasiologiya – good interpretation of the speech.

Art – high-skill.

Sinegor – the person who prepared speech in oldwestern countries. (now a lawyer)

Sinekdoxa – expressing the whole by means of its part, or opposite. *kalla*, *chinoq* (*odam ma'nosida*).

Synonyms – The similar words in meaning.

Epithet – is used to describe the characteristics of natural phenomena: and gold autumn, the silver winter

Word – a part of speech which has a meaning.

Lexical meaning of the word – learning its main meaning.

Main meaning of the word – The lexical meaning of the word.

Tabu – was banned, it was disclosed ma'n: *chechak*, *qizamiq* – *gul*, *qoraqurt* – *biy*, *kal* – *siyqabosh*.

The historical words – setting of the old, but is now known to mean different meaning: *qozi*, *pristav*

Method learning – learning about the methods of science

Stress – spelling a sound stronger than others.

Preacher – person who gives a speech in a mosque sermony.

Placeholders – similarity, it is near to metaphoric: *Ulug'bek* – *misoli oftob*. *Adashgan it kabi Furqat qayon borg'um bilolmasman*. (*Furqat*)

Imported words – comes from other languages. *kitob*, *ilm* (*arabcha*), *xushro'y*, *sozanda* (*forscha*), *stol*, *stul* (*ruscha*) va b.

Dialects – words belong to particular place. *paqir*, *shoti*, *shakarob* (*Farg'ona*), *so'qi*, *zanggi* (*Xorazm*)

Definition – Comments on something to reveal the contents of the explanatory thing.

Foreign words - Set from the other set of foreign languages: *stol*, *stul* (*rus*), *kitob*, *olim* (*arab*), *ozoda*, *ob-havo*, *ovoza* (*fors*), *abzas* (*nem.*), *avariya* (*ital.*), *avtomat* (*lotin*).

Rus tilida

Адабий тил(литературный язык) – В рамках норм литературного языка, национального языка, языка полированном виде.

Алифбо (альфавит) – Выражение способом, известным под звуки букв буквы алфавита (в комплекте). На основе латинского алфавита в узбекский алфавит состоит из 29 букв и апострофа.

Артикуляция – звуки подушки говорящих членов и движения.

Ассимиляция – адаптировано стороне звук поглощения звука. Прогрессивный ассимиляция предыдущий звук отслеживает звук: *ottan (otdan), yurakka (yurakga)*. Регрессивный ассимиляция звук до следующего звука в поставке: *tussiz (tuzsiz), yossin (yozsin)*.

Антоним – Противопоставляемые в значении слова: *katta-kichik, yosh-u qari, oq-qora*.

Архаические слова – Архаические устаревшие слова: *ajun – dunyo, aya – kaft, ayag' – sharob, ayru – yoki...*

Атамалар (термины) – термины известные в области науки и техники: *neytron, proton, aniqlovchi, to'ldiruvchi*

Бадийлик – Художественные произведения литературы и искусства, устанавливающих важность социально-эстетического качество и уровень.

Ваъз – Речь относящийся в религиозных убеждений.

Воиз – Человек проповедующий речью по религиозным убеждениям.

Вулгаризм(Vulgarizm) – Грубые и оскорбительные слова.

Диалог – речь между двумя людьми, говорящими. Имеется устные и письменные формы.

Дублеты – Одинаковым в значение слова, но пишется разное: *boyo'g'li – boyqush, gado- gadoy, gazlama – gazmol*.

Этимология – Отдель языкознаний изучающий история происхождения слов: *кайрагоч* – изогнутая древесина

Эстетика – Gozallik эстетика, изобразительное искусство, художественное творчество.

Жаргон – Набор жаргоне, характерные для той или иной социальной группе: *loy – pul, lox – sodda odam*.

Жуфт суз – Парные слова: *qozon-tovoq, qishin-yozin, non-choy*.

Интонация – Определяется высоким или низким тоном голоса. **Импровизация** – произнести речь без подготовки.

Профессионализмы – (касб-хунар лексикаси) слова относящийся тем или иным профессиям.

Полисемия – слова в одинаковыми формами, и связанными в значении.

Logograf – готовящийся судебные речи на письменном виде.

Лексикография в хорошей форме на богатство Справочника языковых словарей сверлом.

Выиграл остальную часть культурной и духовной жизни общества набор достижений.

Метафорическое интерпретация из (метафорическое) определяют предмет или другой

Злоупотребление: Коз затопить Жирный, бор okirdi.

Во время выступления подчеркнул один логический, чтобы привлечь внимание к типу Manog

Для того, чтобы установить его на части сильнее как гиперссылка.

Монолог речи человека. (Появляясь из чуть менее одной Adjust)

Mubolaga (гиперболической) партия, событие, событие и описание элементов borttirib:

ВГВР koklarga. Длинный язык.

Muzakkir историк спикер.

Neologizmlar, чтобы применить новые настройки: колледжи, школы, предприятия.

уведомления речевых акустических систем; красноречивый, sozamol.

Применительно к более чем ifodalash. Процесс регулировки.

Язык речи литературной культуры Месопотамии, а также письменные замечания

в соответствии со стандартами по науке ifodalanishi. Tilshunoslik сектора.

Кольца, соединенные друг с другом, подходяще привлекательную систему tovushlr. Имеет смысл в разговоре голос

Omonimo той же формы и содержания различных условиях: в настроениях животного;

текут в настроениях.

Ономастика имена, имена тела топонимики.

Ragonim голоса и заполнители контента, имея в виду другие параметры: отцовство отцовство

Король корону.

Адресована более одного комплекта Ozaki установить: Алтыарыкском, oubolta gultojixogoz.

Теория риторики и красноречия.

Semasiologiya хорошая интерпретация сверла.

Искусство высокого мастерства, умение

Sinegf старый западный красноречивым речи, подготовленной для человека (ныне адвокат)

Часть Sinekdoxa полностью или частично, заявил: голова, сердце (Перевод смысла).

Синонимы, что хорошо и грамматические скорости изменения температуры.

Содержимое виде различных синонимов для множества близких друг к другу: человек, человеческая личность, человек.

(Эпитет) состоит в описании характеристик природных явлений или

используется под названием их деятельности: серебро и золото осень зима

Ну значит, что сроки вашего ребенка. Вы должны ввести в себе лексическое значение

Iugaviy Manor organishdir. Необходимо ввести первоначальное значение меньше типа,

Iugaviy смысл. Необходимо ввести в Коти означало ввести принципы мобильного смысле (метафора, polisemiya и б)

Табу была запрещена, она была раскрыта Сдвиг: оспа, корь, цветы,

Кум положительный, лысый siyqabosh.

Историческая установка старого, но теперь известно, установить конечную публикацию:

судья, губернатор.

Занимался говорить о методах науки

Акценты соз структуру одного мальчика или структуры тона, что чем сильнее случай, чем другие

Проповедник в мечети проповедь .Make действительно говорят dmla имам проповедников.

Заполнители для пунктов и попытаться закрыть oxshatilib метафора:

Улугбек пример солнца. Бродячие собаки Фуркат не Откат до расходы. (Фуркат)

Ценные бумаги созданы на других языках, и установить ozlashib: книги, знания, (Арабский), xushroy музыкант (персидский), стол, стул (на русском языке), и б. Шева и диалекты известно, что чуть меньше населения, проживающего в конкретных

Окружение: понижающий выстрел, shakarob (Fargo), Саки, ржавчины (Хорезм) Шева, общенациональная сеть языка для конкретного региона, известного, на местном языке или диалекте.

Комментарии что-то, чтобы раскрыть содержание пояснительных сносок.

Набор из другого набора иностранных языков: столы, стулья (Россия), книги, ученый (по-арабски)

свежий, погода, Голос (Персия), пункт (Pilz.), аварийное (итал.), автоматический (Лат).